

**Jo'rayeva M.A., Shadmanov A.Q.,  
Abdullaev R, Abdullayeva M.A., Ashuraliyeva M**

# **XALQ TABOBATI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

*Jo'raeva M.A., Shadmanov A.Q.,  
Abdullaev R, Abdullaeva M.A., Ashuralieva M.A.*

**“XALQ TABOBATI”**

*(o'quv qo'llanma)*

### **Taqrizchilar:**

Toshkent Davlat tibbiyot akademiyasi umumiy amaliyot shifokorlar taylorlash, ichki kasalliklar va allergologiya kafedrasи mudiri, dotsent N.M. Nurillaeva

Andijon davlat tibbiyot instituti 1 – sonli umumiy amaliyot shifokorlar taylorlash kafedrasи professori K.D.Jalolov.

*Jo'raeva M.A., Shadmanov A.Q.,  
Abdullaev R, Abdullaeva M.A., Ashuralieva M.A.*

Ushbu kitob xalq tabobati turkumida jamlangan ma'lumotlarning bir qismi bo'lib, o'zida jahon xalq tabobati tarixi, uning asosiy tamoyillari – davolash va tashxis asoslari, usul va uslublari haqida ajoyib ma'lumotlarni jamlagan.

Kitob xalq tabobati mutaxassislari, shifokorlar, tibbiyot instituti talabalari va keng xalq, ommasi uchun mo'ljallangan.

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Andijon - 2014

## O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligining 20/3 yil 20 " dekabr dagi  
" 484"-sonli buyrug'iga asosan

M.Jo'rayeva, A.Shadmanov, M.Abdullayeva, R.Abdulloyev

(muallifning familyasi, ismi-sharifi)

5510100-Davolashishi, 5111000-KT (5510100-Davolashishi) yo'naliishlar ning  
ta'lim yo'naliishi (mataxassisligi)

talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan

"Halq tabobati" nomli

(o'quv adabiyotining nomi va turu: darslik, o'quv qo'llanma)

o'quv qo'llanmasi

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
litzenziya berilgan nashriyotlarda nashr qilishga ruxsat  
beriladi.



Vazir B.Xodiyev  
(imtoj)

Ro'yxatga olish raqami 484-079

*Biz darslik yaratishga eng ilg'or va eng sharaflı  
vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan  
odamlarni boshimizga ko'tarişhimiz kerak. Darslikni,  
agar kerak bo'lsa katta tanlov asosida yaratish lozim.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston  
Respublikasi Oliy Majlisiga IX sessiyasidagi nutqidan.*

## MUNDARIJA

### 1-QISM.

#### JAHON XALQ TABOBATI

I b o b. Misr tibbiyoti	8
II b o b. Hindiston tibbiyoti	11
III b o b. Eron tibbiyoti	13
IV b o b. An'anaviy Xitoy xalq tibbiyoti	14
V b o b. Tibet xalq tabobati	39

### 2-QISM.

#### SHARQ XALQ TABOBATI TARIXI

I b o b. VIII-XIX asrlarda yashab ijod qilgan Sharq xalq tabobati allomalari	25
II b o b. Abu Ali ibn Sino	30
III b o b. Ibn Sino tomir urishi haqida	35

### 3-QISM.

#### AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DAVOLASH USULLARI

I b o b. To'rt unsur ta'limoti	40
II b o b. Mizoj ta'limoti	41
III b o b. Igna sanchish va kuydirish	65
IV b o b. Loy bilan davolash	247
<b>ADABIYOTLAR</b>	252
<b>ILOVA</b>	256

## SO'Z BOSHI

Tabobat insoniyat bilan bir davrda paydo bo'la boshlagan. Insonlar o'z-o'ziga, bir-biriga yordam berishi oqibatida asta-sekin tibbiy bilimlar vujudga kelib, asrlar davomida o'ziga xos rivojlanish yo'llini bosib o'tgan. Tibbiy bilimlar rivojlanishi hozirgi davrga kelib o'ta ixtisoslashib, juda mayda bo'laklarga bo'lindi. Shunga qaramay, xalq tabobati hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, u asrlar ta'sirini yengib kelmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan "Xalq tabobati akademiyasi"ning tashkil etilishi O'zbekiston istiqloji tarixida muhim voqeа bo'ldi. Zero, qadimiy Turon tabobat dunyosiga tamal toshi qo'yanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Bu muqaddas zamin tuprog'idagi har bir giyohning yaprog'idan ildizigacha turli dardlarga shifo bo'lishi azaldan isbotlangan. Dorivor ichimliklar, malhamlar tabiiy giyohlardan tayyorlanganligi bois alpqomat Algomishlar, suluв Barchinoylar dunyoga kelib, yetti iqlimga dong'i ketgan. Jahon tabobatining shayxurraisi Abu Ali ibn Sino kabi allomalarining Vatani bu yurt.

Prezidentimizning xalq tabobatiga ko'rsatayotgan g'amxo'rligidan ilhomlanib, ushbu foydali kitobni yaratishga jazm etdi. Ushbu jazmdan maqsad, bir tomondan xalqimizni jahon xalq tabobati tarixi erishgan yutuqlari bilan tanishtirish, ikkinchi tomondan, tabobat usullari, qurollari, dorivorlari haqidagi ma'lumotlarni xalqimizga tushunarli tilda yetkazib berish bo'ldi. Unda xastaliklar haqida umumiyligi ma'lumotlar sodda va rayon tilda berildi, turli xastaliklarni xalq tabobati usulida qanday qilib davolash uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar mujassamlashtirildi.

Qo'lingizdagи "Xalq tabobati" risolasining o'ziga xos ahamiyati shundaki, u jahon xalqlari tabobatining eng ilg'or usullaridan tortib, otabobolarimiz qoldirib ketgan muolaja usullari, zamonaviy usullar, tartib-qoidalalar, tabiat unsurlari, oziqlantirishdagi parhez qoidalari bilan boyitildi. Tarqoq holdagi xalq tabobatiga oid adabiyotlarning asl mag'zi mualliflarimizning ko'p yillik bilim va tajribalari, takliflari bilan uyg'unlashtirilib, zamonaviy tibbiyotning ilg'or usullari bayon etildi.

Shuningdek, shu kungacha e'lon qilinmagan tabiiy o'sintliklarning shifobaxsh xususiyatlari xususida ham keng ma'lumotlar berilgan. Dori-darmonlarni tayyorlashning qulay usullari bayon etilgan. Jahon xalqlari tabobatida dori-darmonlarning qanday tayyorlanishi, iqlimiш sharoitiga qarab iste'mol qilishning salbiy-ijobiy ta'sirlari hisobga olingan.

Ushbu qomusda xalq tabobati rivojlanishining ko'hna davrlardan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan tarixi ommabop tarzda o'z aksini topgan. Qudimgi Misr, Xitoy, Tibet, Sharq va G'arb tabobatining oddiy usullari to'liq yoritib berilgan. Ushbu usullar bilan birga suv, havo, issiqlik, tuproq, loy, qum, tuz, magnit hodisalarining davolash uchun ishlatalishi ham yimpicha usulda berildi.

Kitobda inson mizoji, kasalliliklarning kechishi, davolanish

natiyalariga ta'siri, mizojga ta'sir o'tkazish usullari haqidagi amallarga alohida to'xtalib o'tildi.

Ushbu asarda tabiiy giyohlar, ularning ta'siri har xil xastaliklarda qo'llanilishi, "kamyob retseptlar" haqida ham keng ma'lumotlar berilgan. Xalqimiz ushbu asarda giyohlarni qaerdan topish mumkinligi haqida ham ma'lumot oladi.

Shuningdek, insonning kam o'rGANILGAN bioenergetik ta'sirining kasalliklarni aniqlash va davolashdagi o'rni, oliy asab faoliyatiga ta'sir ctish usullari haqida ham aniq ma'lumotlar berilib, davolash usulHLARI to'liq yoritib berilgan. Igna bilan davolash, barmoqlar bilan biofaol nuqtalarga ta'sir o'tkazish, kam o'rGANILGAN aurikuloterapiya, magnitoterapiya, igna bilan kuydirib davolash usullari ma'nosи, ta'sir etish mexanizmi, usulHLARI yorqin ko'rsatib berildi. Tabiatning bebahо boyligi bo'lgan metallar, mumiyoning inson a'zolariga ta'siri yaxshi yoritilgan va davolash usullari keltirilgan.

Keng xalq ommasi asarni o'qishi bilan tabobatning qulqqo ko'p chalinadigan usullari (vannalar, massaj-uqalash, xuqnalar, kompresslar, zuluk qo'yish, qon chiqarish, xantal - «gorchitsa» qo'yish va boshqalar) haqida ham to'liq ma'lumotlar oladi va o'zi ushbu usullarni qo'llashi mumkin bo'ladi.

Sizning e'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu «Xalq tabobati» asari juda ko'plab ma'lumotlar beribgina qolmasdan o'z sog'ligiga e'tibor berish, xastaliklarning oldini olish va ko'p holatlarda o'z-o'zini davolash uchun doimiy hamrohingiz bo'ladi.

Kitobdan xalqimiz o'zi uchun zarur maslahatlarni, albatta, oladi, shuningdek, turli dardlardan shifo topishlarida ularga katta yordam beradi, deb umid qilib qolamiz.

Kitobda ba'zi bir kamchiiliklarning bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham kitobxonlarning fikr-mulohazalari mualliflar jamoasi tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi va keyingi to'latilgan nashrlarda inobatga olinadi.

/Azimjon JO'RAEV/  
tibbiyot fanlari doktori, professor.

## 1-QISM.

### JAHON XALQ TABOBATI

Ma'lumki, Sharq insoniyat taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Ilm-fanning barcha sohalari, jumladan, tibbiyot ilmi ham dastlab Sharq mamlakatlarda paydo bo'lган. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyoviy dalillar va tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradi. Masalan, Afrika va Osiyo qitalarida olib borilgan arxeologik qazilmalarda ajdodlarimizning qaysi kasalliklar bilan og'rigani va qanday davolangani haqida juda ko'p ashyoviy dalillar topilgan. Shular asosida biz uzoq o'tmishda ba'zi mamlakatlarda tibbiyotning qanday darajada rivojlangani haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin.

#### I b o b. KO'HNA MISR TIBBIYOTI

Ko'hna Misr madaniy hayot va ilm-fanning rivojlanishi jihatidan nasaqat Sharq, balki dunyo miyosida ham yetakchi o'rın egallagan. Ayniqsa, Misrning tibbiyot tarixi juda uzoqqa borib taqalatsi. Ma'lumotlarga ko'ra, Misrda eramizdan oldingi IV ming yillikdayoq birinchi tibbiy maskanlar barpo etila boshlangan. Masalan, 3600 yili Fili orolidagi Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga qurilgan maxsus ibodatxonada bemorlar qabul qilingan. Bu yerda kohinlar maxsus tibbiy ta'lim olganlar, ular bemorlarni davolash bilan shug'ullanganlar. Xeliopolis va Sais shaharlaridagi tibbiy maktablarda dorilar tayyorlash, qo'llash, bemorlarni tekshirish, tashxis qo'yish va davolash ishlari o'rgatilgan.

Ko'hna Misr tibbiyoti haqidagi ma'lumotlar papiruslarda yozib qoldirilgan. Shulardan dastlabkisi Imxoteb papirusidir. Uni Imxotebning o'zi yozgan, deb faraz qiladilar. Bundan tashqari, Georg Ebers, Edvin Smit, Brugsha nomi bilan ataluvchi papiruslar hamda Britaniya tibbiy papirusi bor. Kaun papirusi mavjudligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Bu papiruslar orasida, ayniqsa, diqqatga sazovori Georg Ebers papirusidir. Bu papirus eramizdan oldingi 1500 yillarda yozilgan, deb taxmin qilinadi. Unda asosan turli xildagi dorilar, ularning qaysi kasalliklarda va qanday qo'llanishi bayon qilingan. Dorilarni qo'llashda yil fasli, iklimi, bemorning yoshi, ahvoli, kasallikning og'ir yoki yengillagini hisobga olish kerakligi, dori ta'sirining shu omillarga bog'liqligini ko'rsatib o'tilgan. Masalan, bolalarning yoshiga qarab dorini ishlatish usuli turlicha bo'lgan. Chunonchi, bir xil kasallik bilan og'rigan har xil yoshdag'i bolaga turli usulda dori berilgan. Katta yoshdag'i bolaning ichi ketganda unga dori xap shaklida berilsa, shu kasallik bilan og'rigan chaqaloqqa dori maydalaniib, sutga qo'shib berilishi kerakligi ko'rsatilgan. Ko'hna Misr tibbiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, har bir kasallik uchun har xil dori turlari ishlatilgan. Tabibning mohirligi kasalga mos dorini tanlay bilishi bilan belgilangan.

**Kasallik sababi masalasi.** Misrliklar kasallikni yovuz ruhlar paydo qiladi, deb o'ylashgan. Dastlab har xil usullar bilan yovuz ruhni tanadan chiqarib yuborish chorasin ko'rib, keyin johil ruhning bemor tanasida qoldirgan kasallik asoratlarini yo'qotish uchun dorilar ilohiy ta'sirga ega bo'lган.

Misr tabiblari kasalliklar bo'yicha ixtisoslashganlar. Masalan, Ko'hna Misrda ko'z, tish, bosh, ichki a'zolar, ruhiy kasalliklar bo'yicha mutaxassislar va jarroxlari bo'lган. Tish kasalliklari bo'yicha mutaxassislar kasal tishni davolash va tuzatib bo'lmaydiganini olib tashlash bilan cheklanib qolmay, tishni plombalash usullarini ham bilganlar. Masalan, ular oltin simlar bilan tishlarni bir-biriga mustahkamlab qo'yanlar.

Misrliklar tushunchasiga ko'ra odam o'lqandan keyin (agar uning jasadi saklansa) uning ruhi yashashda davom etadi va Mahsharda bu ruh odam tanasiga qaytishi mumkin. Shu tushunchaga asosan fir'avnlar, saroy amaldorlari va badavlat kishilar o'lganlardan so'ng ularning jasadi balzamlangan. Jasadni yorib, tomiriga balzam yuborilgan. Odam organizmining tuzilishini misrliklar boshqa xalqlarga nisbatan yaxshiroq bilganlar.

Eramizdan oldingi IV asr boshlarida makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) Misri bosib oladi va bu yerda Iskandariya (Aleksandriya) shaxxini barpo etadi. Iskandariya tez orada ilm-fan markazlaridan biriga aylanadi. Jumladan, tibbiyot ham yuksak darajada rivoj topadi. Yirik olimlar, donishmandlar, mashhur hakimlar ham bo'lган. Ayniqsa, Erazistrat va Xerofil mashhur bo'lganlar.

Erazistrat asli kichik osiyolik bo'lib, eramizdan oldingi (280-yilda vafot etgan) III asr boshida Iskandariyaga ko'chib kelib, shu yerda yashab, ijod etgan.

Erazistrat tibbiyotni odam organizmining xususiyatlari, xususan, harakat jarayonini o'rghanishdan boshlagan. Shu maqsadda u ko'pgina anatomik tekshirishlar o'tkazadi va bir necha kashfiyat qiladi. Masalan, odam bosh miyasini tekshirib, unda qattiq va yumshoq miya pardalari borligini, miya sathi tekis emasligini, u egri-bugri va mayda chuqurcha - egatlardan iborat ekanligini, miya massasi ichida suyuqlik saklovchi chuqurchalar (qorinchalar) hamda miyada harakatlantiruvchi va sezuvchi nerv tomirlari borligini aniqlagan. U organizm harakatini bosh miya idora etib turishini isbot qilgan. Bu o'sha vaqt dash juda muhim kashfiytlardan biri edi.

Erazistrat yurak va qon-tomirlarini ham anatomik va fiziologik jihatdan tekshirdi, yurak harakatini ko'zdan kechirdi. Yurak va yurak daxlizi hamda yurak va aorta tomiri o'rtaida qopqoqchalar borligini aniqladi. Qorin bo'shilg'idiagi a'zolarni tekshirib, ichak peristaltikasini ko'zdan kechirdi. Peristaltika tufayli ovqat mexanik jihatdan ishlanshi haqida fikr yuritdi. Bu fikr so'nggi tekshirishlarda tamomila tasdiqpandi. Shunday qilib, Erazistrat birinchi bo'lib odam anatomiyasini va a'zolar faoliyatining ba'zi muhim masalalari haqida to'g'ri fikr yuritgan va buni

anatomik tekshirishlar yo'li bilan isbotlab bergen. Bu tibbiyot faniga qo'shilgan katta hissa edi.

Iskandariyalik olim Xerofil eramizdan oldingi 300-yilda tug'ilgan. Xerofil ham o'z faoliyatini anatomiyani o'rganishdan boshladi. U miya, jigar va yurakni sinchiklab tekshirdi. Miyaning to'rtinchisi qorinchasi kattaroq ekanligini aniqladi. Yurakni tekshirib, uning harakatida uch davrsistola, pauza va diastola bo'lismeni kuzatdi. Arteriya qon-tomirlarining urib turishini tekshirib, uning yurak ishiga aloqadorligini ko'rsatdi. O'n ikki barmoqqa teng keladigan ichak (Duodenum)ni birinchi marta u kashf etgan.

Kasallikkarning sababchilari masalasida Xerofil idealistik fikrda edi. Lekin davolashda faqat diniy usullarni qo'llamay, dori-darmonlardan ham foydalanish kerakligini uqtirdi. Xerofilning fikricha, har bir kasallikning o'ziga xos maxsus dorisi bo'lishi kerak. Olim juda murakkab (ko'p tarkibli dori) dori turlarini qo'llagan.

O'sha davrda Iskandariyada yana bir mashhur tabib Xerofilning shogirdi - Qoslik Filipp (310-280 yillar) yashagan. "Empiriklar maktabi" nomli jamiyatni tashkil etgan. "Empirik"lar organizmning tuzilishi va tabiatini tekshirib o'tirishning hojati yo'q, u to'grida har xil nazariy fikr yuritish ham ortiqcha, deb o'ylaganlar. Tabibning vazifasi iloji boricha foyda keltiruvchi dorilarni qidirib topish va qo'llashdan iborat, deb uqtirganlar.

## II b o b. KO'HNA HINDISTON TIBBIYOTI

Hindiston tibbiyot sohasida ham o'z tarixiga ega. Ko'hna Hindiston tibbiyotini o'rganishda Ayur Veda asosiy manba hisoblanadi. "Ayur Veda" so'zi "hayotni bilish" degan ma'noni biddiradi. Tarixdan uchta Ayur Veda ma'lum. Bular - Atreyn Ayur Vedasi, Charaki Ayur Vedasi va Sushruta Ayur Vedasi. Sushruta Ayur Vedasi alohida e'tiborga molik. Bu kitob eramizdan oldingi VI asrda yozilgan, deb taxmin qilinadi. Kitobda odam organizmining tuzilishi, uning tabiatini, sog'liqni saqlash masalalari, kasallikkarni aniqlash va kelib chiqish sabablarini bilish, shu bilan birga kasallikkarni davolashga alohida e'tibor berilgan.

Hindiston tabiblari Xitoy olimlari kabi samoviy elementlar tushunchasiga asoslanganlar. Hindlar ma'lum to'rt unsurga (suv, yer, havo, olov) beshinchi - ilohiy unsurni ham qo'shdilar. Bu unsurlar vujudga ovqat sifatida kiradi va me'dada kaymusga aylanib, ichaklar orqali tanaga singadi hamda barcha a'zolar tarkibiy qismiga kiradi. Hind tabiblarining fikricha, odamning tabiatini shu unsurlar bilan belgilanadi.

Qadimgi hindlar sog'liqni saqlashda gigiena qoidalariga rivoja qilishni birinchi o'rninga qo'yanlar. Xususan, tanani, kiyim-kechakni, ko'rpa-to'shknini, uy-joyni toza va ozoda saqlashga, jismoniy tarbiyaga alohida ahamiyat berishgan.

Ovqatlanish tartibining buzilishidan ko'p kasallikklar kelib chiqishini aniqlab, parhez taomlarni tavsiya etganlar.

Ko'hma hind tabiblari kasalliklarni aniqlash va davolashda yuksak mahoratga erishganlar. Birinchi galda bemorni sinchiklab ko'zdan kechirish, undan so'rab-surishtirish, terisi va shilliq pardalarining holatini (quruq yoki namligi) tekshirish va tusini aniqiash, tilni ko'rish, tomirning urishini aniqlash usullarini ishlab chiqqanlar.

Sushruta Ayur Vedasida 1500 dan ortiq kasallik belgilari va aniqlash usullari bayon etilgan.

Sushrutada tibbiyot tarixida birinchi bo'lib, yallig'lanish jarayonining belgilari bekamu ko'st ko'rsatib berilgan. Bular - ishish paydo bo'lishi, qizarishi, shu joyning harorati oshishi, og'riq paydo bo'lishi va yallig'langan a'zo funksiyasining pasayishidan iborat.

Ko'hma hind tabiblari kasalliklarning kelib chiqishida xumoral (rutubatlar) nazariyasi nuqtai nazarida turganlar. Bu nazariyaga binoan har qanday kasallikkha a'zodagi to'rt suyuqlik (qon, balg'am, safro, savdo)ning miqdori yoki sifat jihatidan o'zgarishi sabab bo'ladi. Ulardan birortasi ustun bo'lsa, muvozanat yo'qolib, kasallik kelib chiqadi. Muvozanat buzilishiga iqlim va ob-havoning o'zgarishi, og'ir jismoniy mehnat noto'rri ovqatlanish sabab bo'ladi.

Sushrutada dori-darmonlarning 800 ga yaqini bo'lib, bular asosan o'simliklar, mineral moddaclar va hayvonlar a'zolaridan tayyorlangan. Tabiblar bemorga dori berishdan oldin suyuqliklarni muvozanat holiga keltirish maqsadida jismni ortiqcha rutubatlardan tozalash tadbirini ko'rganlar (ichini surish, qustrish, xuqna qilish), ko'pincha bemor tomiridan qon olinib, dori-darmon berilgan.

Bemirlarni davolashda yana dori-darmonlardan tashqari, uqalash, vanna qabul qilish va boshqa usullar qo'llanilgan.

Jarroxlilik usuli, ayniqsa, rivoj topgan. Jarrohlar qovuqdagi toshni chiqarib olganlar, churrada jarrohdik muolajasi qilingan, qattiq jarohatlanib, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan qo'l yoki oyoqni kesib tashlaganlar, ko'z kataraktasini operatsiya qilishgan. Ayollarning ba'zi kasalliklarni ham jarrohlik yo'li bilan davolashni bilganlar yoki dori-darmonlar bilan davolaganlar va hokazo.

Ko'hma hind tabiblari plastik jarrohlik usulini juda yaxshi bilganlar. Biror yetishmagan a'zo yoki uning qismi tiklangan. Bu sohada Sushrutaning o'zi mashhur bo'lgan. U burun, quloq, labni plastik yo'l bilan gayta tiklash usulini moxirlik bilan amalga oshirgan. Bu "Hind usuli" nomi bilan mashhur edi. Hind jarrohlari 200 xildan ortiq asboblarni ishlatganlar.

Mashhur tabib Dvanxtara tibbiyotga oid maxsus kitob yozib qoldirgan.

### III b o b. KO'HNA ERON TIBBIYOTI

Ko'hma Eron tabiblari ham kishi sog'lig'ini to'rt unsurga bog'liq, deb tushunganlar. Odamning ruhiy holatiga alohida ahamiyat berilgan. Ularning ta'kidlashicha, jaholat kishi ishtahasini buzib, kasallik keltirib chiqaradi. Yaxshi kayfiyat va xursandchilik esa bemorga shifo ato etadi. Bu

hozirgi zamondagi tibbiyot nuqtai nazaridan ham to'g'ri.

Eronliklarning o'z tibbiy xudolari bo'lган. U Traeton deb atalgan. Bu nom "Avesto"da ham uchraydi. Eronda amaliy tibbiyot ancha rivojlangan edi. Tabiblar alohida guruxlarga bo'linganlar. Masalan, fuqarolar tabiblari, dengizchilar tabiblari, quruqlikdagi harbiy kuchlarda xizmat qiluvchi tabiblar va vokazo. Tabiblar kasalliklarni ancha muvaffaqiyatli davolaganlar. Kasalliklarning oldini olishga alohida ahamiyat berishgan. "Kasallik tanangga ziyon yetkazmasdan oldin sen uni sug'urib tashla!" - deyishgan tabiblar.

Tabib o'z kasbini yaxshi egallagan bilimdon bo'lishi, odamlarga muloyim, xushmuomala, bemorlarga do'stona munosabatda bo'lishi lozim. Bemorga kasalligi haqida ko'p gapirmaslik, sir saqlanishi zarur bo'lган narsalarni esa umuman aytmasligi kerak. Tashhis masalasida bemorlardan so'rab-surishtirishga (anamnez to'plash) alohida ahamiyat bergenlar. Bemorning his-tuyg'ularini e'tiborga olganlar, "Qaysi bir bemor kasalligini yashirsa, u o'zini aldagani bo'ladi", - deyilgan maqollardan birida.

Eron tabiblari orasida kaxxollar (ko'z kasalliklari mutaxassislari), jarrohlar, tish tabiblari, tanosil, ruhiy va hatto ayollar kasalliklarni davolovchilar bo'lган. Jarrohlar oldiga qattiq talab qo'yilgan. Ular kasallarni jarroxlik yo'li bilan davolashga kirishishdan oldin o'z bilim va tajribalarini isbot etishi shart bo'lган. Tabiblar jarroxlik muolajasi vaqtida og'riqsizlantirish uchun bemorga narkotik moddalar bergenlar.

Ular isitmali kasalliktar, xususan, bezgak, bavosil, chechak, chaqa yaralar, ich ketish, har xil ya'llig'lanish, yuqumli teri kasalliklarni davolashni yaxshi bilganlar.

Dorilar ichida o'simlik va mineral moddalar, hayvonlardan olinadigan dorilar va boshqalar bo'lган. Bundan tashqari, tabiblar organizmning ba'zi kasalliklarga qarshilik ko'rsatish, quvvatini oshirish, masalan, ular ilon zaharini oz-ozdan berib, organizmning zaharga chidamini oshirganlar. Bu immunitet deyiladi.

Tabiblarga mo'ynachilar, temirchilar, teri bilan istlovlchlarda uchraydigan kasalliklar ma'lum bo'lган. Ular yuqumli kasalliklarni mavjudligini bilganlar va ularga qarshi ba'zi choralarini ishlab chiqqanlar. Yuqumli kasallik paydo bo'lган xonadonni va bemor buyumlarini dudlatganlar.

#### IV b o b. AN'ANAVIY XALQ TIBBIYOTI

"In" va "yan" tushunchalariga to'xtalinsa oddiy xitoyliklar, avvalo, xalq dostonining qaxramoni "Janob Inyan" haqidagi rivoyat, ertak va afsonalaming qaxramonlari bilan tasavvur qiladilar. Ko'pchilik uchun esa "in" va "yan" tushunchalari feodalizmdan qolgan xurofot hisoblanadi. Holbuki, har kungi so'zlashuvda uchrab turadigan bu so'zlarning Xitoy tilidan tarjimasi "in" - ayollarga xos qismi - sovuq, johil, "yan" esa erkaklarga xos - yorug', quyoshli, issiq xususiyatlarni anglatadi. Bizning atrofimizda qorong'ilashgan (in) hamda quyoshli yorug' joylar (yan)

mayjud. Ob-havo yomg'irli (in) yoki quyoshli (yan) ifodalariga to'g'ri keladi. Masalan, fizikada zarrachalar manfiy (in) yoki musbat (yan) belgilari ni ifodalaydi. Kimyoda ionlar manfiy (in) yoki musbat (yan) bo'lishi mumkin. Tibbiyotda esa ayol jinsi (in) va erkak jinsi (yan) tushunchalariga to'g'ri keladi. Ilmiy tajribalarning natijalari salbiy (in) yoki ijobjiy (yan) bo'lishi mumkin.

Ko'riniib turibdiki, "in" va "yan" qarama-qarshi turkumlar bo'lib, jism yoki hodisani atroflicha taysiflash uchun foydalaniлади. Bular hayotda ham, fanda ham mayjud.

"In" va "yan" haqidagi ta'limot Sharqiy Chjou davri (eramizgacha 770-256 yillar), Chunsysu (eramizdan oldingi 770- 476 yillar) va urushqoq shohlar zamonida (eramizdan oldingi 475-221 yillar) rivojlana boshlagan. Bu ta'limot borliq olam hodisalarini tushuntiribgina qolmasdan, an'anaviy Xitoy tibbiyot nazariyasining asosiy qismini tashkil qiladi, uning hamma sohalari va yo'nalişlarini o'z ichiga oladi.

Agar inson tanasining tuzilishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning yuqori qismi "yan"ni, quiy qismi "in"ni tashkil etadi. Har bir ichki a'zo ikki xil taysifga yoki tomonga ega. Masalan, yurak yoki buyrak "in" hamda "yan" xususiyatlariga ega. Barcha kasalliklar shu ikki - (sovuv) "in" va (issiq) "yan"ning murosasizligidan kelib chiqadi, muvozanati esa sog'liqni ta'minlaydi.

Tashxis qo'yishda ham "in" va yan"dan foydalaniлган. Davolashda ham "in" va "yan"lar orasidagi muvozanat va uyg'unlikni tiklashga urinilgan. Bu ta'limot tibbiyot ilmingning turli muammolarini hal etishga qaratilgan uslublar majmuasini tashkil qiladi. "In" va "yan" haqidagi ta'limot an'anaviy Xitoy tibbiyoti nazariyasining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

**Qorataloqning quvvatsizlanishi va yer hamda tabiatning beshta unsuri.** Agar siz yomon ishtaha va darmonsizlikdan shikoyat qilsangiz, Xitoy tabibi sizda qorataloq quvvatsizligini va yerni aytadi. Bu sizga g'atlari tuyulishi mumkin, chunki siz "er" qanday qilib kasallik keltirib chiqaradi, deb o'ylaysiz. Bu savolga javob berishdan oddin tabiatning besh unsurini tushuntirib o'tish joiz. "Tabiatning besh unsuri" haqidagi ta'limot ham ko'hna Xitoy falsafasining bir qismini tashkil qiladi. Bu ta'limotga asosan hayot daraxt, o't, yer, metall, suvdan, ya'ni beshta asosiy unsurdan tashkil topgan. Bu unsurlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

An'anaviy Xitoy tibbiyotida beshta asosiy unsurning bir-birini faollashtiruvchi va susaytiruvchi munosabatidan foydalaniлди. Masalan, yurak-jigar, taloq, o'pka va buyraklar bir-birini susaytirib, faollashtirib turadi. Agar biz ichki a'zolar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ular orasidagi munosabat unsurlar orasidagi munosabatga mos keladi, ya'ni yer metallni faollashtiradi, taloq o'pkaga faollashtiruvchi ta'sir beradi, daraxt yerni susaytirib turadi, jigar taloqqa susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Binobarin, "szan" guruhiга kiruvchi beshta ichki a'zo -yurak, jigar, taloq, o'pka va buyrak orasida faollashtiruvchi va qo'llab turuvchi

munosabatlar mayjud. Bu munosabatlarning muvozanati xuddi shu a'zolar faoliyatining me'yorda bo'lishini ta'minlaydi. Faollashtiruvchi va susaytiruvchi ta'sirlarning o'zaro muvozanati buzilsa, kasallik paydo bo'ladi. Masalan, jigarning o'ta faollahuvi taloqni susaytiradi va natijada talokda kasallik paydo bo'ladi.

"fu" guruhiga kiruvchi olti a'zo - ingichka ichak, o't pufagi, me'dda, yo'g'on ichak va qovuq, shuningdek, "sanszes" (orqa teshik) o'rtaida ham shunday hodisa kechishi mumkin.

"Sanszes" yoki "uchtatszes" ma'lum bir a'zo bo'lmay, "sean" va "fu" guruhiga kiruvchi a'zolarning ba'zi vazifalarini umumlashgan holda aks ettiradi. "Yuqori szes"ga me'da, ichak, ko'krak sohasi kiradi va u turli a'zolarning qon va "si" hayot quvvati bilan ta'minlovchi yurak va o'pka faoliyatini aks ettiradi. "O'rta szes" sohasi oziq moddalarni o'zlashtirishdan iborat. Taloq va me'da faoliyatini aks ettiradi. "Quyi szeo"-ga qorin sohasining pastki qismi kiradi. U siydkini to'plab, organizmdan chiqarib tashlaydigan buyraklar va qovuq faoliyatini aks ettiradi. Bu tibbiyotda yaxshi ma'lum bo'lib, ulardan an'anaviy Xitoy tibbiyoti ham, Yevropa tibbiyotida ham foydalilari.

Xitoy tibbiyoti ham, Yevropa tibbiyoti ham buyrak kasalliklari siyishning qiyinlashuviga va ishishlarga sabab bo'ladi, deb hisoblaydi. Ammo Yevropa tibbiyoti ayollarning tug'maslik sabablarini jinsiy a'zolar xastaligidan axtarsa, Xitoy tibbiyoti uni buyraklar bilan bog'lab, "buyraklar sustligi urug'lanishga xalaqt beradi", degan fikrni aytadi. Bu Xitoy tabiblarining "buyraklar faqat siyidik ajratish vazifasini bajaribgina qolmay, balki homilaning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi", degan tasavvuriga bog'liq. Shuning uchun Xitoy tibbiyoti "buyraklar sustligi" haqida so'z yuritilganda, yevro'pa tibbiyoti singari faqat buyrak kasalliklarini tushunmaydi.

Xitoy tibbiyotida yurak-jigar, taloq va o'pkaga ham xuddi shunday nuqtai nazardan qaraladi. Masalan, yuz-ko'zlarining qizarishini, shaxvat hirsining kuchayishini, o'z-o'zini idora qilish qobiliyatining susayishini Xitoy tabibi "jigar va o'tning kuchayishi"ga aloqador, deb hisoblaydi. Uyqusizlik, og'izdag'i achchiq ta'mdan, siydkining sarg'ayishidan shikoyat qilgan bemorlarga "yurak va o'tning kuchayishi" tashxisini qo'yish mumkin. Bu jigarda gepatit, yurakda esa miokardit kasalliklari borligini bildirdi. Xitoy tibbiyoti turli xil kasalliklar sababini bosh miya faoliyati uyg'unligining buzilishi bilan bog'laydi. Chunki bosh miya faoliyati yurak-jigar va boshqa a'zolar ishi bilan bevosita bog'langan. Masalan, bu taloqning oziq moddalarni o'zlashtirishi va ularni tananing u yoki bu joylariga yetkazib berishida yaqqol namoyon bo'tadi.

### V b o b. TIBET XALQ TABOBATI

Manbalarda Tibet xalq tabobatida "kasallik" degan ibora yo'q, deyiladi.

Tibet tabiblari (lamajari)ning fikricha, butun organizm kasallik

holatda bo'ladi va uning me'yoriy tengligini ta'minlash, ichki gomeostazni izga tushirish, asab tarmoqlarining imkoniyatlarini hamda "chi" hayotiy quvvat manbaini tiklash kerak.

"Chi" - nafas va ovqatlanish jarayonlari natijasida jamlangan quvvat manbai. Hayot va o'lim bir butun holda organizmdagi "chi" quvvatiga tobe. Agar odam bu quvvatni boshqarishning uidasidan chiqsa olsa, uzoq yillar dard ko'rmay yashaydi. Shuning uchun "chi" ga ega bo'lgan gullaydi, yo'qotgan esa o'ladi", - deyiladi ko'hna Tibet maqolida.

Tibyet xalq tabobatida tashxis qo'yishning 40 usuli va dorisiz davolashning 108 usulu mavjud, biokorreksiya, ortiqcha hissiyorlarni tartibga solish, umurtqa pog'onalarida paydo bo'lgan qirralarni yo'qotish, qo'l tekkizmay uqalash, to'g'ri chiziqli uqalash, nuqtali uqalash, o'zini-o'zi bioquvvat bilan uqalash, oq loy bilan davolash, ma'danlar bilan davolash, uzoq masofadan ta'sir o'tkazish, nigoh bilan davolash, shifobaxsh oyatlar bilan davolash va hokazo.

Shifobaxsh duolar bilan davolaganda duo o'qigan paytda tanaga bioquvvat to'planadi. Duolar kosmosdan chaqirilayotgan aloksa ko'rinishdag'i ilohiy quvvatlardir. Tibet xalq taboba-tida duolar o'qiladi, ammo Tibet "maxamantra"si "OM MANI PADME XUM"ni 3 dan 108 gacha hamma o'qishi mumkin. Chunki jodulni sonlar ham shifobaxsh oyatlar bilan davolash borasidagi Tibet xalq tabobatida mavjud: 3, 5, 7, 9, 12, 22, 41, 42, 54, 108 (13 soni esa qora kuchlar uchun sehr-jodu sonidir).

Shuningdek, qo'l kaftlari yoki maxsus aylana shaklidagi pichoqli chakralar bilan davolash ham bor.

Uxlab yotganda, "yog uyqusi" bilan ham muolaja qilinadi. Buning uchun odam uyquga yotishdan oldin kasal a'zoni yoki xastalikni o'ylab, o'zini-o'zi davolashga tayyorlaydi.

Ichiladigan yoki surtiladigan dorilarni lamalarning o'zları kerakli miqdorda - juda oz miqdor (mikrodoza)da (dirhamning o'chov birligi - 0,2 g) tayyorlashadi.

Lamalar butun umr oz-ozdan dori ichib yurishadi. Masalan, qoraqurting juda oz (mikroskopik) Miqdori og'ir onkologik xastaliklami, falajni bartaraf qiladi.

Tibet xalq tabobatida tovush bilan davolash usuli ham bor. Bu usul musiqa bilan davolashning aynan o'zidir. Masalan, "Qaro ko'zim" kabi qo'shiklar, dutor, tamburdan taralgan navolar inson ruhiga kuchli ta'sir ko'rsatib, shifo ato etadi.

Shifobaxsh giyohdar xususida ham Tibet xalq tabobatining o'ziga xos qarashlari bor. O'simliklar, - deyishadi lamalar, - sirli ruhga ega va odam tanasi ularning ayrimlarini ijobjiy qabul qilsa, ba'zilarini umuman qabul qilmaydi. Misol uchun qizilpoychaning (zveroboyni) 5 turini sanab o'tisharkan, 2 haftalik o'sgani foydali, bundan ko'p vaqt o'tsa, iste'mol qilish mumkin emas, chunki jigarga zarar qiladi. 12 turga ega bo'lgan Kadio't (valeriana)ning ildizini ham oz miqdorda - 2 hafta ichida qabul qilish zarur, keyingisi ko'zga zarar qilarmish. Har bir giyohning muddati 1-

1,5 yil, ildizlarniki 3-4 yil, damlamalarniki esa 2 yildan oshmasligi kerak.

Har bir insonning o'z yulduzi (sayyorasi), o'z toshi, ma'danli sanoq soni, rangi, musiqasi, to'lqinlar uzunligi, tumori, guli, diniy e'tiqodi, jonivori, daraxti bor. Bular xonadoningizda bo'lzin, deyishadi. Xonada quvvatni o'g'irlaydigan o'simliklarni saklamaslik zarur, hovlida archagul, sallagul, yalpiz, qora archa, shamshod va yorongullarni o'stirsa bo'ladi.

Minerallar va daraxtlar to'g'risida lamalarning fikri o'ziga xos: har bir insonda o'zining 3 xil minerali bo'ladi, degan ta'limot bor ularda. Minerallar sexr-joduli, shifobaxsh va baxtli bo'ladi. Shuning uchun har bir odam o'zining mineralini topib, undagi quvvatni simirib yashashi kerak. Bunda "dza-dzen" holatida o'tirib yoki chordona qurgancha 15-30-45-50 daqiqa o'tirib amalga oshiriladi. Mineral yoriqsiz, butun bo'lishi lozim.

Kedr, tillaog'och, qarag'ay, oq qarag'ay, chinor, eman, liviya kedri - quvvat baxsh etadi. Oq qayin - betaraf daraxt. Zarang, qayrag'och, chiltonlar aksincha, quvvatni tortib oladi. Biror daraxtning insonga munosabatini biolakatsiya ramkasidan foydalaniib bilsa bo'ladi. Buning uchun ramkani oldindan ushlagancha daraxtga yaqinlashasiz. Ramka qimirlay boshlasa, daraxt sizga to'g'ri kelmaydi, qimirlamasa daraxt sizniki bo'ladi.

Daryolar va sharsharalardan ham yumshoq "sigun" usulini qo'llab, quvvat olish mumkin.

Tabiblarning fikricha, qon tomiri (arteriya) - hayot markazidir. U bilakning pastida, oxirida joylashgan bo'lib, ichki a'zolarning qanday ishlayotgani, hozirgi va kelgusidagi xastaliklar-u, umrning uzunligi haqida tomir urish holatiga qarab xulosa qilish ehtimoli bor. Bu usulda yilning 4 fasliga bog'liq, besh maxabuda deb ataluvchi qoida xisobga olinadi. Maxabuda - 5 tabiiy unsur: olov, havo, suv, yer va daraxt bo'lib, Tibet xalq tabobati nuqtai nazariga ko'ra, jonli va jonsiz tabiatni tashkil qiladi.

Tomirni ushlab, kasallik va uning kelib chiqish sabablari aniqlangach, tabiblar bilan xastalikni davolashga kirisharkan, giyoohlardan tayyorlangan dorilar: kukun, bo'tqa, qaynatma, xabdori va yog'larga murojaat qilishadi. Dorivor ekstraktlar ichida ikkilamchilari ham bor. Bular, qimmatbaho toshlar va minerallardan foydalaniib tayyorlangan shifobaxsh sharoqlar xanda qu'lbona dorilardir. Dorini qachon - ovqatdan oldinmi, keyinmi ichish kerakligiga Tibet xalq tabobati juda katta ahamiyat beradi.

### Tashxis qo'yish

Tibet xalq tabobatida avval 4 ta tashxis qo'yish usuli mavjud bo'lgan. Bular:

- a) bemor bilan subbatlashib so'rab-surishtirish;
- b) bemorning nafas olishidan chiqayotgan tovushga ahamiyat berish;
- v) bemorning tashqi ko'rinishi - yurishini, o'zini tutishini, badani va tilining holatini kuzatib, taxtil qilish;
- g) bemorning tomir urishini tekshirish. Keyinroq yuqoridaqilarga qo'shimcha tarzda:

- a) bemordan kelayotgan hidga e'tibor berib, uni aniqlash;  
 b) bemorning qornini yoki badanining boshqa kerakli joylarini silab ko'rish ko'zda tutiladi.

#### Bemorni umumi tekshirish

Yaqin-yaqinlargacha bemorni tekshirish uchun Tibet tabiblariga hamisha ham ruxsat etilmas edi. Ayol kishini tibbiy ko'rikdan o'tkazishda faqat bemor badanining ochiq joyini va yurishini, o'zini tutishini, tashqi axvolini kuzatishga ruxsat berilar edi. Erkaklarni suyagi singanda, yaralanganda, shishganda, bavosinda va boshqalarda mukammal tekshirish mumkin bo'lari edi.

Hozir ko'pchilik xalq tabiblari bemorni deyarli yechintirmsandan tashxis qo'yishadi. Shuning uchun ham ularda tomir urishiga qarab tashxis qo'yish juda takomillashgan.

Hozirgi vaqtida tashxis qo'yishning 40 usuli mavjud, bular: ko'zga qarab tashxis qo'yish (iridodiagnostika), qulqoni ko'rib tashxis qo'yish (aurikulodiagnostika); yuzni ko'rib tashxis qo'yish (inson yuzida 600 ta biofaol nuqta joylashgan, deyishadi Tibet alamalari); tilga qarab tashxis qo'yish; tishga qarab tashxis qo'yish; bezovtalikka qarab tashxis ko'yish; umurtqa pog'onasi bo'yicha tashxis qo'yish; tushga qarab tashxis qo'yish; siydiq tahlili asosida tashxis qo'yish va hokazolar.


Tibet tabibi bemorni umumi tekshirar ekan, xayolan organizm ichiga kirib boradi. Masalan, burunning holatini kuzatar ekan, barcha nafas olish tarmoqlari bo'ylab, o'pkaga yetib boradi. Lablar va til orqali hazm yo'llarining holatini xayolan o'rganadi.

Til - yurak va qon aylanishi tarmoqlari holatidan ham xabar beradi. Bu insonning ruhiy faoliyatiga bog'liq bo'lib, qon aylanishi tarmoqlari ichki a'zolarga bevosita bog'langan.

Qulqolar asosan buyrakning umumiy holatidan xabar beradi, siydiq ajratish va organizmdagi suv-tuz almashinuvidan tortib, barcha suyuqliklarning aylanishi tarmoqlarining ishidan darak beradi.

Ko'z - jigarning ko'zgusi, deyishadi Tibet tabiblari.

#### Yuzga qarab tashxis qo'yish



6 - r a s m.

1 - yuz; 2 - yuz; 3 - o'pkä; 4 - yurak; 5 - o't pufagi; 6 - jigar; 7 - oshhqozon; 8 - in-gichka ichak; 9 - taloq; 10 - yo'g'on ichak; 11 - siydiq

pufagi; 12 - buyraklar; 13 - tashqi jinsiy azolar; 14 - ichki jinsiy a'zolar; 15 - qulqoq; 16 - ko'krak qafasi; 17 - sut bezi; 18 - bo'yin, ko'krak umurtqasi; 19 - bel umurtqasi; 20 - qo'l va quymich; 21 - yeon; 22 - tizza; 23 - oyoq panjası.

Odamning yuzi - barcha ichki a'zolarning ko'zgusidir, degan aqida bor Tibet tabiblari orasida. Ularning aytishicha, og'iz yo'g'on ichak holatidan xabar berib turadi. Chunonchi, og'zi tor odamning ichagi ham tor bo'ladi. Og'iz burchagidagi yoriqlar gidronefrit borligidan va buyraksagi suv to'siqalaridan (to'g'onlari) dalolat beradi. Burundagi shilimshiq o'pkanning xatarga yo'liqqayotganidan, shamollaşdan xabar beradi. Tishlar esa ichki a'zolarga aloqador; kurak tishlar - me'da, kichik jag' tishlari - ichaklar, katta jag' tishlari - yurakka aloqador. Demak, tishlarni va og'izni har doim toza qilib yuvish - ichki a'zolar sog'lig'inining garovi ekanini unutmasislik kerak.

#### **Tilni ko'rib tashxis qo'yish**

Bemorning tilini ko'rib tashxis qo'yish ham alamalarning asosiy usullaridan biri. Zero, til ichki a'zolar holatidan xabar berib turadi. Tilni nahorda, nonushta qilmasdan oldin ko'rish kerak: Til uchidan taxminan 3 sm narirog'i - yurakdan; chap tomoni - chap o'pkadan; o'ng tomoni - o'ng o'pkadan; til o'zagi esa ichaklar holatidan darak beradi.

Tilning biror joyida qarash paydo bo'lsa, demak, o'sha joyga tegishli ichki a'zo xastalangan bo'ladi. Til o'zagining oxirrog'ida, chap tarafda - chap buyrak, o'ngda - o'ng buyrak holati aks etadi. Shuningdek, o'ng tomonda buyrak va o'pka xastaliklaridan darak beruvchi joylar oralig'ida, jigarning holatini bildiruvchi soha ham bor.

Tilning sariq rangga moyil bo'lib qolishi - jigar xastalanganidan, qizarib ketishi esa yurak kasallanganidan dalolat berarkan.

#### **Tirnoqlarga qarab tashxis qo'yish**

1. Me'yordagi tirnoq. 2. Qisqa yassi tirnoq - yurak a'zolari xastaliklari. 3. Katta yarim oy - taxikardiya. 4. Yarim oy shakli yo'qligi - yurak nevrozi. 5. Juda bo'rtgan tirnoklar - o'pka sili. 6. Katta yarim oy shaklidagi bo'rtib chiqqan tirnoklar - tug'ma sil. 7. Yassi qiyshaygan tirnoq - bronxial astma, bronxit. 8. Quvur misoli cho'zinchoq va baland tirnoq-saraton (rak). 9. Barmoq suyaklariga yopishgan to'g'nog'ichga o'xshash tirnoq - tug'ma ruhiy xastalik, shafqatsizlik, tajovuzkorlik, tez g'azablanish. 10. Botiq tirnoq- ichkilikbozlik irlsiy turi. 11. Yassi parchalangan tirnoq - gjija kasalliliklari. 12. Tirnoqdagi mo'tt tarnovchalar - tuzlar to'planishi. 13. Tirnoqda chiqindilar-tuzlar qatlami - me'da-ichak yo'llari xastaliklari. 14. Cho'ziq tirnoq- qandli diabet. 15. Nomsiz barmoq tirnoq'idagi yarim doira shakli - buyrak kasalligi. 16. Bodomsimon yo'l-yo'l chiziq (to'lqin)-lar - revmatizm, terlama. 17. Tirnoqning kemirilganga o'xsha-shi - nevrozlar, me'da yallig'anishi, ayollarning jinsiy a'zolari faoliyatining susayishi. 18. Tirnoqdagi to'g'ri chiziqlar va orasidagi yot narsalar - qora jigar va ingichka ichak xastaliklari. 19. Tirnoqdagi parallel

to'g'ri chiziklar - ichak xastaliklari. 20. Uchburchak tirmoq - umurtqa pog'onasi va orqa miya xastaliklari. 21. Teshik-teshik tirmoq - qora jigar kasalligi. 22. Ko'rsatkich barmoqdagi yassi ko'tarilgan tirmoq - qora taloq kasalligi.

### Tomir tashxisi

Allomalar kamida 72 xil tomir urishini ajrata oladilar. Tomir urishi - ular uchun barcha a'zolardan qon orgali yuborilayotgan axborot to'lininlaridir.

Miloddan III asr oldin ham Tibet tabobatida, "tomir urishiga qaramasdan katta va kichik tomirlarga qon qanday taqsimlanayotganini aniqlash mumkin emas", degan fikr hukmron edi. Aynan tomir urishi qonning qanday aylanishini bildirib, ichki ruhiyatdan darak beradi. Misol uchun Sun-kou usuli bo'yicha tomir urishiga qarab xastalik quyidagicha uniqlangan:

Tomir miqtasi	Tomir urishi	Erkaklarda		Ayollarla	
		Chap bilak	O'ng bilak	Chap bilak	O'ng bilak
Sun	Yuza	Ingichka ichak (yan)	Yo'g'on ichak (yan)	Yo'g'on ichak (yan)	Ingichka ichak (yan)
	Chuqur	Yurak (in)	Upka (in)	O'pka (in)	Yurak (in)
Guan	Yuza	O't pufagi (yan)	Me'da (yan)	O't pufagi (yan)	Me'da (yan)
	Chuqur	Jigar (in)	Qora jigar, me'da osti bezlari (in)	Jigar (in)	Qora jigar, me'da osti bezlari (in)
Chi	Yuza	Siydik pufagi (yan)	Uchta qizdi-ruvchi (yan)	Siydik pufagi (yan)	Uchta qizdi-ruvchi (yan)
	Chuqur	Buyrak (in)	Yurak pardasi (in)	Buyrak (in)	Yurak pardasi (in)

Bu usulda, tomir urishini tekshirish uchun 3 ta barmoq sun, guan, chi nuqtalariga qo'yiladi, ya'ni sun nuqtasiga ko'rsatkich barmoq, guan nuqtasiga o'rta barmoq, chi nuqtasiga nomsiz barmoqlar qo'yib tekshiriladi.

Bemorning qo'llarini alohida-alohida ushlanadi. Qulay bo'lish uchun bemorning qo'li ostiga yostiqcha qo'ysa ham bo'ladi.

Turli nuqtalardagi va ikkala qo'ldagi tomir urishini tad qiq qilishda ichki a'zolarning holati quyidagicha aniqlanadi: Chap qo'ldagi sun nuqtasi tashqarisi - yurak ichkarisi - miya va tomirlari, o'ng qo'lda sun nuqtasi tashqarisi o'pka ichkarisi - ko'krak; chap qo'lda guan nuqtasi usti jigap ichkarisi - diafragmalar; o'ng qo'ldagi guan nuqtasi tashkarisi - me'da, ichkarisi - qora jigar; chap qo'lda chi nuqtasi tashkarisi - buyrak, ichkarisi - qorin bo'shlig'i, o'ng qo'lda si ham shunday.

Tomirni sal ezish a'zolarning tashqi holati, "tashqi alomat" haqida tasavvur beradi, deb hisoblanadi; o'rtacha bosish - yurak-qon tomir va qon aylanishi tarmoqlarining holati, "o'rtacha alomat" haqida; qattiq bosish - uzoqtagi ichki a'zolar holati, "uzoqtagilar alomati" haqida tasavvur beradi.

Tomirning urishiga qarab uni asosan 8 turga bo'linadi. Uzoqda (chuqurlikda) joylashishiga ko'ra yuza va chuqurlikdagi tomir urishlarga, takrorlanishi yoki tezligi bo'yicha - siyrak va tez-tez takrorlanadigan, tomir urishidagi to'lqinlarga qarab - ozod yoki tutqunliqdagi, to'liqligiga qarab esa katta yoki yopiq holda, deb xulosalar qilinadi.

**Yuza tomir urishining o'ziga xosligi** - sal bosganda darrov bilinadi. Aksincha, qattiq bosganda aniq bilinmaydi. Bu tomir urishi "tashqi alomatlik" xususiyatiga ega.

**Chuqur tomir urishining o'ziga xosligi** - qattiq bosganda yaxshi bilinadi. Sekin bosganda deyarli bilinmaydi. U "ichki alomat"lik xususiyatiga ega.

**Siyrak tomir urishining o'ziga xosligi** - bir marta nafas olib chiqarishda barmoq to'rttagacha urish to'lqinini xis qiladi. Bu tomir urishi "sovqotish alomati" xususiyatiga ega.

**Tez-tez (joniqib) tomir urishining o'ziga xosligi** - bir marta nafas olib chiqarishda 6-7 martadan ortiq urish to'lqinlari qayd etiladi, u "isitma alomati" xususiyatiga ega.

**Erkin tomir urishining o'ziga xosligi** - erkin, tekis bo'lib, badanda qon ko'payib ketishidan deyiladi, bu, odatda, isitma, bezgak, shamollah xastaliklarida uchraydi.

**Tutqunlikdagi tomir urishining o'ziga xosligi** - ohista-ohista, nozik, qisqa va erkin bo'lmaydi. Faqat kamqonlik xastaligida uchraydi.

**Katta tomir urishining o'ziga xosligi** - qattiq-qattiq uradi, bosganda kuchsiz (quvvatsiz) bo'ladi. Harorati ko'tarilgan aniq bir a'zoning faoliyatি oshib ketishiga (giperfunksiyasi) aloqador.

**Yopiq tomir urishining o'ziga xosligi** - juda nimjon bo'lib, zo'rg'a seziladi, bu "yan" unsurining juda bo'shashib ketganidan.

Kasallikning paydo bo'lishi xususida ham Tibet xalq tabiblari xastalik 7 xil ehtiroslar - chunonchi shodlik, g'azab, yig'lash, qaygu, tashvish, vahima, qo'rqish sababli bo'lishi mumkin, deyishadi.

Bularning ta'sirini o'ng bilakkagi sun nuqtasini sal ezib bilsa bo'ladi. Shodlik yurakka ta'sir qiladi. Yuragi xastalarda shodlikdan tomir urishi susayadi. Tashvish qora taloqqa zarar qiladi. Kasallikning bu turi nerv tomirlarining bo'rtganligidan bilinadi. Qayg'u o'pkaga ta'sir qiladi, bunda tomir notejis uradi. G'azab jigarga salbiy ta'sir qiladi. Buni tomir urishining quvvatsizligidan bilsa bo'ladi. Vahima buyrakka ta'sir qiladi, bu vaqtida tomir yuza uradi. Qo'rqish o't pufagiga ta'sir o'tkazib, tomir urishini "aniqlashtiradi". Yig'i esa yurak pardalarini shikastlab, tomir duksimon ("ur-chuqsimon") uradi.

**Biolakatsion ramka va mayatnik bilan tashxis qo'yish**  
Biolakatsion ramkaning aylanasi 2-3 mm li, qizil misdan

tayyorlanadi; ushlanadigan joyi 15 sm, quvuri 30 sm. Biolakatsion ramka yordamida bemorga tashxis qo'yishingiz, insonning biokonturi, chakralari (chakralar to'g'risida keyingi bo'limda so'z yuritiladi), asabiy-hissiy holatini aniqlashingiz mumkin.

Biolakatsion ramkani o'ng qo'lga olib, tana bo'y lab parallel yurgiziladi. Ramkaning biror joyida o'ng yoki chap tomonga og'ishi o'sha yerda kasallik mavjudligidan dalolat beradi.

Mayatnikni tayyorlash uchun 20 sm odsiy ipni olib, uchiga qahrabo (yantar)ni yoki tilla uzukni bog'lanadi, osilgan holatda turganicha biror narsaga yaqinlashtirasisz, agar u siz tomonga qarab tebrana boshlasa - demak, mayatnik sizbop bo'lib chiqadi.++

Ko'z tegishi - bu quvvat va fikran ta'sir o'tkazishdir. Agar odam ko'z tegsa, bo'shashadi, holi quriydi, kayfiyati buziladi, bioramka yaqinlashtirilganda qattiq aylanadi.

Bemorda surunkali xastalik alomatlari bo'lsa, bioramka o'ngga-chapga tebrana boshlaydi. Agar a'zo shamollagan bo'lsa, bioramka o'ngga og'adi.

## 2-QISM.

### SHARQ XALQ TABOBATI

Sharq xalq tabobatining paydo bo'lganiga 5000 yildan oshdi. Igna yoki olov bilan kuydirib davolash usullari juda qadim zamonlarda ma'lum bo'lgan. Dastlab ingichka tosh va suyaklardan ignalar tayyorlab, bemorlarni davolashgan bo'lishsa, keyinchalik metall, kumush, oltin ignalar tibbiyotga kirib keldi. Qadimda, kuydirib davolashda shuvoq (yovshan)dan pilik o'rniда foydalanishgan, hozirgi kunda esa shuvoqning maxsus qalamchalari ishlataladi. Bu ikkala usul hozirgi kunda ham amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

Gippokrat: "Hakimning uchta quroli bor, bu - shirin so'z, tig' va shifobaxsh giyohdir", degan. Qadim zamonlarda tabiblar bemorlarni asosan o'simliklar bilan davolashgan. Farmakopeya tarzidagi qo'llanma miloddan 4000 yil avval misrliklar tomonidan yaratilgan. Misrliklar qo'llagan dorivor giyohlarning ba'zi turlari hozirgi kunda ham qo'llaniladi.

Giyohlar haqidagi ilk kitob xitoylik tabib Ben Sao tomonidan miloddan avvalgi 2600 yilda yozilgan bo'lib, uni o'zidan 400 yil oldin yashagan tabib Shen Nunnyaning faoliyati-ga bag'ishlagan. Bu tabib 230.xil dorivor hamda zaharli giyohlardan foydalangan.

Arablar qadimda 1400 dan ortiq dorivorlar ro'yxatini tuzib, murakkab shifobaxsh o'simliklar to'plamini yaratdi. Natijada, "aptekachi" degan kasb yuzaga keldi. Yevropa aptekasi arab dorixonasidan nusxa ko'chirish orqali paydo bo'lgan.

Miloddan oldingi II-I asrlarga oid "AYUR-VEDA" ("Hayot haqida fan")da Hindiston zaminidagi dorivor o'simliklar haqida ilk ma'lumotlar berilgan. "AYUR-VEDA"ni milodning I-VIII asrlarida ilg'or tabiblar to'ldirib boyitishdi. Keyinchalik Xitoy, Yaponiya, Mo'g'iliston, Buryat va Qolmiq tabiblari undan keng foydalandilar.

"Dorivor moddalarini tekshirish" - Farmakognoziya va "O'simliklar bilan davolash" - Fizoterapiya fanlariga Markaziy Osiyo xalqlari, olimlari qo'shgan hissa tabobat tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Otashparastlarning miloddan oldingi VII-VI asrlarga mansub "Avesto" kitobida shifobaxsh giyohlar va zaharli o'simliklar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Keyinchalik bu ma'lumotlar asosida shifobaxsh o't-o'landan og'riqi qoldiruvchi, yumshatuvchi, vujudni mustahkamlovchi, tetiklashtiruvchi dorivor sifatida foydalanishgan, zaharlanishga qarshi vosita sifatida qo'llashgan.

Tibbiyotning barcha tarmoqlarini IV-VI asrlarda Gudishopur maktabi farmakologlari yanada boyitdilar.

Tarix fanlari doktori A. Muhammadjonov olib borgan arxeologik qazishlarda o'rta asrlarda Buxoro shahri Sharq tabobati dorishunosligining markazlaridan biri bo'lganligini isbotlovchi yodgorliklar topilgan. Bu nodir arxeologik yodgorliklar Buxorodan 44 km Janubi-Shargda joylashgan qadimgi Poykent shahri harobalaridan topilgan. Bu ashyoviy dalillar

suyuqliklarni distillash va haydash uchun qo'llanilgani isbotlandi. Usha zamonda Poykent shahrida kimyo laboratoriysi va dorixona mavjud bo'lgan. Ayniqsa, kimyoviy shisha idishchalar - alembikalar mukammal ishlangani bilan olimlarni lol qoddirdi.

**Ko'hna Xitoy tabobati.** Ko'xna Xitoy tabiblari turli xastaliklarni davolashda inson tanasining ma'lum qismini og'riq bilan ta'sirlash yordam berishini sezganlar. Rivoyatlardan birida shunday deyiladi: taxminan 5000 yil muqaddam yashagan imperator Fu Sining xizmatkorlardan biri bosh og'riq xas-taligiga yo'liqadi. Boshi juda og'riganda kechasi-yu kunduzi o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Kunlarning birida yer chopayot-gan xizmatkor toshdan yasalgan dastaki - ketmonsimon asbobga oyog'ini urib oladi. Mo'jiza ro'y berib, bosh og'rig'i shu zahoti qoladi. Bu voqeani eshitgan boshi okrigan odamlar oyog'ining o'sha joyini haligi narsaga urishadi. Olim bo'lgan imperator Fu Si o'ylanib qoladi va boshqa xastaliklarni ham qirrali ingichka tosh orqali davolashga harakat qiladi, natija kutilganidan ham ziyoda bo'ladi. Tananing qaysidir joylariga igna sanchish nafaqat bosh og'rig'ini, balki boshqa xastaliklarni ham bartaraf qilishini bilib oldilar. Shunday qilib, ko'hna Xitoy tabiblari tajribalarini ko'paytirib, kengaytirib, avloddan-avlodga o'tkazib kelishgan.

Asnafiy Xuandi igna bilan davolash fanining asoschisi, miloddan oldingi III asrda yozgan "Ney-szin" ("Ichki a'zolar haqida") kitobida "Xastaliklar ikki usul - ichki a'zolarga dori yuborish va tashqaridan tosh ignalari bilan davolash orqali bajariladi", deb yozilgan. Ignan bilan davolash bu asar yozilmasidan ancha ilgari ma'lum bo'lgandan dalolat beradi. Darhaqiqat, miloddan oldingi V- IV asrlarga taallukli Si Matsyanning "Shitszu" kitobida taniqli tabib Byan-Syao haqida, uning chjen-szyu davolash usuli bilan ichki kasallikkarni mohirona muolajasi yozilgan. Byan-Syao esa "Nan-szin" ("Qiyinchiliklar haqida") kitobida turli kasallikkarda ignalar sanchiladigan nuqtalarini ko'rsatgan.

Keyinroq Xitoyda igna bilan davolashning ko'plab usullari paydo bo'ldi. Ayniqsa, milodning VI-XI asrlarida igna bilan davolash borasida juda ko'p qo'llanmalar nashr qilingandan keyin chjen-szyu usuli keng tarqaldi. XI asrga kelib, birinchi marta Van Vey-i, 1026 ("Nuqtalar atlasi") tovlanib turuvchi, odam bo'yи barobar nuqtalar parmalab ko'rsatilgan ikkitita bronza haykal paydo bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay chjen-szyu davolash usuli Yaponiya, Koreya, Hindiston, Mo'g'iliston-da keng yoyildi. Markaziy Osiyoga ham bu usul kirib kela boshladi.

Igna bilan davolash usuli Yevropada keyinroq, XVII asr oxiri va XVIII asr boshtarida paydo bo'ldi. Uni missionerlar tarqatdilar. U yangi "Akupunktura" ("aksi" - igna, "punko" sanchish) deb nom oldi. Fransuz vrachi Berlioq o'zining "Surunkali xastaliklar, qon oqimi va akupunktura haqida" nomli kitobida bemorlarni davolashda akupunkturaning yutulkari borasida yozadi. Shundan so'ng qabuliga bemorlar kelishi ko'payadi. 1858 yildan boshlab Fransiya, Angliya, Olmoniya, Italiya va boshqa bir qator mamlakatlarda igna bilan davolash usuli keng yoyila boshladi.

1825 yidda rus professori P.Charukovskiy Rossiyada igna bilan davolashni boshlaydi.

Hozirgi kunda igna bilan davolovchi vrachlar juda ko'plab mamlakatlarda davolash usulini yangi tajribalari bilan boyitmokdalar, ko'hna xalq tabobatining bu usuli zamonaviy tibbiyotning zarur tarmoqlaridan biriga aylandi.

Kun sayin bu usul takomillashib bordi va endilikda, ma'lum nuqtalarga dori vositalarini ignalar yordamida yuborish yoki mikroelektroforez, elektroakupunktura usullari bo'yicha infraqizil, ultrabinafsha va lazer nurlarini nuqtalarga ta'sir ettirish, aurikuloterapiya, igloanalgeziya va shu kabi yana boshqa usullar xalq tabobatining amaliyotiga kirib keldi. Tabobatning boyishiga juda katta xissa qo'shdi.

### **I bob. VIII – XIX asrlarda yashab ijod qilgan sharq xalq tabobati allomalari**

VII asrda arab xalifaligi vujudga kelishi bilan arablar Eron, Misr, Afrika yerlarini bosib olishgach, Markaziy Osiyo, Hindiston, Ispaniyagacha borib yetdilar. To'xtovsiz urushlar, odamlarning ommaviy ravishda ko'chib, aralashib ketishi va iqlim sharoitining o'zgarishi xalq tabobatiga muhtojlikni oshirdi. Dastlabki dorixonalar, shifoxonalar ochildi. Ko'hna Yunonistondan andoza olib, xalq tabobati borasida durdona asarlar to'plandi, boyitilib, ko'p jildli noyob kitoblar yara-tila boshlandi. Quyidagi allomalar Sharq xalqi tabobatiga o'z noyob asarları bilan salmoqli hissa qo'shdilar.

**Ibn Mosavayx** (777-857) - Eron ilmiy markazlaridan biri hisoblangan Jundishopurda tug'ilgan. Bag'dodda yashagan.

Birinchilardan bo'lib ko'z kasalliklari haqida ilmiy asar yozgan.

**Sobur ibn Saxl** (VIII-IX asr) -- oldin Jundishopurda, keyin Bag'dodda shifoxonani boshqargan. "Kitob al-akrbodin alkabir" ("Farmakopeya") - dorilar sifat va me'yorini belgilovchi qonun-qoidalar majmuini yaratgan.

**Ali ibn Rabban at-Tabariy** (808 yili tugilgan) - Bag'dodda yashagan, "Firdavs al-hikma" ("Hikmat bog'i") nomli tabobatga oid kitob muallifi.

**Abu Bakr Muhammad ibn Zaqraro ar-Roziy** (865-925) Eronning Ray shahrida tavallud topgan. Kimyo, astronomiya, tabobat sohalarida ko'p asarlar yaratdi. Sharq tibbiyoti tarixida Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen), Ibn Sino bilan bir safda turadi. Bag'dod kasalxonasida bosh tabib bo'lib, talabalarga amaliy tib ilmini o'rgatgan. Tabobatga oid eng yirik asari "Kitob al-xoviy" ("Qamrab oluvchi kitob")da Ro-ziygacha bo'lgan barcha tib ilmi sohasidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari"dan katta, biroq kitobning qat'iy bir reja bo'yicha bob va fasllarga ajratilmagani undan foydalanishni qiyinlashtiradi. Roziyning "Kitob al-tib al-Mansuriy" ("Mansurga bag'ishlangan tibbiyot") kitobi tib ilmining barcha sohalarini o'z ichiga olgan, unda mizoj, dori-

darmon gigienasi, ovqatjanish, kos-metika, jarroxdik, toksikologiya, patologiya va shuningdek, taraqqiyotga oid turli manbalar bor. Ar-Roziy birinchi bo'lib, kasallik tarixini yozishni joriy etgan.

**Rabi' ibn Ahmad al-Axavayniy al-Buxoriy** - buxorolik, Abu Bakr ar-Roziyning shogirdi. "Hidoyat al mutallim fit-tib" ("Tabobatni o'rzanuvchilar uchun qo'llanma") kitobi 965 yilda Eronda nashr etilgan.

**Abu Nasr al-Farobiy** (873-990) - Sirdaryo yoqasidagi, Farob qishlog'da tukilgan. Buxoroda tahsil olgan. Bag'dodda yashagan. Sharq xalq tabobatida o'zining mashhur "Nazariy va amaliy tabobat" asari bilan mashhur.

**Abul Mansur al-Qamariy** (VIII asr) - buxorolik tabib, Ibn Sinoning birinchi ustoz.

**Ali ibn Abbas al-Majusiy** (884 yilda vafot etgan) - "Kitob al-Maliki" nomli mashhur asar muallifi. Kitob 20 bobdan iborat bo'lib, tib ilmingin nazariy va amaliy masalala-riga bag'ishlangan. Kitobda muallifning o'zidan avval o'tgan tabiblarning asarlarini tanqidiy ko'z bilan o'rGANIB chiqqani bayon etiladi.

**Abu Mansur al-Hasan ibn Nux al-Qumriy** (999 yilda vafot etgan) - buxorolik tabib Ibn Sinoga ustozlik qilgan. Qumriyning ikkita asari: "Kitob al-gino-val-muno" ("Mukam-mal va maqsadlarga yetishtiruvchi kitob") va "Kitob at-tanvir fil-istilohat at-tibbiya" ("Tibbiy istiloqlarni yorituvchi kitob") bizgacha yetib kelgan. Birinchi kitob inson a'zolaridagi barcha kasalliklarni davolashga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchisini o'sha davr tabobatidagi tibbiy terminlarning izoxli lug'ati deyish mumkin.

**Abul Qosim al-Zaxraviy** (936-1013) - "Al-Tasrif" nomli ajoyib asar muallifi. 30 jiddan iborat. Bu asar dorishunoslik va kasalliklar, ayrim a'zolarning tuzilishi, gigiena, tartib, jarroxlik kabi masalalarga bag'ishlangan.

**Abu Saxl Masahiy** (1011 yilda vafot etgan) - xorazmlik mashhur tabib. Xorazmshoh saroyida xizmat qilgan. O'sha yerda Beruniy va Ibn Sino bilan uchrashgan. "Kitob al-Mi'a" nomli tabobat qomusi Ibn Sino ijodiga katta ta'sir ko'rsatib, "Tib qonunlari"ni yaratishga rag'batlantirgan. Masahiy bo'lsa shoh ibn Ma'mun "Akademiyasi" olimlari bilan ijodiy munosabatda bo'lismiga to'sqinlik qilmagan.

**Abu Rayhon Beruniy** (973-1049) Xorazmda tug'ilgan buyuk qomusshunos olim, turli fanlar sohasiga oid 150 dan ziyod asarlar muallifi. Tabobatga oid yirik asari "Kitob us-say-dana fit-tib" - Dorishunoslikka ("Farmakognoziya"ga) asos soldi. Kitob 1116 bo'limdan iborat bo'lib, ayrim dorilar, ularning nomlari va sinonimlari ta'riflangan.

## II b o b. ABU ALI IBN SINO

**Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Sino** (Evropada Avitsenna), Abu Ali ibn Sino 980 yili avgust oyining oxirlarida (ba'zi manbalarda 370 hijriy yili 3-safar oyining boshida - (bu 18 avgustga to'g'ri keladi), Buxoroga yaqin Afshona qishlog'da amaldor oilasida dunyoga

keldi. Otasi Abdullo asli balxlik, soliq yig'uvchi xodim bo'lib xizmat qilgan. Onasi Sitora Bonu afshonalik. Keyinchalik Ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keladi, yoshligi shu yerda o'tadi. Shu davrda ko'plab ilmlar qatori xalq tabobati sohasidagi faoliyati boshlanadi. Somoniylar davlati inqirozga uchragandan so'ng (999 y.) Ibn Sino Xorazm poytaxti Gurganjga kelib, Xorazmshoh saroyida istiqomat qiladi. 1012 yili Sultan Maxmud Yeaznaviy changalidan qochib, Eronga kelgan, Neso, Tus, Nishopur, Ray, Isfaxon, Hamadon va boshqa shaharlarda yashagan. Ibn Sino 1037 yili 18 iyulda vafot qilgan, Hamadon shahri qabristoniga dafn qilingan.

Usha davrda Buxoro va Gurganjda nihoyatda boy kutubxona bo'lib, Yunon-Rim madaniyati namoyandalarining, xususan, Geraklitsdan tortib, Galenning asarlari, tarjimalari saqlangan. 17 yoshligidayoq tabib sifatida shuxrat qozongan Ibn Sino Buxoro amiri Nux ibn Mansurni davolagani evaziga amir kutubxonasidan foydalanishga musharraf bo'ladi.

Shoh ibn Ma'munning Beruniy boschchilik qilgan "Akademiyasi" Ibn Sino uchun katta maktab bo'ldi. 450 ga yaqin asar yozgan Ibn Sinoning atigi 242 ta asari jahondagi turli mamlakat kutubxonalarida saqlanadi. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida 60 tasi saqlanmoqda.

Ibn Sinoning 5 jiddan iborat "Tib qonunlari" 5 asr vaqt mobaynida jahon tib ahli uchun muhim qo'llanma bo'lib keldi.

Ibn Sinoning bu asarini 150 yil o'tgach, Gerard Kremonskiy (1114-1187) lotin tiliga tarjima qiddi. Bu davr ichida asarning lotincha tarjimasi bir necha bora qayta nashr etildi. XV asrda bu asar 16 marta, XVI asrda 20 martadan ko'proq bosilib chiqsi. XVII asrda Plempiy chop etirgan "qonun"ning yangi nashri avvalgilariiga nisbatan eng yaxshisi hisoblangan.

"Tib qonunlari" Sharq mamlakatlarida o'sha davrning o'zida shu qadar yuksak ahamiyatga molik bo'lib ketdiki, tabobat ilmini usiz tasavvur qilib bo'lmasdi. O'nlab yirik olimlar, tabiblar bu kitobga bag'ishlab sharhlar yozishdi. Ba'zilar uni qisqartirib, "qonuncha" nomida kichik qo'llanma tuzadilar.

"Qonun"ga sharh bog'lagan ba'zi olimlarning nomlarini eslatib o'tamiz: Fahriddin Roziy (XII), Muhammad Naxchivo-niy, Ibn an-Nafis (XIII), Qutbiddin Sheroyi (XIV), Abdu'llo Oqsaroiy (XIV), Sadiddin Kozaruniy (XIV), Abdurahmon Misriy (XIV), Hakim Ali Jiloniy (XVI), Ishoqxon ibn Ismoilxon (XVIII), Hakim Shifoixxon ibn Hakim Abdulshofixon (XIX).

"Qonun"ni qisqartirib, kichik qo'llanma tuzganlar ichida Ibn Sinoning shogirdlaridan Muhammad Ilohiy (vafoti 1069 y.) bilan XIV asrda yashagan xorazmlik olim Mahmud Chag'miniyni eslatish bilan kifoyalanamiz. (Chag'miniyning qisqartmasi "qsshuncha" nomi bilan mashhur).

"Tib qonunlari"ning asl arabcha matni nashriga kelsak, u birinchi marotaba 1593 yili Rimda bosilgan edi. Keyinchalik u Qohira (1873-77-

79), Texron (1889), Laknav (1906) va Loxur (1905) shaharlarida ham chop etilgan.

Ma'lumki, o'rta asrlardagi Uyg'onish davrigacha Yevropa mamlakatlarida Sharq mamlakatlaridagiga nisbatan ilm-fan ancha orqada edi. XII asrdan boshlab Sharq fani, adabiyoti va mada-niyatiga bo'lgan qiziqish Yevropada ortib borishi munosabati bilan Ispaniyaning Toledo shaxrida 1130 yili tarjimonlar kollegiyasi tashkil qilinadi va kremonalik Gerard (1114- 1187) "qonun"ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi. Biroq bu ishni XIII asrda yashagan boshqa bir Gerard ismli tarjimon oxiriga yetkazadi, Shundan boshlab "Tib qonunlari" Yevropa vrachlari qo'lida asosiy qo'llanmaga aylanadi va dorilfununlarda tibbiyot fani bo'yicha o'qitila boshlanadi. 1650 yilgacha tibbiyot fakultetlaridagi darsliklarning yarmini Ibn Sinoning "qonun"i tashkil etadi. Usha davrdagi yirik olimlarning tabobatga oid kitoblari ham Ibn Sino asarlari ta'siriga tushib qoladi. Hatto, Leonardo da Vinci asarlarda ham qator arab tibbiy terminlari uchraydi.

"Tib qonunlari" asosiy qo'llanma va darslik sifatidagi qiymatini 5-6 asrdan ortiqroq saklab qoldi. Bu kitobga bo'lgan talab shu darajada zo'r ediki, kitob bosish dastgohi ixtiro etilganidan so'ng "qonun" bosma kitoblar qatorida birinchi o'rinni egalladi. Birinchi marta u Uyg'onish davrida Strasburgda (ayrim manbalarda Milanda) 1473 yili bosilib chickdi. XV asrning keyingi 30 yili mobaynida "Tib qonunlari" lotin tilida 16 marta va so'ngira 40 martadan ziyod to'laligicha bosildi.

XIX asrga kelib, Yevropada "Tib qonunlari"ga bo'lgan qiziqish yana boshlanadi va uning ayrim qismlari nemis, ingliz tillariga tarjima qilinadi. Ammo 1954 yilgacha bu muhim asar hozirgi zamон tillaridan birontasiga to'la holida tarjima qilinmagan edi. Chunki "qonun"ning arabcha asli milliondan ortiq so'zni o'z ichiga olardi. Bu qiyin, mas'uliyatlι ishni o'zbek sharqshunoslari o'z zimmasiga olib, 1954-61-yillar mobaynida Toshkentdagи yirik olimlar, tabiblar hamkorligida "Tib qonunlari"ning o'zbek va rus tillariga tarjima qilin-gan 5 kitobi nashr etiladi. "Qonun"ning o'zbekcha tarjimasi 4000 bet, ya'ni 280 bosma taboqdan iborat bo'ladi. 1980 yili Ibn Sino tushlgan kuniga 1000 yil to'lishi munosabati bilan "Tib qonunlari" o'zbek va rus tillarida to'ldirilgan holda ikkinchi bor nashr etildi. "Al-qonun fit-tib" Sharq xalq tabobati ilmi taraqqiyotining oliy cho'qqisi hisoblanadi. Ikkinchi kitobining o'zida 811 nomdagи o'simliklar, hayvonlar va ma'danlarga taalluqli "oddiy" dorilarning ro'yxati berilgan. Shuningdek, bu dorilar arab alfaviti tartibida izohlanadi.

"Tib qonunlari"ning II jildidagi 268 turdagи o'simlikdan 170 tasi hozirgi kunda amalda tatbiq etilgan bo'lib, 110 tasi davlat dorishunosligining turli nashrlariga kiritilgan.

Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan asarlardan yana quyidagi larni sanab o'tamiz:

**"Urjuza fitt-tib"** - tabobat ilmining nazariyasi va umumiylar masalalari bo'yicha darslik sifatida tuzilgan bu asar rajaz vaznida she'r

bilan yozilgan. Arabcha asl matni 1829 yili Katkuttada, 1845 yili Laknavda, 1956 yili Parijda nashr etilgan. Lotin tilida ham tarjima qilinib, bir necha marta chop etilgan. Fransuzcha, nemischa, inglizcha tarjimalari mavjud. 1972 yili Toshkentda o'zbekcha tarjimasi bosilib chiqqan.

"Al-adviyat al-kalbiya" (yurak dorilar) - yurak kasalliklarini davolashga bag'ishlangan maxsus risola. Asl arabcha matni Istambulda 1937 yili bosilgan. Lotincha tarjimasi 1482 t., turkchasi 1937 y., o'zbekchasi 1966 yil Toshkentda nashr etildi.

"Daf' al-madorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya..." (Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish...) - sog'lijni saklash (hozirgi ibora bilan aytganda gigiena) va parhez masalalariga bag'ishlangan bu asar 1547 yilda qo'shilgan. Arabchasi 1837 yili Qohirada, o'zbek tilidagi tarjimasi 1978 yili Toshkentda bosilib chiqqan.

"Kitob al-kulanj" - yo'g'on ichakdag'i kolit xastaligiga bag'ishlangan bu risolaning qo'lyozma nusxalari turli kutubxonalarda saqlanmoqda.

"Maqola fiu-nnabz" - ("Tomir urishi haqida maqola") -fors tilida yozilgan bo'lib, 1932 va 1952 yillari Texronda bosilgan.

"Urjuza fit-tib/fil-l-fusul al-arba'a" ("Yilning to'rt fasliga oid tibbiy urjuza") - she'riy risolada yil fasllarida nimalarga amal qilish, ovqatlanish, ichimliklar, dorilarni iste'mol qilish haqida gap boradi. Nashr etilmagan, qo'lyozmalari turli kutubxonalarda saqlanadi.

"Urjuza fi-l-mujarrabot" ("Tajribadan o'tgan davrlar hakdda urjuza") - bosilmagan. "Risola fil-box" ("Shahvoniy quvvat haqida risola") yosh o'tishi bilan shax.voniq quvvatning kamayishi va uni qo'zg'atuvchi dorilar haqidagi risola, bosilmagan.

"Risola fi tadbir al-musofirin" ("Safarda yuruvchilarining tadbiri haqida risola") - dengizda safar qilganda, qordan ko'z qamashganda, sovuqdan qo'l-oyoqlar og'riganda ko'riliishi lozim bo'lgan choralar va hokazo haqidagi risola. Turk tilida nashr etilgan.

"Risola fi xifz as-sixxa" ("Sog'lijni saklash haqidagi risola") 13 bobdan iborat bo'lib, shaxsiy gigiena qoidalari haqida. Bosilmagan.

"Risola fis-sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola") - Asal yoki shakar va sirkadan tayyorlanadigan ichimlikning foydalari haqida. O'rta asrlarda lotin tilida bosilgan.

"Risola fil-fasd" ("Qon olish haqida risola") - turkhada tarjima qilingan.

"Risola fil-hindibo" ("Sachratqi haqida risola") - Arabcha matni turkcha tarjimasi bilan birga 1955 yilda Istambulda bosilgan.

Ibn Sinoning bundan X asr avval yozgan asarlari hali ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ibn Sino havo haqida to'xtalganda bug' va tutun kabi yot narsalar aralashmasligini, musaffo, tiniq bo'lishi lozimligini, ochiq va shamol tegib turadigan joylarning havosi foydali ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning fikricha, havoning sifatiga quyosh (quyosh nurlari

**havoni sog'lomlashtiradi), tog'lar, shamol, tuproq, suv havzasi ta'sir qiladi.** Osho havo soydali va ko'pchilikning mizoqiga yoqadi. Terining rangini ochadi, yunshatadi, teshiklarini tozalaydi, "ulfarni ochadiyu lekin baziishiga yo'l qo'ymaydi". Qurug havo aksincha ta'sir ko'rsatadi.

Yillar, asrlar o'tdi, tabobat ilmining sultoni Ibn Sinoning nomi tohorn e'zozda.

Biz quyida Ibn Sinoning tomir urishi haqidagi risolasini o'zgartirmagan hoddha siz azizlarga havola etmoqdamiz.

### **III b o b. IBN SINO TOMIR URISHI HAQIDA**

Birinchidan, biliш kerakki, bizning izzatlari va ulug' Yaratuvchimiz [Juhurni] o'z hikmati deb biladi va biliшni istagan [bandalarini] ular haqida ozginni xabardor qilib qo'ygan. Osmonning ostidagi mana shu quyи olamda asosiy to'rt javharni yaratdi. Biri - olov, yana biri - havo, yana biri - suv, yana biri - tuproq. Bularidan ozmi-ko'pmi olib aralashutishdan boshqa narsalarni yaratdi. Masalan: bulut va yomg'ir, yana tosh va eriydigan povhar, yana o'suvchi javhar, his bilan sezuvchi javhar va odam javhari. Ularning har birida asosiy to'rt javharning Miqdori har xil, ularning qorishishi ham boshqa-boshqua.

Olovni issiq qilib yaratdi va quruk^ikka ega kildi.

Havoni ho'l qilib yaratdi va issiqdikka ega qildi.

Suvni sovuq qilib yaratdi va ho'llikka ega qildi.

Tuproq va yerni quruq qilib yaratdi va sovuqlikka ega qildi.

Bu to'rt asosiy javharning eng mo'tadil qorishishi odamdadir. Odamni uch narsaning to'planishidan yaratdi: biri -tan, buni arabchada "badan" va "jasad" deydilar; ikkinchisi - jon, buni "ruh" deydilar; uchinchisi - raxon, buni "nafs" deydilar.

Jasad g'azil va ruh latifdir. Nafs esa bu javharlardan boshqa bir narsa bo'lib, uning latifligi ham ruhning latifligidai boshqa, ruh latifligining ma'nosi noziklik, javharining mayinligi va jismining tiniq havodek tiniqligidir.

Nafsning latifligi boshqacha, u nozik bo'lmaydi, [ba'ki] so'z latifligi va ma'no latifligiga o'xshaydi.

Yaratuvchi tanani a'zolardan tuzdi, a'zolarni esa xiltlarning quyuq qismidan yaratdi. Ruhga kelganda, uni xiltlarning latif va bug' qismidan yaratdi.

Xiltlar to'rtta. Birinchisi, toza qon, ya'ni asl qon. Ikkinchisi, balgam, ya'ni yarim qon va yetilmagan qon. Uchinchisi, Ya'ni tuzilishi zich, tigiz safro bo'lib, bu qonning ko'pigidi. To'rtinchisi, savdo bo'lib, bu qonning quyqasi va cho'kmasidir. Bu to'rt xiltni u oldingi to'rtta [asosiy] javhardan, har xil miqsor va qorishmalardan yaratdi.

Yana bu to'rtta xiltdan xilma-xil miqdor va qorishmalarda har xil a'zolarni yaratdi. Ularning birida qon qo'proq, masalan, go'shtda. Yana birida savdo ko'proq, buning misoli suyak. Yana birida balg'am ko'proq, buning misoli miya. Boshqa birida safro qo'proq, buning misoli o'pka.

Jonni ham shu xiltlarning latif qismidan yaratgan. Har bir jon [tarkibi] ning [o'ziga xos] miqdori va qorishmasi bor. Jonning asosiy tug'ilish va parvarish topish [joyi] yurakda. Uning turar joyi yurak va arteriyalar bo'lib, u yurakdan arteriyalar vositasida boshqa a'zolarga boradi. U avval miya, jigar va maniy a'zolari kabi boshqaruvchi a'zolarga boradi; keyin u joylardan boshqa a'zolarga boradi. Har bir joyda ruxning tabiati boshqacha xil bo'ladi. Ruh yurakda bo'lganida nihoyatda issiq bo'ladi va unda olovlik tabiatи bilan safroning latifligi g'olib bo'ladi. Miya tirik bo'lishi va o'z ishlarini bajarishi uchun [ruhning] unga o'tgan qismi sovuqroq va ho'lroq bo'lib qoladi, shuningdek, uning tarkibida suvning latifligi va balg'amning bug'i ortadi. Jigarning tirik bo'lishi va o'z ishlarini bajarishi uchun rux^nинг jigarga o'tgan qismi mayinroq, issiqroq; hisda ho'lroq bo'ladi. Uning tarkibida havoning latifligi va qonning bug'i ortadi.

Qisqa qilib aytganda asosiy ruhlar to'rta. Birinchisi - hayotiy ruh bo'lib, u yurakda bo'ladi va hamma ruxdarning asosidir. Ikkinchisi - tabiblarning tili bilan aytganda, nafsoniy ruh bo'lib, miyada bo'ladi. Uchinchisi - tabiblarning tili bilan aytganda, tabiiy ruh bo'lib, jigarda bo'ladi. To'rtinchisi - tug'diruvchi ruh, ya'ni tug'dirish ruhi bo'lib, u moyakda bo'ladi. Bu to'rta ruh nihoyatda pok [tiniq] bo'lgan nafs bilan nihoyatda g'azil bo'lgan tana o'rtasida vositachidirlar. Nafs quvvatlari, masalan, his quvvati, harakat quvvati va boshqa quvvatlar ruh vositachiligidagi hamma a'zolarga boradi.

Tomir urishi haqidagi ilmni [arabchada] nabz deyiladi va U ruh, ahvoli haqidagi ilmdir.

Suv [siyidik] ilmini [arabchada] tafsira deyiladi va u xiltlarning ahvolini o'rganadi. Tomir urishi ko'proq yurak ahvoliga dalil bo'ladi, chunki yurak ruhning tug'ilish o'rnidir. Suv [siyidik] ko'proq jigarning ahvoldidan dalolat beradi, chunki jigar xiltlarining tug'ilish o'rnidir.

Agar hayvon tanasidan biror narsa chiqmasa, erib tarqamasa hamda ko'rindigan va ko'rinnmaydigan [yo'llar orqali] toza-lanmasa, bunday hayvon uchun ovqat lozim bo'lmaydi, chunki ovqat hayvondan sizilib [chiqib] turadigan narsaning badali [o'rniga o'tuvchisi]dir. Issiqlikning kamligi yoki [hayvonga] xos bo'lgan harakatning kamligi, yoki terisining qattiqligi sababli [hayvon tanasidan moddaning] chiqishi kam bo'lsa, u ilon singari qishda rizolanmaydi. Biror hayvon tanasida ovqatlanganidan keyin balg'am ko'p yig'ilib qolganda tabiiy quvvati tufayli u zarar qilmaydi. U [hayvon] qishda kovak ichida, tashqaridan ovqatlanmasdan kam harakat qilgan holda yashaydi, chunki tanasining ichida ovqati bor - u balg'am yetilgach, qonga aylanadi.

Biron kishi hayvonning ovqati har kuni ko'payva borishi bilan uning tanasidagi balg'am miqdori ham osha boradimi, deb so'rashi mumkin. Javobi shuki, tashqaridan hayvonga yetadigan [beriladigan] ovqatning hammasi ham foydali bo'lavermaydi va haqiqiy ovqatga aylanmaydi; ko'proq u chiqindiga aylanadi va chiqindi bo'ladi. Shu jihatdan tanaga ozgina qismi o'tadi, [xolos]. Balg'amdan vujudga keladigan ovqat haqida

shuni aytish kerakki, balg'amning hammasi ovqatga aylanadi.

Shunday kdlib, bu miqdor [hisob], u miqdor [hisob]ga to'g'ri kelmaydi, demak, hayvon tanasidan erib tarqalgan [moddaning] o'rnnini boshish yoki tana tig'izligini [saqlash] uchun kerak mikdorda gizo lozim bo'ladi.

Ruh latif va harakatchan bo'Iganligi uchun, birinchidan, shimalishi va tarqalishi tezroq va ko'proq bo'ladi; unga gizo uzliksiz va tezroq kerak bo'ladi. Uning sabrsizligi ham ko'proq bo'ladi.

Tashqaridan ovqat yetishgan vaqtida, cho'kindi va chiqindini ajratishga va chiqarib tashlashga ehtiyoj tug'iladi. Latif ruhning chiqindisi issiq, bugli va tutunli bo'ladi, uni peshma-pesh ruhdan uzoqdashtirish kerak, chunki ruh nozik bo'ladi va o'zining iflos va yomon chiqindisi bilan aralashib turishni ko'tara olmaydi. Shunday ekan, uni tezlik bilan ajratib yuborish kerak.

Ruhda yana boshqa bir sabab ham bor: u yurak va arteriyalar ichida qaynab va yarqirab [alangalanib] turadi. Agar sovuq havo unga kelib yetmasa, [tabiat] mo''tadillikdan chiqadi va erib [tarqalib] ketadi. Demak, sovuq havo uni mo''tadil [holga] keltirib, qotirib [tutib] turadi.

Suv tana gizosini tana ichiga haydar, chiqindilarni tanadan yuvib tashqariga chiqargani singari havo ham jon rizosini tashqaridan va lehkaridan jonga yetkazadi va chiqindilarni jondan tashqariga haydaydi.

Temirchi damining ochilishi va yoyilishi bilan havoni damning ichiga tortishi, damning yopilishi va siqilishi bilan uni tashqariga chiqarishi kabi yurak va arteriyalar "inbisot" deb ataladigan yoyilish harakati bilan havoni ichkariga tortadi va sovuq havoni tashqaridan hamda ruh ozig'i [bo'Igan] bug'ni ichkaridan [olib] ruhga yetkazadi va "inqiboz" deb ataladigan siqilish harakati bilan ruhning sog'lig'ini saklab turish uchun tutunli bug'dan iborat chiqindini ruhdan ketkazadi; bu ikki harakatni ular o'rtaida bo'ladi dan ikki harakatsizlik [sukut] bilan birga qo'shib "nabz" [tomir urishi] deyiladi. Keyinroq buni yana oydinlashtiriladi.

Nafas olish tomir urishiga o'xshaydi. O'pka havoning xazinasini bo'lib, yurakka qo'shnichilik qildi. [Nafas] havoni o'pka ichiga kiritadi, shunda yurak ham o'sha havodan oladi va chiqindilarini unga qaytaradi; o'pkada havo isigach va unda tutunli bug'dan iborat chiqindi ko'p te'plangach, u [havo] ifloslanadi va ishga boshqa yaramaydi; oqibatda [o'pka] u havoni chiqarib tashlaydi va boshqa havo oladi. [Bu hol] umrning osirigacha takrorlanadi. Bir marta nafas olishga bir necha marta tomir urishi to'g'ri keladi; har gal olingen havo ishga yaramay qolganda, boshqatdan nafas olish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, ruh ahvolining o'zgarishi sababli bu harakat va harakatsizlik [sukut]ning holi ham turlicha bo'ladi; badan va nafas ahvolining o'zgarishi sabab bo'lib, ruhning ahvoli har xil bo'ladi. Shu yo'sinda bu harakat va bu harakatsizlik [sukut] boshqa axvollarga ham belgi bo'ladi.

Yurak go'yo butun tananing arteriyasi, arteriya esa biron a'zoning

yuragi kabitidir. Yurak ichidagi ruh uchun o'pka yo'li orqali nafas olishga ehtiyoj bo'lgani singari arteriya ichidagi ruhga ham teri teshiklari orqali nafas olish va tortishga ehtiyoj tushadi.

Arteriyaning har bir bo'lagi o'z tabiatini bilan harakatga keladi. Bu ikki harakat bo'lib, (16) yoyilish va siqilishdan iborat; yurak harakatga kelganidek, u [arteriyalar ham] mazkur maqsadni amalga oshirish uchun harakatga keladi.

Bu bilan arteriya ko'tariladi va harakatga keladi; goh yurak [qon va ruhni] o'ziga tomon tortadi va buning natijasida arteriya bo'shaydi va tinchlanadi.

Shunday qilib, [ularcha] arteriyaning harakati mazkur quyilib kelish harakati sababli yuzaga kcluvchi bo'lib, o'z-o'zidan yuzaga keladigan [harakat] emas.

[Haqiqat] ularning aytganlaricha emas. Arteriyaning o'zi o'zicha yoyilish va siqilish harakatini qildi, qon va ruhni yurakdan va havoni teri teshiklaridan o'ziga tortadi hamda chiqindilarni o'zidan chiqarib tashlaydi. Buning dalili shuki, masalan, chipqon yoki biron boshqa ofat sababli bir kishining a'zolaridan biri, deylik qo'li qizib issigi ko'tarilsa, shu chipqonga yondosh arteriya yoki o'sha issig'i ko'tarilgan qo'ldagi boshqa arteriya yurakka va bunday hol yuz bermagan boshqa arteriyaga nisbatan tezroq va qo'proq harakat qiladi. Agar [arteriya o'z Harakatida] yurakka tobe bo'lmaganda edi, hamma vaqt ham yurak Harakati kabi [harakatda] bo'lar, kam yoki ko'p bo'lmas edi.

Alloh taolo bitta to'g'ri arteriyadan tashqari, [barcha] arteriyalarni ikki qavat qilib yaratdi. Harakatsiz tomirlarni ham bitta to'g'risidan tashqari barchasini bir tabaqali qilib yaratdi. Arteriyalarning ikki qavatlari qilib yaratilganligiga sabab ularning pishikligini ehtirot qilishdir. Chunki arteriyalar ruhning saklanadigan xazinasi bo'lib, boshqa narsalardan muhimroq, chunki [ruh] qon va qonga o'xshash narsalardan azizroqdir. Shuningdek, [ruh] boshqa narsalardan mayinroq va latifroq, [o'tar joylardan] juda oson o'tadigan va yana u hara-katdadir; harakat qiluvchi narsa esa topuvchanroq bo'ladi.

### 3-Q I S M.

## TURON XALQ TABOBATINING NAZARIY ASOSLARI

### I b o b. TO'RT UNSUR TA'LIMOTI

Qadim zamonlarda ota-bobolarimiz asriy amaliyotlari bilan berliqning to'rtta moddasini (anosiri arba') kuzatganlar, taniganlar va to'rtta katta modda nazariyasini yaratganlar. Bu ta'lilot xalq tabobatida muhim nazariy asos sifatida qo'llanib kelgingan. To'rtta katta modsa bir-biriga qarama-qarshi bo'lsada, bir-birini taqozo ham etadi. Ular garchi jismi, xususiyati, kayfiyatni jihatidan bir-biriga o'xshamasada, biri bo'lmasa boshqasi o'z vazifasini to'la bajara olmaydi.

Masalan, urug' to'rtta katta modsaning o'zaro uyg'un ta'siri natijasida unib chiqadi. Xuddi shunga o'xhash, to'rtta katta modsaning birkishi, o'zgaruvchan kuchining ta'siri bilan jismiyat hosil bo'ladi. Shuningdek, u to'rtta katta moddaning davomli ta'siri va o'sish kuchi quvvati bois rivojlanadi.

To'rtta katta modsa ta'siri odam tanasida to'rtta kayfiyatni vujudga keltiradi. Bular: issiqdik (harorat), ho'llik, suyklik (rutubat), sovuqlik (burudat), quruklik (yubusat). Bu kayfiyat odamning hayoti uchun niyoyatda muhim. Masalan, tanada issiqlik bo'lmasa, ovqat parchalanmaydi, ho'llik, suyklik bo'lmasa, oziqlar shimalmaydi, quruqlik bo'lmasa, miyaning qo'mondonlik kuchi zaiflashib, akl-idrok izdan chiqadi. Sovuklik bo'lmasa, yurak ishi yaxshi kechmaydi. Demak, odam tanasida to'rt kayfiyatning barchasi bir xil, bir-biridan kam yoki ortiqligi lozim. Bu xil kayfiyatlar faqat odamda bo'lmay, balki hayvonot va nabotot dunyosida ham mavjud. Shunga muvofiq dorilar ham issiq-sovuq va quruq-ho'l kayfiyatlarga ajraladi.

To'rt kayfiyatning odam tanasidagi bir-biriga qarama-qarshi faoliyati natijasida mizoj hosil bo'ladi.

**1. OLOV.** Olov issiq, rangsiz, eng yengil modda. Olovning vazni juda yengil bo'lganidan yuqori ko'tariladi. Kurrai zaminni qoplagan havo qatlami ustida turadi. Olov (quyosh) to'rt fasl va kechasi-yu kunduz dunyoni issiqlik bilan ta'minlaydi. U juda ham qizitish, jismlarga havo o'tkazish, tarkiblarga ajratish, pishirish, suv hamda tuproqning haroratini tenglashtirish, qattiq jismlarni eritib, o'zgartirish va moddalarga rang berish kabi xususiyatlarga ega. Olov o'rin jihatidan eng yuqorida turadi. Kayfiyat - tabiatli quruq-issiq bo'ladi.

**2. HAVO.** Havo - vazni nisbatan yengil, olovdan og'ir, suvdan yengil. Quyoshning suv va tuproqqa bo'lgan ortiqcha haroratini pasaytiradi, bo'shliklarni to'ldiradi.

Havo o'rin jihatidan olovdan past, suvdan yuqori turadi, kayfiyati ho'l-issiq.

**3. SUV.** Suv - vazni jihatidan nisbatan og'ir, tuproqdan yengil, havodan og'ir. Tirik jonzot va nabototning hayoti uchun zaruriy oziqa

moddalarni yetkazib berish, suyultirish, jismlarning olov harorati ta'siridan parchalanib buzilib ketishdan saqlash, jamiki jonzotning modda almashinish jarayonida paydo bo'lgan keraksiz moddalarni turli yo'llar bilan oqizib, sirtga chiqarishda ishtirot etadi.

**4. TUPROQ.** Tuproq vazni jihatidan nixryatda og'ir jism, quyoshning isitish, quritish va suvning biriktirish hamda parchalash ta'siriga uchrab turadi. U borliq jonzot va jonsiz mavjudotning shakl sifatini tanlab turish bilan birga ulardagi suvning ortiqcha ho'llligi va quyoshning ortiqcha issig'ini mo'tadillash, borliq jonzotga zarur suyukliklarni yetarli miqdorda saqlash va ba'zi jismlarni parchalash, pishirish xususiyatiga ega. Tuproq - eng tuban bo'lib, kayfiyat quruq-sovuq.

#### **II b o b. MIZOJ TA'LIMOTI**

To'rta katta moddaning juda kichik bo'laklaridagi kayfiyat (tabiat)ning bir-biriga ta'sir etishidan paydo bo'lgan yangi kayfiyat mizoj, deb ataladi. Boshqacha aytganda, to'rta modda quvvatining o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelgan kayfiyat mizoj sanaladi. Tabiat dunyosi va undagi borliq jonzotning mizoji bo'ladi. Hayvonot va nabotot olamining mizoj tafovutlari to'rta katta moddaning davriydagи asosida shakllangan. Ularning qaysi mizoja mansubligi to'rta katta moddadan qaysi birining g'olib o'rinda turganligiga bog'liq. Inson-larning aft-angori, qaddi-qomati, xulq-atvori, odati, ruhiyati kabi tafovutlarning eng asosiy qismi ularning mizojni shakllantirish uchun xom ashyo sanaladi.

Insonlarning rangi-ro'yи va qaddi-qomatiga aloqador farqlarga sababchi bo'lmish ichki omillar to'rta katta moddaning tanadagi unsurlari hisoblanib, ularning tug'ma mizojiga vakillik qiladi. Bu xil tug'ma mizojni sun'iy usul yoki biror vosita orqali o'zgartirishning iloji yo'q. Ammo insonlarning xulq-atvori, ruhiy holati, urf-odatini ijtimoiy muhit ta'sirida, axloqiy va ma'naviy tarbiyalar orqali o'zgartirsa bo'ladi.

Ijtimoiy tuzum, moddiy shart-sharoit, ma'naviy tarbiya insonning axloqiy fazilatlarini o'zgartirishda tashqi sabab hisoblanadi.

#### **Ibn sinoning mizoj xaqidagi ta'lomit**

Sharq mamlakatlari tibbiyotida kasalga tashxis qo'yish va uni davolashda mizoj tushunchasiga asoslanganlar. Bu tushuncha o'z navbatida qarama-qarshiliklar nazariysi bilan bog'liq.

Mizoj tushunchasi ko'p asrlik tarixga ega. Birinchi marta "issiqlikdan kelib chiqadigan kasalliklar va sovuqlikdan kelib chiqadigan kasalliklar" mavjud, degan fikr qadimgi Xitoy manbalarida bayon etilgan edi. Keyinchalik bu tushuncha boshqa Sharq mamlakatlari tibbiyotiga tarqaldi.

Mizoj tushunchasining mohiyati haqida turli fikr-mulohazalar mavjud. Umuman mizoj tushunchasi kasallikning sababi va kelib chiqishini to'rta omil: issiqlik, sovuklik, quruqlik va ho'lllik bilan bog'laydi.

Shularning har birini o'ziga xos mizoj, deb ataganlar. Amalda ko'proq, issiq va sovuq mizojlar e'tiborga olinadi.

**Abu Ali ibn Sinoning fikricha, mizoj kishi tanasining o'ziga xos xususiyatini (xususiyatini) belgilovchi omil.**

Ibn Sino mizoja shunday ta'tif beradi: "To'rt unsur to'rt xil qarama-qarshi xususiyatga ega. Bu xususiyatlar unsurlarning eng mayda bo'lakchalarida joylashgan. Bu bo'lakchalar doimo bir-biriga ta'sir ko'rsatib turadi. Shu o'zaro ta'sir bir chegaraga yetganida paydo bo'ladigan xususiyatga mizoj deyiladi".

Mizoj mo'tadil va mo'tadillikdan chiqqan holatda bo'lishi mumkin. Mizoj mo'tadil bo'lsa - kishining tanasi sog'lom, mo'tadillikdan chiqsa - kasallik paydo bo'ladi. Odam uchun eng yaxshisi mizojniing mo'tadil bo'lishi. Ibn Sino shuni ta'kidlab yozadi: "Mizoj mo'tadil bo'lganda gavdadagi qarama-qarshi xususiyatlar miqdor jihatidan o'rtacha va sifat jihatidan nuqsonszib bo'ladi. Bunday kishi sog'lomdir. Agar qarama-qarshi xususiyatlar o'rtacha bo'lmay, issiqlik yoki sovuklikka, xo'llik yoki quruklikka yoki har ikkisiga moyil bo'lsa, mizoj mo'tadillikdan chiqadi va tanada kasallik paydo bo'ladi".

Nomo'tadil mizoj **Ibn Sinoning fikricha**, shunday holatki, unda tanadagi issiqlik va sovuklik, ho'llik va quruklik xususiyatlari uyg'unlikda bo'lmay, ulardan biri ustun bo'lib qolgan bo'ladi.

Nomo'tadil mizoj ikki xil - sodda va murakkab bo'ladi. Soddasida mizoj xususiyatlaridan faqat bittasi ortiqcha bo'ladi. Bunday holat to'rt ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'ri-nishda issiqlik keragidan ortiq bo'lib, ho'llik va quruklik o'zgarmaydi. Ikkinci ko'rinishda quruqlik keragidan ortiq bo'lib, issiqlik va sovuklik o'zgarmaydi. Uchinchi ko'rinishda ho'llik keragidan ortiq bo'lib, sovuklik va issiqlik ortiqcha bo'lmaydi. To'rtinchi ko'rinishda - sovuklik keragidan ortiq bo'lib, quruqlik va ho'llik o'zgarmaydi. Bu to'rt holat o'zgarib turishi mumkin.

Har bir tirik mavjudotning o'ziga xos mizoji bo'ladi. Eng mo'tadil mizoja ega bo'lgan mavjudot odamdir. Har bir odamning o'ziga xos mizoji bo'ladi. Har xil mintaqada yashovchi odamlarning mizojlari turlicha bo'ladi.

Kishi mizojniing qanday bo'lishi juda ko'p ichki va tashqi omillarga bog'liq. Ichki omillar odam gavdasiga uni tashkil qiluvchi unsurlar bilan kirgan issiqlik, sovuklik, quruqlik va ho'llik kabi xususiyatlardir. Tashqi omillarga jug'rofiy va iqlim sharoitlari, oziq-ovqat xillari, ichimliklar, dori-darmonlar, yil fasli, ob-havo sharoiti kiradi. Oziq-ovqatlar, ichimliklar va dori-darmonlarning o'z mizoji bo'ladi, ular shu mizojlari bilan ta'sir qiladi. Shu ta'sir natijasi-da kishi mizoji o'zgarishi mumkin.

Ibn Sino issiq mizojni yuqori baholagan. Issiq mizoqli kishilar kasalliklarga uncha chalinxaydigan, baquvvat va kuchli bo'ladir.

Mizoj yoshga qarab ham o'zgaradi. Masalan, yosh bolalarda xelmda o'smirlarda mizoj issiq va ho'l xususiyatga ega bo'ladi. Usishdan to'xtagan yoshda issiqlik mizoji ozayadi. 40 yoshdan keyin sovuqlik mizoji ko'payadi. Qarilikda mizoj quruq va sovuq bo'lib qoladi. Erkaklar issiq, uyollar sovuq mizojlari bo'ladir.

Butun gavdaga xos mizojdan tashqari, har bir a'zoning o'z mizoji ham bo'ladi, hatto bitta a'zoning ayrim qismlari o'z mizojiga ega bo'lishi mumkin. Eng mo'tadii mizoja ega bo'lgan a'zo mushak (go'sht). Go'shtdan ham mo'tadil a'zo teri. Ayniqsa, qo'l terisi, xususan, kafst terisi mo'tadil mizoja ega. Qo'l terisining eng mo'tadil joyi ko'rsatkich barmoq terisi. Qo'l panjasи va barmoqlar terisining har bir nuqtasi o'z mizojiga ega, deb yozadil. Fikrimizcha, bu yerda Ibn Sino mubolag'aga yo'l qo'ygan. Masalan, bitta olmaning bir pallasi shirin, ikkinchi pallasi nordon bo'lishi mumkin emasligi kabi, bir qo'lning bir barmog'i bir xil, ikkinchi barmog'i boshqa xil mizojli bo'lishi unchalik ishonarli emas.

Ibn Sino issiq mizojli a'zolar bayoniga o'tib, yurakni birinchi o'ringa qo'ygan. Keyingi o'rinnlarda qon, jigar, o'pka va boshqa a'zolarni keltiradi. Uning yozishicha, eng sovuq mizojli a'zo shilliq. Bu yerda Ibn Sino limfa suyukligini ko'zda tutgan bo'lsa kerak. Ibn Sino ayatadiki, ko'rsatib o'tilgan a'zolar issiq yoki sovuq mizojli bo'lishi bilan birga ho'l yoki quruq bo'lishi ham mumkin. Masalan, qon, yog', bosh miya, orqa miya, o'pka, jigar, taloq, buyrak ho'llik xususiyatiga ega bo'lsa, tanadagi moylar quruq mizojlidir.

"Har bir jonzotning o'ziga xos mizoji uning uchun mo'tadildir", deydi hakim. Masalan, suyakka xos mo'tadil mizoq quruqlik, miyaga xos mo'tadil mizoq sovuklik, yurakka xos mo'tadil mizoq issiqlik singari. Shuningdek, Ibn Sino ovqatlar, ichimliklar va dori-darmonlarning ham mizojarini ko'rsatib o'tgan. Uning yozishicha, to'yimli (yuqori kaloriyalı), o'tkir va achchiq, mazali taomlar, qovurilgan ovqatlar va shi-rinliklarning ko'p xili issiq mizojli, kam kaloriyalı, to'yimsiz ovqatlar (masalan, sabzavotlar) sovuq mizojlidir.

Dorilarga kelgavda kuchli ta'sir etuvchi, fiziologik jarayonlarni tezlashtiruvchi, zaharli, qizdiruvchi dorilar issiq mizojli, ularga teskari xususiyatga ega bo'lgan dorilar sovuq mizojli hisoblangan.

Mizoq tug'ma, ya'ni nasldan naslga o'tgan va araziy (keyin paydo bo'lgan) bo'lishi mumkin. Tug'ma mizoq kishi uchun foydali, u salomatlikka yaxshi ta'sir qiladi. Tug'ma mizoq issiq mizojsidir. Arazi mizoq ham issiq bo'lishi mumkin. Lekin bu issiqlik kishiga aziyat beruvchi alanganishni va isitmalar paydo qilish xususiyatiga ega bo'ladi. U kishi quvvatini zaiflashtiradi, kuchli tashnalik paydo qiladi. Ibn Sino mo'tadil mizojli odamlar haqida shunday yozadi: mo'tadil mizojli kishilarning hamma harakatlari mukammal va tetikdir. U odam yoshlikdan tez va yaxshi o'sadi, o'zi zavkush, odamshavanda va ochiq yuzli bo'ladi. Ovqat va ichimliklarga ishtahasi yaxshi, ichak va jigari ovqatni yaxshi hazm qiladi, a'zolari mutanosisib bo'ladi. Demak, "issiqlik mizoq" deganda turli fiziologik jarayonlarni faollashtiruvchi va organizmning reaktivligini oshiruvchi omillarni tushungan. Aksincha, hayot jarayonlarini sustlashtiruvchi omillarni sovuq mizojli omillar, deb tushungan.

### I. Mo'tadil mizoq.

A'zoi badanda bir-biriga qarama-qarshi kayfiyatlarining tabiiy holda

o'zaro muvofiq kelishi mo''tadil mizoj, deyiladi.

Mo''tadil mizoj sakkiz xil bo'ladi:

a) mo''tadil jinsiy mizoj. Bir jinsning mo''tadil mizoji yot bir jinsda topilmasa, bu mo''tadil jins, deb ataladi. Masalan, insonning tabiiy mizojiga xos ruhiy holat, axloqiy fazilat hayvonlar jinsida uchramaydi. Demak, inson mizoji hayvonlar mizojiga qaraganda mo''tadilroq bo'lganligi uchun mo''tadil jinsiy mizoj, deb qaraladi;

b) nisbiy mo''tadil jins mizoji. Bir xil jins ichidagi bir shaxs mizojining yana bir shaxs mizojiga nisbatan mo''tadilroq bo'lishi yoki ma'lum shaxs mizojining o'xshash turdag'i boshqa bir shaxs mizojidan alohida mo''tadilroq bo'lishi yoki mo''tadil, deb qaralgan bir necha shaxslar ichida yuqorida aytilgan mo''tadil mizojning alohida mo''tadil bo'lishi nisbiy mo''tadil jins mizoji, deb ataladi;

v) mo''tadil jins naviy mizoj. Bu xuddi erkaklarning mizoji ayollarining mizojiga nisbatan mo''tadil bo'lgani kabi yoki bir jinsdag'i odamlarning mizoji yana bir jinsdag'i odam-larda topilmasligi mo''tadil jins naviy mizoj, deb ataladi;

g) mo''tadil naviy sinfiy mizoj. Ma'lum bir erkakning mizoji yana boshqa bir erkakning mizojidan alohida bo'lishi; bir erkakning mizoji boshqa erkaklar mizojidan mo''tadil bo'lishi mo''tadil naviy sinfiy mizoj, deb ataladi;

d) mo''tadil sinfiy mizoj. Bir yurt iqlimidagi odamlarning mizoji boshqa bir yurt iklimidagilarning mizojiga qaraganda mo''tadilroq bo'lishi mo''tadil sinfiy mizoj, deb ataladi;

ye) mo''tadil nisbiy mizoj. Bir qita, bir belbog', bir jug'rofiyali muhitda yashagan bir shaxs mizojining yana bir shaxs mizojidan mo''tadilroq bo'lishi mo''tadil nisbiy mizoj, deb ataladi;

yo) mo''tadil shaxs mizoj. Bir shaxsning muayyan mizoji yana bir shaxsning mizojiga qaraganda mutlaq mo''tadil bo'li-shi mo''tadil shaxs mizoj, deb ataladi;

j) mo''tadil shaxs nisbiy mizoj. Bir shaxsning ma'lum holatdagi mizoji uning boshqa yana bir holatdagi mizojidan mo''tadilroq bo'lishi mo''tadil shaxs nisbiy mizoj, deb ataladi.

## 2. ***Rayri mo''tadil mizoj.***

G'ayri mo''tadil mizoj ikki xil bo'ladi:

a) g'ayri mo''tadil yakka mizoj;

b) g'ayri mo''tadil murakkab mizoj.

## 1. ***Rayri mo''tadil yakka mizoj.***

a) Mutlaq issiq mizoj. Issiqlikning ho'llik, quruqlik, sovuklikka qaraganda mutlaq ustunlikda turishi mutlaq issiq mizoj, deb ataladi.

b) Mutlaq ho'l mizoj. Sovuqlikning issiqlik, quruqlik va sovuklikka qaraganda mutlaq ustunlikda turishi mutlaq ho'l mizoj, deb ataladi.

v) Mutlaq sovuq mizoj. Sovuqlikning issiqlik va ho'llikka nisbatan g'olib o'rinda turishi mutlaq sovuq mizoj, deb ataladi (ammo sovuqligi mutlaq bo'lsa ham nisbiy quruklikdan xoli emas).

g) Mutlaq quruq mizoj. Quruqlikning issiqlik, ho'llikka Qaraganda mutlaq ustunlikda turishi mutlaq quruq mizoj, deb ataladi. Insonning qarilik davri, oxirgi bosqich oxirlashib, ichki unsurlarning bo'laklarga parchalanishi jarayoni mutlaq Quruklikka mansub bo'ladi. Masalan, jami kishilarning qarilik davrida teri osti va ichki a'zolari me'yorida yog'to'planish holati yuz bersa ham, ularning ichki mizoji sovuq, mizoji quruqlik sari taraqqiy etgani uchun hayotning so'nggi bosqichida hamon quruqlik mutlaq ustunlikni egallab turadi. Demak, moddalarning son va sifat jihatdan o'zgarishlari, oxirgi hisobda quruq-sovuq bo'lgani sababli, odam vafot etgandan keyingi parchalanish jarayoni mutlaq quruqlik bilan nisbiy sovuklik bosqichida amalga oshadi. Shu sababdan g'ayri mo'tadil yakka mizojlarning uchinchi va to'rtinchi turi mohiyatan quruq va sovuq bo'lib, kayfiyatiga ko'ra tuproq xususiyatini olgan bo'ladi.

## **2. G'ayri mo'tadil murakkab mizoj.**

a) Quruq-issiq mizoj. Quruklik bilan issiqlikning ho'llik bilan sovuqlikka qaraganda yuqori o'rinda turishi quruq-issiq mizoj, deb ataladi. Uning kayfiyati "olov"ga mansub bo'ladi.

b) Ho'l-issiq mizoj. Ho'llik bilan issiqlikning quruqlik bilan sovuklikka qaraganda yuqori o'rinda turishi ho'l-issiq mizoj, deb ataladi. Uning kayfiyati "havoga" mansub bo'ladi.

v) Quruq-sovuq mizoj. Qurqlik bilan sovuklikning ho'llik bilan issiqlikka qaraganda yuqori o'rinda turishi quruq sovuq mizoj, deb ataladi, Uning kayfiyati "tuproq"qa mansub.

g) Xo'l-sovuq mizoj. Ho'l bilan sovuqlikning quruklik bilan issiqlikka qaraganda yuqori o'rinda turishi ho'l-sovuq mizoj, deb ataladi. Uning kayfiyati "suv"ga mansub bo'ladi.

**Odamlar mizoji.** Bu to'rt xil bo'ladi va xususiyatiga ko'ra issiq va sovuqqa bo'linadi. Lekin to'rtta katta unsurning bir-biriga aralashishidan paydo bo'lgan moyillik kayfiyatiga ko'ra odamlarning mizoji quruq-issiq, ho'l-issiq, ho'l-sovuq va quruq-sovuqqa ajraladi.

1. Quruq-sovuq mizojli kishilarning alomatlari. Tabiiy jug'rofiy muhitning odamlar rangi-ro'yiga ta'sirini hisobga olmay, balki tanasidagi tabiiy sifatning farqini ko'zda tutganda, odatda, quruq-issiq mizojli odamlarning ko'z oqi sarg'ishroq, og'iz ta'mi achchiq, tili quruq, ko'p suyuqlik iste'-mol qilishga moyil, tanasining harorati baland bo'lib, havoda yurishni va sovuq taomlarni xush ko'radilar. Bunday kishilarning tomiri kuchli va tezroq uradigan, peshobi qizilga moyil, sariq bo'ladi.

Ana shu alomatlardan tashqari quruq-issiq mizojli odam-larning hulqiy mizoji va ruhiy holatida alohida tafovutlar bor. Bu belgilarni ularning tug'ma mizojidan ajratish qiyin. Sharq tabobati ilmining juda qadim kuzatishlaridan aniqla-nishicha, quruq-issiq mizojli odamlar asabiy, sezgir, hovliqma, o'zlarini tutish qobiliyati zaifroq, kam uyqu bo'ladi. Bu toifa odamlar ko'proq asab kasalliklari, jigar va hazm a'zolari dardlariga oson yo'liqadilar, quruq-issiq mizojli odamlarga quruq-issiq kayfiyatdag'i taomlar va dorilar salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Ho'l-issiq mizojli odamlarning alomatlari. Bu xildagi mizoj eng yaxshi mizoj hisoblanadi. Tabiiy mizoji ho'l-issiq bo'lgan odamlarning go'sht va yog' qatlamlari ancha durust taraqqiy qilgan, deyish mumkin. Tana harorati ustunroq, terilar silliq va tipik, qizil, tetik va quvvatli, og'zi shirin, ko'p esnaydigan, seruyqu bo'ladi. Oyoq-qo'llari oson yoziladi. Bu mizojdagi odamlar ko'proq teri, yurak-tomir va buyrak kasalliklari bilan tez kasallanadi. Bularning tug'ma mizoji bilan xulqiy mizoji va ruhiy holatini birga olib qaraganda, xush-fe'l, ochiq ko'ngil, oqil va fikrlash qobiliyati o'rtacha, sirtqi ta'sirlarga beriluvchan hamda o'zini tuta oladigan kishilardir.

Ular, odatda, quruq-sovuq xususiyatli (masalan, sigir go'shti) taomlar bilan oziqlansalar, maqsadga muvofiq bo'ladi, quruq-sovuq kayfiyattdagi dorilar yaxshi ta'sir qiladi. Bu mizojdagi odamlar ho'l-issiq (masalan, qo'y go'shti) taomlarni uzoq muddat iste'mol qilsalar yurak-tomir kasalliklariga yo'liqishlari mumkin.

3. Ho'l-sovuq mizojli odamlarning alomatlari. Bu mizojdagi odamlarning rangi oq tiniq, lablari qalim, teri osti yog' qatlamlari ho'l, tanasi yumshoq vasovukroq bo'ladi. Bunday odamlarning tug'ma mizoji bilan bayotdagi xulqiy mizoji va ruhiy holatlarini birga olib qaraganda, og'ir-bosiq, beg'am, uncha ta'sirlanmaydigan ko'rindi. Ya'ni sirtqi ta'sirga nihoyatda sekin beriladi, qaytishlari ham nihoyatda sekin bo'ladi. Jismonan va aklan quruq-sovuq mizojli kishilarga qaraganda ojizroq bo'ladi. Bunday mizojdagi kishilarga, odatda, ho'l-sovuq, (masalan, suyuq, xamir ovqat, ho'l meva-chevalar) taomlar mos keladi. Bunday mizojli odamlar, odatda, sovuklik ta'sirida paydo bo'ladigan bo'g'im og'riqdari (mafasil), falaj kasalliklariga tez chalinadilar, ammo davolanishlari oson kechadi.

4. Quruq-sovuq mizojli odamlarning eti qattiq, sovuq va oriq bo'ladi. Teri osti yog' qatlamlari unchalik taraqqiy etmagan, kam uyqu bo'lishadi, savdoysi mizojli kishilar kuchli, sekin ta'sirlanuvchi, hayolparast ekanliklari kuzatiladi. Hissiyotlari kuchli bo'lgandan amaliyotdan yiroq fikrlarga beriladilar. Akl-farosatli, to'g'ri fikr qilish iqtidori tubanroq, salbiy fikrlashga hamda ruhiy azob chekishga moyilroqdir. Odamovi bo'lganliklaridan ruhiy kasalliklar va asab buzilishi oqi-batida yurak xastaliklari bilan ko'proq og'riyadilar. Savdoysi mizojli odamlarning o'zgachaligi shundaki, qon, balg'am, safro xiltlarining g'ayri tabiiy o'zgarishlari natijasida davolanishlari juda sekin kechadi. Chunki savdo xiltini pishirib (etiltirib), tanadan surib chiqarish uchun ko'p kuch sarf qilishga to'g'ri keladi.

- 1) axborotni qiyinchilik bilan-o'zlashtiradi, lekin yaxshi eslab qoladi.
- 2) hayotda bosiq, vazmin, arzimas narsalarga jaxli chiqmaydi.

**Yaxshi ko'radian ovqatlari, yil fasllari, ko'proq uchraydigan kasalliklari**

I. Sovuq mizoj.

- 1) issiq, yog'li ovqatlarni yaxshi ko'radi, ko'p ovqat yeyishni

yoqtiradi.

2) sovuq kunlarni yoqtirmaydi, qishda terisi quruq bo'ladi.

3) terisi quruq, ozg'inlikka moyil, bo'g'imlarida og'riq sezadi ichi qotadi.

II. O'rta mizoj.

1) sovuqroq ovqatlarni yoqtiradi, ovqatni kamroq yeydi.

2) issiqni yomon ko'radi, yozda ko'p charchaydi.

3) tana harorati tez ko'tariladi, shamollahsga moyil, ko'p zarda bo'ladi, me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligiga moyil, serjaxl, besaranjom bo'ladi.

III. Issiq mizoj.

1) quruq, issiq, yog'siz ovqatlarni yoqtiradi, ovqatni kam yeydi.

2) yomg'irli kunlarni yoqtirmaydi.

3) tanasida sovuq sezadi, semirishga toqati yo'q, g'amginlikka moyil, tez-tez tumov bo'lib turadi, balg'am ko'chadi.

#### **Yuqoridagi belgilarni baholash**

0 ball - sizda umuman yo'q,

1 ball - sizda bir oz bor,

2 ball - sizda sezilarli darajada bor,

3 ball - sizda o'rtacha darajada bor,

4 ball - sizda yaxshigina seziladi,

5 ball - sizda yuqori darajada seziladi.

Endi yuqoridagi belgilarni to'g'risiga 5 balli baholarni qo'shib chiqing. Har bir mizoj uchun qancha ball to'planganini hisoblaymiz. Masalan: Vata 45 ball, Pitta 33 ball, Kapxa 27 ball to'pladi.

Agar Vata 45 ball to'plagan bo'lsa siz "sovuq" mizojsiz (oradagi farq 10 balldan ko'p bo'lishi kerak).

Agar oradagi farq 10 balldan kam bo'lib, ikki xil mizoj bir-biriga yaqin kelsa, masalan: Vata 37, Pitta 30, Kapxa .15. Vata va Pitta orasidagi farq 7 ball, demak, Siz Vata-Pitta-siz (ya'ni o'ta sovuqchan emassiz).

Agar Kapxa boshqa mizojlardan 10 ball farqi bilan ko'p ball tuplasa, "issiq" mizoj bo'ladi.

Shuningdek, boshqa mizojlardan 10 balldan ozroq bal farqi bilan ko'proq ball to'plab "ozroq issiqchan" mizojlari bo'lish mumkin va hokazo.

Agar uchala mizoj deyarli bir xil ball to'plasa, u holda o'sha kishi juda me'yoralashgan mizojlari soxibi bo'ladi.

Hayotda bir xil mizojlari (Vata, Pitta yoki Kapxa) kishilar kam, ko'pchilik "aralash" mizojlari bo'ladi, ya'ni Vata-Pitta, yoki Pitta-Kapxa.

Bir xil darajadagi, yani 50% Vata, 50% Pittalar yana ham kam. Odatda, vataligi ko'proq yoki kamroq, yoki pittaligi ko'proq yoki kamroq ko'rinishda bo'ladi. Shuningdek, qolgan mizojlari ham yuqoridagidek bo'ladi. Har uchala mizojlari bir xilda uyg'un kishilar juda kam bo'ladi. Agar uchala mizojlari uyg'un holda uchrasa, odatda, bunday kishilarni har jihatdan yuksak kamolatga erishgan deyish mumkin.

#### **Ovqatlanish orqali mizojlarni boshqarish**

Ma'lumki, mizojslar har xil sabablarga ko'ra, o'zgarib turishi mumkin yoki mizojs xususiyatlari kuchayib ketishi, yoki susayib (kamayib) ketishi mumkin. Bunday holatlarda ovqatlarни o'zgartirib, mizojslarni tartibga solish mumkin. Masalan: sovuq mizojs oshsa, uni me'yorlash uchun:

1. Umumiy ko'rsatmalar: issiq, yog'li ovqatlar yoki tuzlangan ovqatlar, achchiq ovqatlar yoki shirinliklar iste'mol qilib me'yorashtirish mumkin.

2. Yormalar: asosan guruchli bug'doy, undirilgan bug'doy.

3. Sut mahsulotlari: barchasi.

4. Shirinliklar: qand, asal va tabiiy shirinliklar, mevalarning barchasi, qovun, tarvuz, yong'oqlar, piyoz, sarimsoq, qalampir, murch, kordamon, xantal.

5. Go'sht: o'rdak, g'oz go'shti, tovuq yoki ot go'shtlari, baliq, tuxum, dengiz mahsulotlari.

6. Poliz: qizilcha, sabzi, sarsabil, yangi kartoshka, bodring, piyoz, momaqaymoq, gazanda o'ti.

7. Ko'katlar: ko'k miya bargi, na'matak, malina.

8. Yog'lar: o'simlik moylari.

9. Sho'rva: yog'li atala, sho'rva.

Sovug'i oshgan kishida kunning ikkinchi yarmida tanada energiya almashinuvni susayishi hisobiga "quvvatlari" kamayib, darmonsizlanib qoladi. Shunda ko'k miya bargi qaynatmasini ichish yaxshi naf beradi.

**Sovuqlik kamaysa** oshirish uchun: yengil parhez yoki qisqa muddatli ochlik. Quruq ovqatlar, sovuq ovqatlar, achchiq ovqatlar iste'mol qilinadi.

1. Yormalar: arpa, makkajo'xori, grechixa, suli.

2. Sut mahsulotlari, shirinliklar iste'mol qilinmaydi.

3. Quruq mevalar, olma, anor, nok.

Xiltlar hayot jarayonida uzlusiz ishtirok etadi va qayta-qayta yangilanib, o'z uyg'unligini saklab turadi. Xiltlarning Miqdori va sifati bir me'yorda turishi inson salomatligi-ning muhim shartlaridan. Bu me'yor buzilsa, har xil kasalliklar kelib chiqadi.

To'rtta katta unsur (olov, havo, suv, tuproq) va asosiy omillarning ta'siri kasallik paydo bo'lishining tashqi sabablariga kiradi. Xiltlar ichki va tashqi sabablar ta'sirida o'zgaradi. Ayniqsa, ichki, tashqi sabablar tananing ichki omiliga me'yоридан ortiq ta'sir ko'rsatgan lahzadan boshlab xiltlar o'zgara boshlaydi.

Odamdag'i to'rtta katta unsur ta'sir o'tkaza oladi. Oziklar tarkibida to'rt unsurning ta'siri hech qachon bir xil nisbatda bo'lmaydi. Har bir oziq ma'lum bir unsurning ta'sir kuchi boshqa unsurlarga qaraganda ortiqroq bo'lishi mumkin. Shu sababli iste'mol qilinadigan ovqatning tarkibida qaysi unsurning ta'siri ustunlik qilsa, shu unsur xususiyatiga mos xilt paydo bo'ladi. Xiltning tabiatini ham shu unsurning tabiatiga to'g'ri keladi.

Xiltlar bir-biriga o'xshamagan suyuq jismlar bo'lsa ham, doimo bir-biriga evrilib, bir-birini to'ldirgancha tanada to'xtovsiz harakat qiladi.

Xiltlarning tengligi nisbiy, kay-fiyati (tabiatdagi ziddiyat) mutlaq bo'ladi.

Xiltlar uyg'unligida o'zgarish ro'y bersa, mizoj ham o'zgarib, yangi sharoitga moslashgan in'ikos paydo bo'ladi. Bu kasallik alomatlarini bildiradi. Ana shu holat uyg'unlikni as-liga keltirish jarayoni hisoblanadi.

Tana g'alaba qilib, xiltlar uyg'unligi asliga kelsa, kasallik avj ololmaydi. Aksincha bo'lganda esa tengsizlik rivoj topib, tana kasallikka chalindadi.

### Tabiiy xiltlar

Jigarda ishlanib, asl tabiiy holati o'zgarmagan, odamning hayotiga quvvat bag'ishlaydigan va tabiatiga mos keladigan xilt tabiiy xilt, deb ataladi. Tabiiy xilt to'rt xil bo'ladi.

1. Safro xilti sargish rangli, nihoyatda achchiq, o'tkir suyuklik bo'lib, tabiatni quruq-issiq. Jigarda ishlanadi, o't xaltasiga tushib, suyuklanadi. Safro ovqatni hazm qildiradi, o't yo'llari orqali ichakka tushib, yog'larni parchalaydi. Ichakni ta'sirlab, qo'zg'alish harakatini tezlatib, hazmdan ortgan chiqindilarning tanadan chiqarib tashlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, bir qism zaharli unsurlarni to'sib, parchalaydi va ta'sirini qaytaradi. Safroning qon tarkibiga o'tgan qismi issiq va o'tkirligi bilan qon, balg'am, safro unsurlarini uzlusiz harakatga keltirib, ularni ivib qolishdan saqlaydi hamda ruxiy va jismoniy quvvatga jo'shqinlik bag'ishlaydi.

Safro xiltining xususiyati va tabiatni o'tning xususiyati va tabiatiga o'xshagini uchun tanadagi vakili sifatida ta'riflanadi.

Safro xilti ustun kelgan kishilarning mizozi quruq-issiq bo'lib, ko'pincha ruxiy holati tetik, jahldor, vazni yengil, oriq, ko'z oqi va tili sarg'ish, kam uyqu bo'ladi. Tomiri ingichka bo'lib, tez-tez uradi. Peshob rangi sariqqa moyil. Bu toifa kishilarni, odatda, "safro mizozi", deb atashadi.

2. Qon xilti eng yaxshisi, asosiy unsuri hisoblanadi.

Bu xiltining rangi och qizil, ta'mi (mazasi) shirin, mizozi ho'l-issiq. Asosiy o'rni iliq va jigarda, tabiatni "havo" tabiatiga o'xshash. Shu sababli, havoning tanadagi vakili sifatida ta'riflanadi. Qon yurakning tinmay ishlab turishini ta'minlaydi. Shuningdek, qon tomirlarning kengayib-torayib turishi natijasida butun tana bo'y lab davriy aylanish bilan banddir. Qon xiltining tanadagi xizmati g'oyat kattadir.

U hazm qilib, shimilgan ovqatni tananing hamma joyiga, hatto, qil tomirlargacha olib boradi. Sarf bo'lgan oziq o'mnini to'ldiradi. O'pkadan o'zi bilan olib yurgan sof havo (havoiy nasimi)ni butun tanaga yetkazib, tana ehtiyojini qondiradi, ayni vaqtida, tananing hayot faoliyatini jarayonida ajralgan ke-raksiz modda va buzuq havoni olib ketib, buyrak hamda teri orqali tana sirtiga chiqaradi.

Qon o'zining xo'l-issiqligi bilan tanani isitib, quvvat baxsh etadi. Tana haroratini bir zaytda tutib turadi. Terini silliqqlashtirib, rang beradi.

Qon xilti ustun bo'lgan kishilarning tabiiy mizozi ho'l-issiq bo'ladi. Rang-ro'yti chiroyli, xushro'y, o'zi quvvatli, oriq-semizligi mo'tadil,

uyqusi yaxshi bo'ladi, tomirlarida qon to'lqinsimon harakat qiladi. Bunday odamlarning peshobi qizg'ish bo'ladi, ular aksari sog'lom bo'ladir.

3. Balg'am xilti tanaga kirgan oziqlar va ho'lliklardan paydo bo'lgan hamda tamadagi har bir a'zo to'qimalarining eng kichik birliklari orasidagi bo'shliliklarda saklanib turadigan oqsil sifat suyuklik.

Balg'am xiltining tabiatи xo'l-sovuq bo'lib, xo'lligi va tarkibidagi oziq moddalar bilan butun tanaga oziqa bo'lishidan tashqari, safroga o'xshash o'tkir issiq moddalarni boshqa xiltlarning ortiqcha issiqligi bilan parchalab, buzilishdan saqlaydi va g'ayri tabiiy o'zgarishlar kelib chiqishining oldini oladi. Savdoga o'xshash cho'kma hosil qiluvchi xiltlarning to'xtovsiz yurishib, tananing zarur joylarigacha borib, o'rin olishi uchun vositachilik qiladi.

4. Qon tarkibidagi boshqa holatlar (safro, savdo, balkam) ko'payib ketishi natijasidagi qon tarkibidagi yog', mineral tuzlar ortib ketib, me'yoriy holatidan o'zgaradi. Natijada, qon tomirlarning o'tkazuvchanligi buziladi, yurak, miya va boshqa a'zolardagi qon tomirlarning kengayishi va qisqarishi yo'qoladi. Binobarin qon g'olibili (yuqoriligi) kasali, hatto muhim a'zolarga qon quyilishiga o'xshash asoratlari kasallik kelib chiqadi.

Qon tarkibida balg'amli moddalar bilan savdoli moddalar ko'payib, muhim oziq moddalar kamayib ketsa, tanada, badanda suvli nish paydo bo'ladi. Krn tarkibidagi balg'am, safro, savdodan tarkib topgan moddalar o'zarो ta'sir qilib, qonning qiyomi quyuqlashib, ta'mi o'tkirlashsa, kuygan qon (doim muxtarika) yoki buzilgan qon (xalq orasida "qo'rroq" deb ataladi) hosil bo'ladi. Bunday aksari yuqori haroratli, ufunatli yuqumli kasalliklar paydo bo'ladi.

### **5.G'Ayritabiiy Balg'Am**

Balg'am xnltining asli qonga aylanishidan maxrum bo'lgan va qonga aylanish xususiyatini yo'qotgan, yetilmagan qismi g'ayritabiiy balg'am, deyiladi.

G'ayritabiiy balg'amning ko'payishi turli kasalliklarga sabab bo'ladi. Masalan, qonning to'liqishiga qarshilik qilib, kamqonlikka olib boradi. Xavfli shishlarni, teri kasalliklarini paydo qiladi, miyani ortiqcha ho'llagandan odam esi past, parishonxotir, uyquchan va ishyoqmas bo'lib qoladi.

#### **G'ayritabiiy balg'am besh xil bo'ladi**

1. **Balg'ami shirin.** Balg'amiy moddalarga qon aralashib, ta'mi shirin bo'ladi.

2. **Balg'ami sho'r.** Balg'am xilti tarkibiga tuz ta'mi kirib, buzilgan savdoning aralashishi. Bunday balg'amning rangi oq, mizoji quruq-issiqliq moyil bo'ladi va ko'pincha teri kásalliklarini paydo qiladi.

3. **Chuchmal balg'am (balgami tursh)** past haroratdagи aralashgan balg'am chuchmal balg'am, deb ataladi. Ta'mi chuchmal, tabiatи quruq-sovuqqa moyil bo'ladi. Sababi to'rt xil: Birinchi - achchiq savdo balg'amli modsaga aralashib ketguncha rangi o'zgarmaydi, ta'mi o'zgarib, chuchmal bo'lib qoladi. Ikkinci - qo'shilgan harorat (harorati gariba) me'yordagi

haroratdan oshib, aslidagi issiqlik o'z kuchida qolganidan chuchmal bo'lib qoladi. Masalan, yoz kunlari sutning achib qolganiga o'xshash. Uchinchi - shirin balg'am ustidan sovuqlik g'alaba qilib, uning asli harorati yo'qolganligidan chuchmallashib qoladi. Masalan, qish vaqtida siqib tayyorlangan dorilarning chuchmallashib qolishiga o'xshash. To'rtinch - tabiiy harorat (harorati gariziya), ojiz bo'lganidan, ta'msiz balkam yaxshi pishmay, chuchmal bo'lib qoladi.

**4. Kerik balg'am.** Balg'am javharida savdo javhari ko'payganidan, balg'amiy moddalar quyuqlashib, ta'mi keriklashib, maza ta'miga kirib qolgan balg'am kerik balg'am, deyiladi. Paydo bo'lish sababi 2 xil:

- 1) balg'amga yopishmagan savdo xilti aralashgani;
- 2) qattiq sovuqshk ta'sirida balramning suv qismi ivigani tabiat quruq-sovuqqa moyil bo'ladi.

**5. Ta'msiz balg'am.** Balg'am muddasining suvli javhari kuchi ortib ketganidan balg'am ta'msiz bo'lib qoladi. Bu balkam xilting qolgan eng xom qismi bo'lib, qonga o'zgarish salohiyati bo'lmaydi. Sababi - balg'am boshqa xiltlarning aralashmaganligidandir.

#### **Soch to'kilishi va erta oqarishi**

Odatda, odamning boshida taxminan yuz mingdan to bir yuz qirq minggacha soch tolasi bo'ladi, kuniga qirqtacha soch tolasi to'kilib, qaytadan o'sadi. Odam qirq yoshdan oshgandan keyin tananing tadrijiy chekinish holati bilan birga bosh terisi va tuklarida ham o'zgarishlar ro'y berib, soch to'kila hamda oqara boshlaydi. Bu tabiiy hol. Ba'zi kishilarda bu hodisa yoshligidanoq paydo bo'lishi mumkin. Sochning to'kilishi va oqarishi sabablari juda ko'p, tabiblarimiz bunga asosan sabab qilib ko'rsatadilar: xiltlar o'zgarishi sirtqi va ichki omillar.

Xiltlarning g'ayritabiyy o'zgarishi oqibatida soch to'kilishi asosan badandagi balg'am, safro yoki savdo xilting g'olibligi tufayli ro'y beradi.

**Balg'am xilti (ho'l-sovuq)ning g'olibligida** tanada harorat pasayib, bosh terisi va tuk xaltalari bo'shashadi. Sochlarni tutib turish quvvati ojizlashib, soch to'kiladi. Bunday paytlarda g'olib balg'amni tanadan chiqarib tashlash uchun quyidagi dorilarni qo'llash kerak.

**Asosiy ma'jun tarkibi:** kosin ildizi, bodyon ildizi, chuchukmiya ildizi, bodyon mevasi, gulqand, Abu Jaxl tarvuzining ildizi, yantoq, nimrang, badrinjbuyadan iborat. Bu ma'jundan kunda ikki mahal, ovqatdan oldin 50 grammdan tanavvul qilinadi.

Xalq tabobatida xabbi to'tiyoni muvofiq ravishda iste'mol Qilish buyuriladi. Ta'siri yaxshi bo'lishi uchun "atrofili hayot", "atrofili kabira" va "ma'juni sum" beriladi.

Xalilai kobuli, xalilai zard, omila, ituzum, shoxtarra, Ustuxurdus, bisfaynochi hindi, balila kabi zirotlar bilan bosh yuviladi. Boshga sedana yog'i surtish ham yaxshi. Quvvati Yuqori va badanda harorat paydo qiladigan, yengil hazm bo'ladigan ovqatlardan yeish tavsiya qilinadi. Sekin hazm bo'ladigan va ho'lllik paydo qiladigan ovqatlar ma'qul emas.

**Badanda safro xilti g'olib kelganda** quruq-issiq ta'sirida butun badan va bosh terisida quruklashish va qazg'og'lanishga o'xshash alomatlar paydo bo'ladi. Natijada, soch xaltalariga ho'llik yetishmasdan, teri osti yoki to'qimalari qati, soch teshikchalarini yopilib qoladi. Binobarin, bosh terisidagi modda almashinish jarayoni buzilib, sochlari to'kiladi.

Qo'llaniladigan amal: avvalo, badandagi ortiqcha safroni chiqarib tashlash kerak, buning uchun matbux beriladi. **Matbux tarkibi:** xalilai zard, tomiri hindi, aynulla, zarpiston, binafsha, astimun urug'i, kosin, iluzum yaprog'i, ziyorli shambar, taranjsin.

Ishlatish miqdori: kuniga ikki mahal 75 grammidan tanavul qilinadi. So'ngra safroni suruvchi matbuz beriladi.

**Mathuz tarkibi:** xalilai zard, xalilai siyoh, urug'siz uzum, shoxtarra, turbut, xiyorli shambar. Yuqoridagi mulojalalardan keyin davomli iste'mol uchun atrofili astimun va omila kabi nushdorilar beriladi. Inlifar, oq layli urug'i qaynatmalarini bilan bosh yuviladi. Boshga nilufar, binafsha, bodom gul yog'lariga o'xshash ho'llik yetkazuvchi dorilar surtiladi. Badandagi haroratni pasaytirib, ho'llik yetkazadigan terilarni yumshatadigan oziq-ovqat, meva va ko'katlarni ko'proq iste'mol qilish, badanda harorat paydo qiladigan, quruqlik yetkazadigan ovqatlarni iste'mol qilmaslik buyuriladi.

**Badanda g'ayritabiyy savdo xilti g'olib bo'lganda** bosh terisi va teri osti mayda tomirlarida dimlanib qoladi. Natijada, sochning oziklanishi buzilib, to'kiladi. "Doil sulab" (doirasimon soch tushishi) ham ko'pincha g'ayri tabiiy savdodan bo'ladi.

Qo'llanilgan amal: badandagi savdoni surib chiqarish maqsadida uch hafta davomida quyidagi tarkibli matbuxni beriladi.

**Matbux tarkibi:** astimun xalilai kobili, ustuxurdus, shox-tarra, hispoynoj, sano, qizil gul, gorikun sobir. Qoida bo'yicha tayyorlangan matbuxni har kuni 3 mahal 50 grammidan ichiladi. So'ngra g'ayritabiyy savdoni surib chiqarish uchun iyoraji lug'oziya, iyoraji paykara, xabbi iyoraj, xabbi kukiyo kabi dorilardan birortasi beriladi. Davomli iste'mol qilish uchun atrofili astimun, atrofili sagira, chilonjiyda sharbat, xabbi shox tarra, xabbi shabbar qatoridagi dorilardan muvofiq ravishda beriladi. Shirdan bug'doy kepagi qaynatilgan suvda va sarimsoq suvida bosh yuviladi. Boshga tuxum yog'i, zaytun yoki uma yog'i surtiladi. Quvvatli, yengil hazm bo'ladi, badanda harorat paydo qilib, hujayralar ishini yaxshilaydigan oziq-ovqatlar iste'mol qilish buyuriladi.

**Sirtqi omillar ta'sirida soch to'kilishi.** Sochning tozaligiga rioxal qilmaslik va sochni qattiq tarash tufayli bosh terisida modda almashinuvni buzilib, soch to'kila boshlaydi. Sochni tez-tez va kuchli ishqoriy sovun, shampunlar bilan yuvish yaxshi emas, chunki sovun va shampun bosh terisidagi oqsil, yog'larni yuvib yuborib, soch xaltalarini ishini buzadi va quritib yuboradi.

Imkon qadar tabiiy vositalardan foydalanish, kimyoviy bo'yoq va soch yog'larini ishlatmaslik, ishlatish zarur bo'lganda kosmetolog-vrach bilan maslahatlashish lozim.

**Ruhiy omillar va kasalliklar oqibatida soch to'kilishi.** Qattiq charchash, ruhiy izzirob, ko'p g'am-anduh chekish tabiiy quvvatni ojizlashtirib, bosh terisiga zarar qiladi. Soch to'kilishining oldini olish uchun aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni muvofiqlashtirish, chiniqish, vaqtida dam olish lozim.

Yurak va taloq zaifligi, kamqonlik, sil kasalligi va homiladorlikda ham soch to'kilishi mumkin.

**Sochning barvaqt oqarishi.** Yoshlikda sochning barvaqt oqarishi qon xiltiga bog'liq bo'lib, bunga qon shirasi quyukligi va haroratining o'zgarishi sabab bo'ladi. Bu xil o'zgarish asosan qonga tabiiy xiltlar ta'sirida yuzaga keladi. Soch oqarishini to'xtatish maqsadida g'ayritabiyy safroni surib chiqarish uchun: kishmish, aynullo, kosin urug'i, binafsha, chilonjiydadidan dori tayyorlanadi. Tayyorlangan kashkobni bir kunda tugatish lozim. So'ngra safro xiltini badandan tozalash uchun matbux beriladi.

#### A'zolar Ta'limoti

O'zbek tabobatchiligi fiziologiyasi hozirgi zamon tibbiyoti (Evropa tibbiyoti) fiziologiyasiga o'xshamaydigan belgilarga ega. Unda odam tanasidagi har qaysi a'zoning faoliyatini va tutgan o'rnnini ta'riflash ham o'ziga xos.

O'zbek tabobati ilmida inson badanidagi a'zolar boshqaruvchi (rais) va boshqariluvchi (ma'rusa, tobe) a'zolarga bo'linadi.

#### I Boshqaruvchi A'zolar

Ruxiy va holatiy quvvatlarni saklaydigan o'rinnlar bo'libgina qolmasdan, ularning boshlanish mansabi hamdir. O' har bir odamning tirikligi va nasli (nav'iy)ni saqlab qolish hamda akliy, jismoniy faoliyatlarini boshqarishda muhim rol o'yaydi, shuningdek, hidim a'zolar vositasida butun organizmdagi hayotiy faoliatlarni rostlab, to'la ta'minlab tananing butunligini saklaydi.

I Miya. Miya tafakkuri, sezgi va jismoniy harakat, ya'ni RUHiy nafsoniyning markazi bo'lib, uming issiq va sovuq tilari tug'ma to'liq bo'lsada, harakat sezgilari nisbiy ri-vojlangan bo'ladi. Aqliy tafakkur va ruhiy holatlар jamiyatdagи muhit ta'siri bolalik davridan boshlab rivojlanadi. Miya, odatda, ruhiy tabiiy bilan oziklanib, o'zining tegishli vazifasini ado qilsada, ruhi hayvoniyning xizmati to'xtashi bilan o'z harakatidan mahrum bo'ladi. Miya, bosh miya, oraliq miya, uzunchoq miya va orqa miyalarga bo'linadi.

Bosh miyaning po'st qismi boshqaruvchi (rais) o'rnda turib, miya faolyyatining hamma o'rinnarini boshqaradi. Miyaning boshqa bo'limlari bo'ysunuvchi a'zo (ma'rusa) sifatida xizmat qiladi. Miyaning boshqa bo'limlari ichki va tashqi muhitning son-sanoqsiz xabarlarini bosh miyaning po'st qismiga yetkazish va bosh miya po'st qismi topshirig'ini gavdaning eng ingichka qismlarigacha yetkazish xizmatini o'taydi. Shuning uchun ular boshqariluvchi (tobe) a'zo, deyiladi.

Miyaning tafakkur, sezgi harakat (quvvai nafsoniya)ning markazi

ekani quyidagilardan ma'lum bo'ladi.

Bosh miya harakat markazining o'ng tarafiga qon quyilsa, yoki shikastlansa, tananing chap taraf, agar chap tarafga qon tushsa yoki shikastlansa, tananing o'ng taraf harakatdan qoladi va sezgi yo'qoladi.

Miyada ikkilamchi asoratlar qoldiradigan (masalan, miya siliga o'xhash) kasalliklar ro'y berib, asorat qolsa, garchi unda issiq va sovuq sezish saklanib qolsada, tafakkur sustlashadi yoki batamom buziladi.

Umuman miya, tafakkur, sezgi va harakat markazi bo'lib, har qaysi bo'limlariga aloqador faoliyati to'g'risida keyingi quvvatlar qismida alohida so'z yuritiladi.

**2. Yurak.** Yurak tiriklik (ruxi hayvoni)ning boshlanish manbai bo'lib, bolaning ona qornida rivojlanishidan avvalroq rivojlanadi. Yurak ishi hamma jarayonlardan oldin boshlanadi va kengayib hamda torayib harakat qiladi.

Odam umrining oxirigacha yurak ishlashdan to'xtamaydi. Yurakning to'xtatishi tiriklikning to'xtaganligidan darak beradi. Yurak butun faoliyati davomida hayot uchun kerak bo'lgan asosiy muddalar va sof havo (havoi nasimiy)ni qon tomirlar orqali butun gavdaga yuborib, bug'langan havo (havoi duxoni) tutgan qonni o'pkaga yuboradi va uni tozalab turadi.

Yurakning boshqa rais a'zolarga o'xshamaydigani shundaki, u tanadagi har qanday a'zoga bo'yusunmagan holda o'zicha mustaqil harakat ishlashdan tashqari, shodlik va qayg'u hislarini quvvatini o'zida saklaydi. Shu sababli, yurak rais a'zo hisoblanadi.

**3. Jigar.** Inson hayotidagi moddiy quvvat (ruhi tabiiy)ning markaziy o'mi bo'lib, eski bilan yangining almashish jarayoni orqali qon, balg'am, safro, savdo xiltlarini son va sisfatga loyiq qilib ishlab chiqaradi. Ularni tananing har qaysi sohalariga va tegishli joylarga yurak yordami yuborib, butun tanani oziqlantiradi va o'strradi. Hazm yo'llaridan kelgan hayot uchun xavf soladigan zaharli narsalarni parchalab, zaharsizlantirib, kuchli himoya qiladi. Shu sababli, jigar rais a'zo deyilsada, erkaklarning moyagi va ayollarning tuxumdonini nasl saklab qolishda moddiy asos bo'lganidan garchi rais a'zo bo'sada, ammo ular boshqarilmaydigan va boshqarmaydigan a'zo ekanliklari sababli rais a'zo xisoblanmaydi.

## II BOSHQARILUVCHI A'ZOLAR

Bular o'zining xizmat tabiatini va joylanishiga qarab, xodimiy a'zo va g'ayrixodimiy a'zolardan iborat ikki turga bo'linadi.

**Xodimiy (ma'rusa) a'zolar.** Rais a'zolarning boshqaruvi boshqa a'zolarga muhim ta'sir ko'rsatadigan boshqa xodimiy a'zolarni vosita qilib, o'z xizmatini davom ettiradigan a'zo, xodimiy a'zo, deb ataladi.

**1. Jigar** garchi rais a'zo hisoblansa, biroq hayotiy zarur oziqa va sunni me'da ichaklar, chung charvi tomirlari (tomir masariqa) orqali qabul qiladi. O'zi ishlab chiqargan qon, balg'am, safro, savdo xiltlarini yurak yordamida tananing tegishli joyiga yuborib, butun tanani oziq bilan ta'minlaydi. Yurakdan tiriklik quvvatini qabul qiladi. Shu sababli, jigar

ham rais, ham xodimiy a'zo hisoblanadi.

**2. Yurak** mustaqil ishlaydi, mustaqil a'zo bo'lishidan tashqari, shiryon tomirlar orqali butun tanani oziklantiradi. Eski bilan yangini almashtiradi. Keraksiz moddalarni varit (vena) tomirlari orqali olib, yana o'pkaga yuborib, o'pkani ham ishga soladi. Shuning uchun rais a'zo deb hisoblansada, bosh miya hukmini qabul qilgani uchun, nisbiy mustaqillikka ega a'zo hisoblanadi va xodimiy a'zo hisoblanadi.

**3. O'pka** odam hayotini ta'minlaydigan muhim a'zo. U o'ziga qon olib keluvchi va yurakka qon olib boruvchi tomirlar vositasida qonda havoni almashtirib, tozalaydi. O'pka bu xil aloxidaligi bilan rais a'zolar qatorida tursada, lekin yurakning xizmatiga daxldor boshqariluvchi a'zo va xodimiy a'zo hisoblanadi.

**4. Asab** miyaning butun tanaga tarqatgan asab shoxchalari orqali ichki va tashqi a'zolarni nazorat qiladi. Miya uchun xizmat qiladigan asab shoxchalari miyaning xodimiy a'zolari hisoblanadi.

**5. Buyrak** hayot uchun keraksiz, chiqitlarni peshob xaltasi (qovuq) orqali sirtga chiqaradigan a'zo bo'lganidan rais a'zo, hisoblansada, yurakdan keladigan rux^iy quvvatdan oziqlanib, boshqariluvchi (xodimiy) a'zo hisoblanadi.

**6. Me'da va ichaklar** iste'mol qilingan ovqatlarni parchalab va pishiklab, tananing qabul qilishiga moslab, jigar Uchun xizmat qilganidan xodimiy a'zo hisoblanadi.

**7. O't xaltasi** zaxarli o'tni saqlab, jigarga xizmat qiladi.

Lozim bo'lganda o't suyuqligini ichakka o'tkazib, yemakliklarning hazm bo'lishiga yordamlashadi. Shu sababli, o't xaltasi ham xodimiy a'zo xisoblanadi.

**8. Taloq** savdoning o'rni, qon oqimidagi savdo xiltini rostlaydi. Qonning tomirlardan sirtga sizib chiqib ketmasligi uchun xizmat qiladi. Taloq o'zidan jigar darvozasiga boradigan varit (vena) tomirlaridan boshqa hech qanday a'zoni vosita qilmaydi. Shuning uchun xodimiy a'zo xisoblanadi.

*G'ayrima'rusa yoki g'ayrixodimiy a'zolar.* Garchi ruhiy hayvoni bilan oziklansada, moxiyat va sifat jihatidan mustaqil a'zo bo'lish layoqati bo'lmagan va boshqa a'zolarni ham boshqara olmaydigan a'zolar g'ayri. xodimiy a'zolar hisoblanadi. Bu a'zolar odam tanasini bir-biriga tutashtirib, shaklan butunligini saqlash bilan birga tiriklikdagи jismoniy harakatlarga vositachilik qiladi. Masalan, suyak, pay, chandir va go'sht kabilar.

#### **Tabiy kuchlar**

Hayotiy zarur oziq o'rnni to'ldirish maqsadida inson tanasidagi hayvoni va nafsoniy ruh orqali har qaysi a'zolardan, chunonchi, miya, yurak, jigaridan ishlanib chiqqan tiriklik va jismoniy kuchga asos soluvchi quvvat - tabiiy kuchlar, ya'ni quvvati tabiiydir. Tabiiy kuchlar xizmat qiluvchi va kdildiruvchi quvvatlar bo'lib, moxiyatiga ko'ra hayot turalmasining shakllanishidan boshlab, ma'lum bir hayot davrini boshdan kechirib, hayotning oxirigacha bo'lgan oraliqsagi murakkab umumiy

jarayonda, odamlarning tabiiy mizojlari va uning sifatli farqini shakllantirish uchun zarur bo'lgan safro, qon, balg'am, savdo xiltlariga mansub borliq quvvatlarni, jumladan, oziklarni odam tanasining hamma joyiga qadar yetkazib, sarf qilingan oziklar o'rnini to'ddirib turadi. Tabiiy kuchlar yetishmasa, sezgi harakat kuchlari (quvvayi nafsoniya)ning ishi buziladi. Shunga yarasha boshqa rais yoki xodi-miy a'zolar ishida ham umumiyl o'zgarishlar ro'y beradi. Va xillar munosibligi buzilib, butun badanda oziqa yetishmasligi, yurak va asab ojizligiga aloqador umumiy badan ojizligi kelib chiqadi. Odamdag'i tabiiy quvvat kuchlarning o'zini ham oziqlantirganidan tiriklik, ya'ni bir butun gavda mavjud. Tabiiy kuchning markazi kuchda bo'ladi. Tabiiy quvvat avvalgi (birlamchi), keyingi (ikkilamchi) kuch deb, so'ngra ikki jinsga bo'linadi: Birlamchi tabiiy kuch - erkaklardagi moyak, ayollardagi tuxumdonning tabiiy kuchiga qaratilgan, bular odam badanidagi hech qanday rais va xodimiy a'zolarga aralashmay, o'zidan urug' va tuxum ajratib, ularni birlashtirib, nasl qoldirib, insonning asli tabiiy mizojini saqlanib qolishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkilamchi tabiiy kuch - bola tug'ilmasdan oldin turalmacha quvvayi tabiiy bilan oziqa moddalar, bola hamroyi va kindik bog'i vositasida ta'sir o'tkaza boshlagan ruhiy quvvat markazi - yurak orqali yetkaziladi. Chaqaloq quvvayi tabiiy bilan oziqlanib, o'sib, rivojlanadi. Bu kuch irlsiy, deb ataladi. Jigarni markaz qilgan tabiiy kuchlar inson gavdasini oziqlantirish, o'stirish, kamolotga yetkazish mas'uliyatini olib, to'rt xilga bo'linadi:

1. Oziqlantiruvchi kuchlar (quvvai g'oziya).
2. O'stiruvechi kuch (quvvayi nomiya).
3. Paydo qiluvchi kuch (quvvayi muvallida).
4. Shakllantiruvchi kuch (quvvayi musavvira).

**1. Oziqlantiruvechi kuchlar.** Har qaysi oziqaga tegishli oziqlarni tananing eng ingichka qismlariga yetkazib, uni tananing tarkibiy qismlariga aylantirishda tashqi tananing hayotiy faoliyati sarflaydigan borliq ozuqa moddalar o'rnini to'ldiradi. Hayot uchun keraksiz chiqitlarni har qaysi a'zodagi haydab chiqaruvchi kuchlar sirtta chiqaradi. Oziklantiruvchi kuchlar xizmat koldiruvchi quvvat bo'lib, tegishli vazifani ado qilishda quyidagi to'rt xil kuchga tayanadi:

1. Tortuvchi kuchlar (quvvayi joziba) oziq moddalarining tegishli joylarga yetib borishi uchun ma'lum o'rnlarni so'rib, tortib qabul qilishiga muhtoj bo'ladi. Shunday kuch bo'lmasa, oziq moddalar tegishli o'rnlarga yetib bora olmaydi. Shuning uchun u tortuvchi kuch, deb ataladi.

2. Tutib turuvchi kuch (quvvayi mosiqa) tana tutgan oziq moddalar tortuvchi kuchning so'rib olish quvvati orqali tananing tegishli joylariga yetib borgandan keyin birikish yoki yozlashishini ta'minlovchi kuch tutib turuvchi kuch, deb ataladi. Bu kuch orqali oqib kelgan oziq moddalar tananing tarkibiga o'tib, oraliqsa boshqa joylarga tarqab ketib, o'zlashtirilmay qolishidan saklaydi.

3. Hazm qiluvchi kuch (quvvayi xazima) oziq moddalarini hazm qilish

yo'llariga kirgandan keyin bug'lanish, ezilish, suyu-lish kabi bir qator o'zgarishlarga uchraydi hamda aralashib, bir-biriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu hazm qilish kuchining ta'sirida amalga oshadi. Bu ta'sir va quvvatlarni ado qilguv-chi quvvat hazm qiluvchi kuch, deb ataladi.

4. Haydab chiqaruvchi kuch (quvvayi dofiya) oziq moddalar tanadagi eng kichik birliklar tarkibiga o'tgandan keyin, keraksiz tashlandiklar turli yo'llar orqali tanadan chiqarib yuboriladi. Agar ular chiqarilmay, to'xtab qolsa, buzilib, ufunat paydo qilib, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Keraksiz tashlandiqlarni tanadan chiqarib tashlaydigan quvvat Haydab chiqaruvchi quvvat, deb ataladi. Oziqlantyruvchi kuchlar uchun xizmat qiladigan quvvatlarning hammasi birlashib, o'stiruvchi kuch (quvvayi nomiya) uchun xizmat qiladi. Shu sababli, oziqlantyruvchi kuch odamning hayotini saklashda asosiy ahamiyatga ega. Oziqlantyruvchi kuchning uch xil mas'uliyati bor:

1. Tarkibida safro, savdo, qon, balg'am xiltlarining qon suyuqpigini son va sifatga loyiq qilib yetishtirib tayyorlaydi.

2. Son va sifat jihatidan tananing tarkibiy qismlariga aylanish salohiyatga ega bo'lgan qon suyukligini har xil a'zo, to'qima eng kichik birliklarga munosib miqdorda singdirib, hosil bo'lgan keraksiz narsalarni tegishli yo'llar bilan tashqariga chiqaradi.

3. Tarkibida safro, qon, balg'am tutgan javhariy moddalarni har xil a'zolarning shakli mizozi rangiga o'xshab o'zlashtiradi. Bu xizmatda o'zgarish bo'lsa, a'zolarning tabiiy sifatida o'zgarishlar kelib chiqadi. Masalan, oq kasalga o'xshash.

2. **O'stiruvchi kuch (quvvayi nomiya).** Odam dunyoga kelgandan keyin a'zolarning uzun-qisqaligi, keng-torligini munosib holda rivojlanishi uchun alohida xizmat qiladigan quvvat o'sti-ruvchi kuch, deb ataladi. Bu quvvatning xizmati oziqiantiruvchi kuch yordamida amalga oshadi. Unga hech qanday kuch muqobil tura olmaydi. Chunki tabiiy o'sib rivojlanib turadigan a'zolarni sun'iy usulda to'sib bo'lmaydi. Masalan, yer ostidan o'sib chiqqan qamish o'zidan necha hissa qattiq va kuchli bo'lgan toshlar ni teshib chiqadi. Bu misol mazkur quvvatning naqadar kuchli ekanligi dalilidir.

3. **Paydo qiluvchi kuch (quvvati muvakkida).** Moyak va tuxum ishlab chiqaradigan hamda birlashgandan keyin, ularda munosib mizozi o'z loyig'ida shakl paydo qiluvchi kuch, deb ataladi. Uning xizmati ikki xil bo'ladi:

Birinchisi - odam va hayvonlarning nasl qoldirib, turi va sifatiga xos navni saklash uchun urug' va tuxum ishlab chiqaradi.

Ikkinchisi - erlik urug'i bilan ayollik tuxumi bachadonda uchrashgandan keyin tarkibidagi quvvatlarning bir-biriga aralashib, ta'sirlanishi turalmaning tabiiy mizozi va har qaysi a'zoning o'z loyig'ida shakllanishi, biriktirilishi uchun xizmat qiladi. Shu sababli, bu quvvat dastlabki o'zgaruvchi quvvat, deb ataladi.

4. **Shakllantyruvchi kuch (quvvati mussavira).**

Anosir arba'larining namoyandalari o'zaro ta'sir qilgandan keyin paydo bo'lgan turalmaning xususiy mizojlaridan sirt, uning o'z asli va sifatiga vakil shaklni beruvchi va uni rivojlantirib, kamolga yetkazuvchi kuch - quvvayi mussavira yoki shakllantiruvchi kuch, deb ataladi. Bu kuch odam va jonzotlarning asli ajdodi shakl-shamoyiliga o'xshaydigan suratda rivojlanishiga asos soladi. Shuningdek, bu kuch dastlabki o'zgartiruvchi quvvatdan keyingi quvvat (quvvai mugayyirai soniya), deb ham ataladi. Shu sabab, dunyodagi odamlarning bir-biriga o'xshamasligi, hatto bir ota-onadan tug'ilgan bolalarning ham boshqa-boshqa qiyofada bo'lishi shakllantiruvchi kuchning ta'siri oqibatidir.

### **III b o b. IGNA SANCHISH VA KUYDIRISH (CHJEN-SZYU) IGNA SANCHISH VA KUYDIRISHNING QISKACHA TARIXI**

Akupunktura (lotincha acus - igna va punctum - sanchish) yoki igna sanchish va kuydirish (chjen-szyu) Xitoy xalq tabobatida keng qo'llaniladi. Bu usulda maxsus po'lat ignalar bilan tananing aniq nuqtalariga, uning anatomik joylashishiga asoslanib igna sanchiladi. Eski Xitoy qonunlariga asosan 695 ta nuqtalar bor. Ignani sanchishda tanaga igna aylamma harakatlar qilib ma'lum chuoqurlikka kiritiladi. Ignani sanchilgan joyda sal achishadi, okirlik, jimirlaydi. Ignani 5 daqiqadan 30 daqiqagacha qo'yiladi. Ba'zan igna bilan davolash maxsus shuvoq sigalari bilan kuydirish orqali amalga oshiriladi. Ignani qo'yishdan oldin igna sanchish joyi dezinfeksiya qilinadi. Eramizdan avvalgi 2637 yil imperator Xuan Di va Si Bo, shifokor Van Chu-Xe qadimgi tabobat to'g'risida "Ney-szin" («Tabiat va hayot to'g'risida») nomli kitob yozgan. Imperator o'z tabiblariga har bir kasallikning kelib chiqish sabablarini, davolash yo'llarini yozdirgan. "Ney-szin" ikki kitobdan iborat, birinchisi "Su-Vin" savol va javoblardan, ikkinchisi "Shin-shu-szin" bo'lib, bu kitobda kasallikni haqiqiy ildizi yozilgan. Kitobda "Gigiena qoidalari", "Kasalliklar simptomatologiyasi", "Tomir urishini tekshirish", "O'n ikkita turli katta qon tomir to'g'risida", "Akupunktura va moksa to'g'risida" turli kasallikkarda qo'llaniladigan retseptlar yozilgan. Xan (206 y., eramizdan avval) davlatni boshqarganda "Shou-en-chedzi" kitobi yozilgan.

Bu kitobda "Bian" - kasallikni davolashda toshdan, keyinchalik suyak va bambukdan foydalangan. Shan dinastyasi (eramizdan avvalgi XVI-XI asr) davriga kelib, bronza ignalardan foydalangan.

Eramizning 256 yili xitoylik shifokor Xunfd-Mi igna bilan davolashni maxsus "chjen-szyu - szya-i-izin" traktnni yozadi. 265 yildan boshlab igna va moksa bilan davolash tez rivojlna boshladidi. Tan dinastyasi davrida (618-907 y.) igna bilan davolovchi mutaxassislar soni ko'payva boshladidi. 1026 yilda Van-Vay-i "Tun-jen-shu-syue-tunizi" - igna bilan davolash uchun qo'llanma yozdi. Bu kitobda igna sanchish nuqtalari topografiyasi berildi. Hozirda bu kitobning bir qismi Ermitajda, bir qismi Yaponiyada saqlanadi. 1303 yilda mongoliyalik mutaxassis Xutay-Bile

"Tomirlar va nuqtalar yo'li to'g'risida" qimmatbaho kitob yozadi. 1955 yilda Pekinda Xitoy xalq tabobati markaziy instituti tashkil etildi. Bu markazda alohida igna bilan davolash tashkil etiladi, ayniqsa, igna bilan davolash Buyuk ipak yo'li orqali Xitoydan boshqa davlatlarga tarqala boshlaydi. Oxirgi o'n yilliklar ichida refleksoterapiya Yevropa, Osiyo, Amerikada keng tarqala boshladи.

### Xitoy tabobatining nazariy assoslari

1965 yilda Yuan-ke Xitoy xalqining qadimiylarini yig'adi. Bularning ichida yer va osmonning yaratilishi to'g'risidagi afsona ham bor. Bu afsonaga ko'r'a dunyo qarama-qarshi kosmik kuchlar ta'sirida paydo bo'lgan. Osmon (Yan) va yer (In). Yengil zarralardan osmon (Yan), og'irdan yer (In) kelib chiqqan.

Beshta unsur va In-Yan to'g'risida.

In-Yan falsafiy ma'noga ega. "Shu-szin" tarix kitobida dunyoning 5 xil boshlanishi yozilgan. Birinchi boshlanish -- suv, ikkinchisi - - olov, uchinchisi - daraxt, to'rtinchisi- metall, beshinchisi - yer.

Tabiatdagi doimo suv-nam bo'lishi va pastga oqishi, olov-isitish, yuqoriga ko'tarish: daraxt-egilishga va to'g'rilanishga yon berish va o'zgarish, yer tabiatni - ekin va hosil berishdir.

Bu kitobda tabiatning 5 ta hodisasi - yomg'ir, quyosh tushishi, jazirama, sovuq va shamol to'g'risida ham yozilgan. Quesh va Oyning harakati tufayli qish va yoz paydo bo'lgan. Oyning yulduzlar orasidagi harakati shamol va yomg'ir hosil qiladi Bular bilan birgalikda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qadimiylar g'oyalar rivojlangan: yoruglik va qorong'ulik, tog'ning yopyg' va salqin tomoni, issiq va sovuq, erkaklik va ayollik.

Bu g'oyalar "I-yuzin"da ("O'zgarishlar kitobida") rivojlantirildi. Bu kitobning yozilishida Xitoy imperatori - FU Si katta xizmat qilgan (eramizdan oldin 2900-2852 y.). Imperator- Fu Si tushida otning belidagi afsonaviy ajdarhonni ko'rigan va uni rasmga tushirgan. Shu bilan odamzod tarixida In va Yan tizimining tabiiy bog'liqligi o'rtanildi. Bu tizim 8 trigrammadan iborat bo'ldi. Katta Yan -- quyosh va issiq. Katta In - oy va sovuq, kichik Yan - kunduzgi yorug'lik, kichik In - qorong'ulik, Yan - osmon, In - yer.

Xitoylik tabiblarning aytishicha, odamzod hayoti Yan va Inning birgalikda ta'sirida tufayli vujudga keladi, ya'ni Yan- faol suyuqlik - erkaklik (boshlanish) va In - sust suyuqlik - ayollik. Bu ikkita tamoyil odam organizmdagi 12 a'zo tufayli amalgal oshiriladi; yurak, jigar, o'pka, qora taloq, buyrak, miya, me'da, o't pufagi, siydiq pufagi. Bularning hammasi o'zini tomiriga ega va shu tomirlar orqali bir-biri bilan bog'langan. Tomirlarning ba'zilari oyoqda tugaydi va bularidan 6 tasi faol Yan, 6 tasi sust In. Igna bilan davolanganda tomirlardan organizm bo'yicha harakat qilayotgan suyuqlik orqali organizmda tozalanish yuz beradi.

6 ta ichki a'zolar Yan ga kiradi - o't pufagi, me'da, ingichka va yo'g'on ichak, siydiq pufagi, orqa miya. In tizimga - yurak, jigar, o'pka,

gora taloq, buyrak, bosh miya kiradi. Agar Yan tizimining ishi ko'paysa - sustlashadi. Xitoylik tabiblarning aytishicha odam organizmi 5 ta unsurdan iborat- olov, suv, yer, minerallar, o'simliklar boshlanishi, gaz va hosil qiluvchi moddalar - havo, namlik, sovuklik.

In-Yan qonuniga ko'ra kasallik fiziologik muvozanatni buzadi, shuning uchun In-Yan doimo bir-birini qo'llab-quvvatlab turadi. Kuchli Yan albatta, In hosisi qiladi, kuchli In esa, doimo Yan hosil bo'lishiga olib keladi, masalan, tana harorati ko'tarilib ketganda kuchli isitma (Yan) organizmning himoya kuchlarini susaytiradi. Isitmadan keyin tanada ichki sovuq qotish, ya'ni tana harorlti tushib, oyoq-qo'llarning muzlashi kuzatiladi (In). O'z vaqtida muolaja o'tkazilganda Yan energiyasi saqlanib qoladi va bemorning ahvoli yaxshilaydi. Bu paytda birinchisida Yan energiyani Inga o'tkazadi, ikkinchisida In Yanga. In va Yan tengligi buzilganda kasallik kelib chiqadi, igna bilan davolash Yan va In muvozanatini buzilishini to'g'rilaydi.

### Akupunktura nuqtalari

Igna bilan davolashning boshqa davolash usullaridan farqi shuki, unda ma'lum kichik sohalarga, sezgir nerv tolalariga, muskullar, tomir chigallari atroflariga ta'sir qilinadi. Bu paytda murakkab reflektor reaksiya yuz beradi. Periferik, markaziy vegetativ nerv sistemalar holati o'zgaradi. To'qima trofikasida katta o'zgarish ro'y beradi. Xitoy xalq tabibl igna sanchiladigan joyini ko'rsatkich barmoq yoki o'rta barmoq bilan (chuqurchoq, tirishgan joylar, bo'rtgan joylar) aniqlaganlar. Akupunktura sohalari terining sezgir joylarida, yirik nerv tolalari atrofi, ularning tarmoqlari esa nerv ustunlari bifurkatsiyasi, nerv-muskul birikmalari, nervlarin suyak teshigidan chiqish joylari, boylamlarni sezuvchi qismlari bosh suyakning birikkan joylari, teri nervlarida joylashgan.

### Tomirlar (Meridianlar)

Ba'zi mualliflar ichki a'zolardan teri yuzasiga alohida kanallar chiqadi, deyishadi. Soulie de Morant o'zining fantastik nazariyasiga asoslanib, odam tanasini tuzilishiga "meridian" atamasini kiritdi. Yapon fiziologi ishiga va meridianlar tomir - nerv ustunlari, nerv tolalari oxirlaridagi joylarda bo'lishini aytgan. Xan dinastiyasi Xitoyda davlatni boshqarganda odam tanasining tuzilishi haqida kitob chop etilgan. Bu kitobda ichki a'zolar, nervlar, qon tomirlar yozilgan. Kitobda asosiy bosh tomirlar bayon etiladi. Har bir tomonda 12 ta, ulardan 6 tasi qo'lga, 6 tasi oyoqqa boradi. Hamma barmoqlarga beruvchi tomirlar Yan, barmoqlardan ketuvchi tomirlar In turkumiga kiradi, hamma 12 ta bosh tomirlar ma'lum joylarda pulsatsiya beradi: qo'lagi tay-yan chjun-fuga (o'mrov suyagini tashqi tomoni), in-min (kurakning akromial o'simtasi) szya-bo - yelkaning o'ttasini pulsatsiya qiladi, tyan-fu uning pastki qirg'og'ini, yan-min-xe chuga - bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoqning qo'shilishi, yan-si bilak suyagining tashqi tomoni tay- yan tyan-guanga (ko'krak - o'mrov - so'rg'ich muskuli orqasi). Asosiy tomirlarda akupunktura va kuydirish nuqtalari joylashgan.

### **Hayotiy "chi" energiya**

Qadimgi Xitoy an'anaviy tibbiyoti yirik tomirlar ularning shoxlari bu daryolar, irmoqlar bo'lib, ular orqali odam tanasida qon "chi" (hayotiy energiya) aylanadi, deb xisoblaydi. Qadimgi Xitoy tabiblarini aytishicha, qon ovqat ichimlikdan paydo bo'ladi, havo esa o'pka orqali yurakka bo'ladi. Hammaga ma'lumki qon yaratuvchi a'zolardan hosil bo'ladi. Bularga suyak iligi, limfa tugunlar, qora taloq kiradi.

Qon yaratuvchi a'zolar gumoral va nerv omillar orqali boshqariladi. Qonning aylanishi natijasida to'qimalarga kislorod, oziq moddalar, suv, tuzlar yetkazib beriladi va karbonat angidrid chiqarib yuboriladi. Bundan tashqari, qon aylanishi tufayli gormonlar va biologik faol moddalar a'zolardan a'zolarga o'tadi. Qon tomirlarda qonning harakatlanishi yurak energiyasining paydo doirasini borligini hosil qiladi. Qadimda tabiblar organizmda kichik va katta qon aylanishini bilishmagan, SHUNING uchun ular asosiy tomirlarni ikkiga bo'lishgan 12 ta o'ng tomonga, 12 ta chap tomonga. Qadimgi tibbiy manbalarda yozilishicha "chi" energiyasi sutka davomida odam organizmida 50 marta aylanadi, deyilgan. Hozirgi zamон ko'rsatmalarida normada 20-25 sekund (katta va kichik qon aylanish sistemasi bo'ylab yurgan vaqt), sutkada esa 50 marta emas, 3456 marta aylanadi. 1930 yilda Engelgard energiya odam organizmida ovqat qabul qilganda adenozintrifosfat kislotosida to'planishini kashf qildi (ATF), shunday qilib, har qanday tirik xujayrada energiya ATFda bo'ladi. Demak, meridianlar bo'ylab yuruvchi "chi" energiya bo'lmaydi.

### **Ignanchi va kuydirib davolashning ta'sir mexanizmi**

Klassik akupunktura tamoyili somatotopiyaga asoslangan. Refleksoterapiya o'tkazganda, nerv sistemasi ta'sirlanishini o'tkazuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Nerv sistemasining somatik va vegetativ qismi birgalikda anatomiq jihatdan bir-biriga chambarchas bog'langan tizimini hosil kldadi. Vegetativ nerv sistemasini tuzuvchi qismi bu simpatik adrenal sistema. Bosh miyada noradrenergik, dopamin-ergik yo'llar hosil qiluvchi adrenergik tuzilma aniqlangan. Bizning mamlakatimizda xorijda akupunktura bilan bog'liq bo'lgan bioximik, biofizik o'zgarishlarni ko'p olimlar o'rganishmoqda, tekshirishlar natijasida quyidagilar aniqlangan. Akupunktura paytida nerv tolalari oxiridan ishlanib qon dopamin, noradrenalin, serotonin, segment spinal yeflektor yo'llarning hamjihatlikdagi ta'sirida katta rol o'inaydi.

Akupunktura ta'sirida torakal tuzilmalarning kineti-i, funksional holati o'zgaradi. Akupunktura akson-reflek orqali qon tomir sistemasi bilan bog'liq bo'ladi.

Akupunktura ta'sirida oq qon tanachalari guruxida fago-faoliyda va antitelo ishlab chiqarishda o'zgarish yuz Binobarin, refleksoterapiya immun jarayonlarning colligini ham oshiradi.

Refleksoterapiya ta'sirida serotonin, katexolamin, atsepiat ishlanib chiqishida o'zgarishlar ro'y beradi, endogen ishlab chiqarilishi kuchayadi, bu esa immun jarayoni boshqarishda ahamiyatga ega.

Serotoninergik sistemani immunogenzga samarasi gipotalamus-gipofiz, po'stloq qavat buyrak usti bezi orqali faminergik esa gipotalamus-gipofiz timus orqali amalga oshiriladi.

### Kuydirish bilan davolashning mexanizmi

U taxminan 1880 yildan boshlab o'rganila boshlagan lek hozirgacha bu muammo yetarli darajada o'rganilmagan. Teri organizmning barcha sistemalari bilan bog'langan murakkab Teri gomeokinez va gomeostozda katta ishini bajaradi. Har xil refleksoterapeutik ta'sirlar teridagi eksteroretseptoplarga ta'sir qiladi. Ma'lum joylari ichki a'zolar bilan bov langan simpatik, parasimpatik chigallarga to'g'ri keladi. Fiziologik va patologik jarayonlarning paydo bo'llishi bo'yicha organizmdagi birorta a'zo teriga teng kela olmaydi.

Terining va boshqa a'zolarning quyidagi komponentlari bor:

1. Asosiy vazifa bajaruvchi ishchi qismi.
2. Biriktiruvchi to'qima hujayralari. Bu xujayralar trofik vazifa bajaradi.

3. Mikrotomir komponenti. Terining mayda tomirlarini autoregulyatsiya qiladi.

4. Limfa tomirlar (kapilyarlar). Drenaj sistemasini, ya'ni mikrotsirkulyatsiya, mikrogemotsirkulyatsiya va limfa harakatini ta'minlaydi.

5. Teri nervi vegetativ nerv sistemasining cerebrospinal sezuvchi nerv tolalaridan iborat.


6. Biologik faol moddalar.

Gavdaning, qo'l va oyoqlarning teri nervlari orqa miyadan boshlanadi. Ular afferent va efferent tolalardan iborat. Birinchisi, orqa miya hujayralari o'simtasi gangliyalari. Ikkinchisi, orqa miyaning oldingi va yonbosh hujayralari o'simtasidir. Bosh terisi uch shoxli nerv tarmoqlari orqali innervatsiya qilinadi. Teri retseptorlari birinchi bo'lib kimyoiy, fizik mexanik ta'sirlarni sezadi va mexano - termo - va notsireptorlarga bo'linadi. Teri ular orqali 3 ta asosiy ta'sirni sezadi: issiqni, taktil, og'riqni.

Qo'lning kaft qismida bilak qismiga qaraganda 11 marta ko'p sezuvchi nerv tolalari ko'p.

Mexanoretseptorlar juda sezgir bo'lib, teri siljishinin 1 mkm ni ham sezadi. Termoretseptorlari esa epidermisidg notsireptorlar asosan barmoqlar uchida, ozroq miqdorda o qada, tovonning kaft qismida joylashgan. Terini 5 daqik mobaynida K44°С gacha qizdirilganda qon tomirlarni termog'i kengayadi, K45°С 5 daqiqa qizdirilgandan so'ng, 15-20 mm t qizaradi, shu holatda 25-30 daqiqa saklansa, leykotsitlar oshadi, xery, syuy-chi, gao-izu-san-li nuqtalarni bir kuydirilsa, qondagi neyronlar soni 3 kun mobaynida tib turadi. Besh kun mobaynida nuqtalar kuydirilganda eritrotsitlar, qon pigmentlari miqdori ko'payadi. Avval tomir urishi ko'payadi, so'ngra ozayadi. Badanning qorin qismi sepsisi kuydirilganda ichaklar xarakati kuchayadi. Shunday qilib, organizm kuydirishga neyrogen, gumoral reaksiya bilan javob beradi. Teri tomirlari

termik, mexanik ta'sirlarga juda sezgir. Akupunktura paytidagi mikrojarohat teridagi qon aylanishiga ta'sir qiladi. Qorin sohasi terisiga igna sanchish me'daning motor funksiyasini kuchaytiradi nerv tolalari, yoki susaitiradi. Ichki a'zolar kasalliklariga visserovegetativ reflekslar paydo qiladi. Kuchli patologik impulslar nerv va gumoral yo'llar orqali beriladi.



13 - r a s m. Qo'lning kaft qismi

Visserovegetativ reflekslar vissero-teri, teri-visseral turlarga bo'linadi. Vissero-teri reflekslari ichki a'zolar zararlanganda gipersteziya sohalari hosil qiladi. Ichki a'zolar bilan teri metameleri o'tasida bog'liklik bor. Yuzaki sezuvchanlikni tekshirib ko'rildganda Zaxarin-Ged og'riqli maydonlari aniqlangan. Orqa miya og'riqli maydonlari segmentlari QUyidagicha: yurak -  $C_{VI}$ - $C_{IV}$  Th<sub>x</sub> - Th<sub>VII</sub>, o'pka -  $C_{VI}$ - $C_{IV}$  Th<sub>IX</sub>-Th<sub>yu'da</sub> -  $C_{m}$ - $C_{IV}$  va Th<sub>VII</sub>-Th<sub>IX</sub>. Ichaklar - Th<sub>IX</sub>-Th<sub>XII</sub>, jigar va o't pufagi - Th<sub>VII</sub>-Th<sub>X</sub>, buyrak va siydiq jomchasi - Th<sub>XI</sub> - 2, siydiq pufagi - Th<sub>XI</sub> - 2 va S<sub>VI</sub> S<sub>IV</sub>, bachadon - Th<sub>X</sub> - 2, va S<sub>VI</sub> - S<sub>IV</sub>. Ko'krak - qorin sohasida 12 ta dermatom joylashgan. O'pka proeksiyasi (Ged bo'yicha) - chap va o'ng dermatom S<sub>4</sub>. ?onxial astmada ko'krak qafasining oldingi, umrov suyagi tagida joylashadi, og'riq ko'pincha o'ng tomonda, ba'zan ikki tomonlarma bo'ladi.

Yurak proeksiyasi: 3-4-chap ko'krak dermatomi. Yurak reflektor og'rig'i chapda - IV qovurg'a oralig'ida joylashadi. Bu ming ikkilamchi kasalligi hisoblanadi. Birlamchi yurakligida reflektor dermalgik nuqta 3-4-qovurg'a orasida bo'lgan ichki qismida bo'ladi, agar reflektor og'rig'i Th<sub>u</sub>-Th<sub>IV</sub> da bu xavfli hisoblanadi, EKG normada bo'lsa ham, agar 3-4-ko'krak umurtqasida artroz bo'lsa ikkala tomonda ham ko'p bo'ladi.

3. Qizilo'ngach proeksiyasi: 2-5-ko'krak dermatomi. Ko'kning o'tasida joylashgan.

4. Quyosh chigali proeksiyasi: 7-ko'krak dermatomi - chiziq oval maydonchaga asosan neyrovegetativ distoniyalap bo'ladi.

5. Jigar proeksiyasi: 8-ko'krak dermatomi.

6. O't pufagi proeksiyasi: 9-o'ng ko'krak dermatomi. Kindik dan 6-7 sm oldinda og'riqli nuqta joylashgan. O't pufagida har qanday o'zgarishlar bo'lganda og'riqli soha hosil bo'ladi.

7. Me'da osti bezi proeksiyasi: 9-chap ko'krak dermatomi. Bu reflektor soha biliar reflektor sohaga simmetrikdir.

8. Me'da proeksiyasi: 9-ko'krak dermatomi teridagi og'riqli soha xanjarsimon o'simtadan kindikkacha joylashgan.

9. Duodenal proeksiya: 9-o'ng ko'krak proeksiyasi. Bu soha o'ng kindik segmenti yaqinida joylashgan.

10. Och ichak proeksiyasi 9-chap ko'krak dermatomi pastki qismida joylashgan.

11. Yonbosh ichak proeksiyasi 9-chap ko'krak dermatomlaridir.


12. Buyrak proeksiyasi: 12-ko'krak dermatomi reflektor teri og'riqli sohasi chap va o'ngda yonbosh suyakning oldingi qismida joylashgan.

13. Siyidik pufagi proeksiyasi: 12-ko'krak dermatomi.

14. Tuxumdonlar proeksiyasi: 1-2-bel dermatomi. Ko'krak - qorin teri reflektor og'riqli sohasining akupunktura va ichki a'zolarning simpatik chigal orqali boqligligini ko'ramiz. Masalan: Me'da osti bezidan og'riq plexus gastricus superior orqali Ye-21, Ye-22 nuqtalariga o'tadi, me'da yarasida reflektor teri ogrig'i plexus gastricus superior orqali sya-van (J-10) szyanli (J-11) nuqtalarga o'tadi.

### **Teri-visseral reflekslar**

Terining ma'lum segmentlariga mahalliy ta'sir qilganda ichki a'zolar fuoliyatida o'zgarishlar bulishi mumkin. Masalan, 110-111 nuqtalarni kuydirilganda me'da peristaltikasi va muskullari tonusi oshadi. Yuqorida ko'rsatildiki, mar-kaziy nerv sistemasi doimo tashqi muhit ta'sirini har retseptorlar orqali oladi. Har bir retseptor ma'lum kuzatuvchi ta'sirini qabul qiladi - kimyoviy, elektromagnit, mexanizm. Refleksoterapiya foto, mexanotermoretseptorlar, notsitsepty retseptorlarga ta'sir qiladi, akupunktura qilinganda memoranalarning ion o'tkazuvchanligi oshadi. Nerv tolalarida natriy ionlari, kaliy ko'payadi, shu bilan nerv tolalari kurqsizlanadi va retseptor potensiali yuzaga keladi. Refleksoterapiyada og'riq zanjir reaksiyasiga - vegetativ, harakat, ruhiy ta'sir qiladi.



14 - r a s m. Zaxarin - Ged giperalgik teri maydoni va akupunktura nuqtalari: a) oldidan b) orqadan

Arteriolalarning silliq muskul qavatlarini ta'sirlanishi esa qon harakatini kuchaytiradi. Venulalarni kengayishi terini qizarishga olib keladi. Bir vaqtning o'zida impuls orqa miya nervidan orqa miya tuguniga, kevin orqa miyaning orqa shoxiga uzatiladi.

Hozirgi davrda nerv sistemasining 3 ta reaksiyasi aniqlangan.

Mahalliy yoki regionar reaksiya, mahalliy ta'sir nerv markazlariga uzoq va intensiv impuls beradi.

Segmentar reaksiya - ma'lum ichki a'zolarga ta'sir qiladi. Reflektor yoki simpatik vertebral tugunlarning vegetativ chuyralari va orqa miya orgali ichki a'zolarga boradi.

*Ko'rsatma:* Quruq yo'tal, bronxit, bronxial astma, gipertoniya kasalligi, uyqusizlik, bosh og'rig'i, aylanishi, uch shox-li nerv nevralgiyasi, radikulit, nevrasteniya, isteriya, epilepsiya, adeneksit, tish og'rig'i, me'da va 12 barmoqii ichak yarasi.

58. UCh -- (bachadon, seksual nuqta) uchburchak chuqurcha ichki qirg'og'i o'rtaida, 150-330° da joylashgan.

*Topografik anatpomiyasi:* 55-nuqtaga qarang.

*Ko'rsatma:* Kichik chanoqlar joylashgan a'zolar kasalliklari, bachadon kasalliklari, impotensiya.

59. UCh (qon bosimini pasaytiruvchi) sektor 3 joylashgan.

*Topografik anatomiyasi:* 58-nuqtaga qarang.

*Ko'rsatma:* Arterial gipertenziya.

60. UCh (astma, bronxolitik hansirash) sektor 3 150-330° da joylashgan.

*Topografik anatomiyasi:* Quloq nervlari, kichik ensa nervi, uch shoxli, yuz nervi shoxlari, adashgan, til-halqum nervi tarmoqlari.

*Ko'rsatma:* Bronxial astma, nafas a'zolari kasalliklari.

**Qayiqsimon chuqurcha (QCh).**

67. QCh (barmoq) sektor A joylashgan.

*Topografik anatomiyasi:* Katta quloq nervi tarmoqlari.

*Ko'rsatma:* Bilak-kaft bo'g'imi kasalliklari, torvoq, me'da nevrozi.

71. QCh (torvoq) sektor A joylashgan.

*Topografik anatomiyasi:* Katta quloq nervi va uch shoxli nerv

tarmoqlari.

**Ko'rsatma:** Torvoq, me'da nevrozi.

72. 1-6 B (burma) Darvin bo'rtmasi, solinchak- $72^\circ$ , 0- $180^\circ$  chiziq o'tgan joyda joylashgan.

**Ko'rsatma:** Gipotenziv, isitma tushiruvchi, yallig'lanishga qarshi.

**Burma oyoqchasi (BO).**

82. BO (diafragma)  $90-270^\circ$  markazida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Tashqi eshituv yo'li nervlari, adashgan nerv, til-halqum nervi tarmoqlari.

**Ko'rsatma:** Ichki a'zolarning og'riqli spazmi, diafragma spazmi.

83. BO (quyosh chigali) qulqoq yumshog'i oyoqchasi markaziy o'qida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 83 ga qarang.

**Ko'rsatma:** Ichak og'rig'i, qorin bo'shlig'idagi noxushlik, qorinning dam bo'lishi, anemiya.

**Burma oyoqchasiga kiruvchi qism (BOQ).**

87. BOKQ (me'da) burma tog'ayining to'sh qismi  $90-270^\circ$ .

**Topografik anatomiysi:** 83 ga qarang.

**Ko'rsatma:** Me'da va 12 barmoqli ichak yarasi, surunkali gastrit, me'da gipersekretsiyasi.

88. BOQ (12 barmoqli ichak) sektor V burma oyoqchasi oxirida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 83-nuqtaga qarang.

**Ko'rsatma:** Me'da va 12 barmoqli ichak kasalliklari, enterokolit.

89. BOKQ (ingichka ichak) sektor Ye tog'ayining supraga o'tish joyida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Tashqi eshitish yo'li nervlari adashgan nerv anastomozi.

**Ko'rsatma:** Ich ketish, dispepsiya, qorinning dam bo'lishi.

91. BOKQ (yo'g'on ichak) sektor 3 joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 89 ga qarang.

**Ko'rsatma:** Enterokolit, dispepsiya, me'da-ichak diskineziyasi.

**Supra makkisi (CM) (kosa).**

92. CM (siyidik pufagi) sektor  $150-330^\circ$  supra tog'ayi yuqori qirg'og'ida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Tashqi eshituv yo'li nervlari, yuz, adashgan nerv shoxlari.

**Ko'rsatma:** Siyidik tutolmaslik, siyidik-tutilishi, qandsiz diabet, nevrasteniya.

95. CM (buyrak)  $0-180^\circ$  joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Pastki qulqoq nervi, yuz nervi, uch shoxli nerv, adashgan nerv anastomozi.

**Ko'rsatma:** Erkaklar va ayollardagi siyidik-tanosil kasalliklarida.

96. CM (me'da osti bezi - - chapda, o'ngda - o't pufagi) sektor A,  $30-210^\circ$ chap qulqoqda me'da osti bezi, o'ng qulqoqda o't pufagi joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Katta quloq nervi, oldingi shoxi, uch shoxli nervi, adashgan nervi, yuz nervi shoxlari, orqa quloq arteriyasi.

**Ko'rsatma:** Pankreatit, xoletsistit, dispepsiya.

97. CM (jigar) B-sektorda burmaga qarshi sohani medial tomonida, 39 va 96-nuqtalar o'rtaida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 96-nuqtaga qarang.

**Ko'rsatma:** Jigar uchun o'ng quloq, qora taloq uchun chap quloq ishlataladi, jigar va o't yo'llari kasalliklari, klimakterik nevroz, nevroz, bosh aylanish, gipotoniya, qon kasalliklari, glaukom, gemiplegiya.

98. CM (qora taloq) sektor V 90-270° joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 96 ga qarang.

**Ko'rsatma:** O'tkir gastrit, me'da va 12 barmoqli ichak yarasi, me'da ichak diskineziysi, to'g'ri ichakning tushishi, epilepsiya, govmichcha. Qon oqishi, gipoxrom anemiya, muskul gipotrofiysi.

**Supra bo'shlig'i (SB).**

100. SB (yurak) J sektori, 150-330° joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Adashgan, tish-halqum, yuz, orqa quloq nervlari anastomozlari.

**Ko'rsatma:** Gipertoniya va gipotoniya kasalliklari, taxikardiya, miokardit, ekstrasistolika, yurak ishemik kasalligi, hansirash, nevrasteniya, isteriya, isterik gemiplegiya.

101. SB (o'pka) sektor J quloq yumshog'i pastki qirg'og'ida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 100-nuqtaga qarang.

**Ko'rsatma:** Bronxial astma, allershk rinit, me'da yarasi kasalligi, xoletsistit, kolit, til og'rig'i, og'iz bo'shligi yarasi, terining allergik va nevrogen qichishishi, ekzema, burun qonashi, soch to'kilishi, o'tkir konyuktivit.

102. SB (bronxlar) sektor D supra bo'shlig'ida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** 101 ga qarang.

**Ko'rsatma:** O'tkir va surunkali bronxit, bronxopnevmoniya, ko'k yo'tal.

104. SB (thalamus, tananing uch qismi) sektor D, eshitish teshigining pastki qirg'og'ida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Teri ostida, adashgan nervi, yuz nervi, tilhalqum nervi tarmoqlari.

**Ko'rsatma:** Stenokardiya, qabziyat, pleksit, qovurg'alararo nevralgiya.

**Burma (B).**

121. (Kichik ensa nervi) sektor A, darvin bo'rtmasidan 0,2 sm yuqorida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Kichik ensa nervining oldingi shoxi, katta quloq nervining shoxlari, orqa quloq arteriyasi tarmoqlari.

**Ko'rsatma:** Bosh og'rig'i, migren, bo'yin osteoxondrozi, bosh miya shikastlanishi, epilepsiya, shizofreniya, isteriya, uch shoxli nerv

nevralgiyasi, issiq urishi.

**Aurikulyar nuqtalarining guruhi (terapevtik ta'sir bo'yicha).**

Sedativ nuqtalar: 55-uch-shen-men, 33-peshana, 29-ensa, 21-yurak, 34-bosh miya qobig'i, 100-yurak.

Tonusni kuchaytiruvchi: 13-qulog yumshog'i, buyrak usti bezi, 34-bosh miya po'stlog'i, 51-vegetativ nerv tizimi, simpatik qismi, 97-jigar, 100-yurak.

Gipotenziv: 34-bosh miya qobig'i, 59-qon bosimini pastlatuvchi, 55-markaziy nerv sistemasi, 100-yurak.

Qon tomirlar tonusini oshiruvchi: 13-buyrak usti bezi, 21-yurak, 34-bosh miya qobig'i, 97-jigar, 98-qora taloq, 101-o'pka.

Yurak ritmini tartibga soluvchi: 21-yurak, 34-bosh miya po'stlog'i, 51-simpatik qismi, 55-shen-men, 89-ingichka ichak 100-yurak, 101-o'pka.

Talvasaga qarshi: 29-ensa, 34-miya po'stlog'i, 51- simpatik qismi, 95-buyrak, 98-qorataloq.

Uyqu keltiruvchi nuqtalar: 29-ensa, 55-shen-men, 87- me'da, 92-siydik pufagi, 95-buyrak, 98-qora taloq.

Karlik: 13-buyrak usti bezi, 20-tashqi qulog, 9-ichki qulog, 95-buyrak.

Hayz ko'rishni tartibga soluvchi: 22-ichki sekretsiya bezlari, 58-bachadon, 95-buyrak.

Diuretik nuqtalar: 92-siydik pufagi, 95-buyrak, 98-qora-taloq, 100-yurak, 101-o'pka, 104-talamus.

Ich keltiruvchi: 34-bosh miya po'stlog'i, 91-yo'g'on ichak, 22- ichki sekretsiya bezlari, 29-ensa.

Allergiyaga qarshi: 13-buyrak usti bezi, 22-ichki sekretsiya bezlari, 29-ensa, 34-miya po'stlog'i, 55-shen-men, 101-o'pka.

Balg'am ko'chiruvchi: 13-buyrak usti bezi, 15-tomoq va hijildoq, 22-ichki sekretsiya bezlari, 29-ensa, 55-shen-men, 101-o'pka.

39-rasmning izohi.

**Izoh: Aurikulorefleksoterapiyadagi atamalar.**

**R u s h a**

Ushnaya rakovina  
Mochka  
Kozelok  
Polost rakovinq  
Chelnok rakovin  
Nojka zavitki  
Treugolnaya yamka  
Ladevidnaya yamka  
Protivozavitok  
Nijnyaya nojka protivozavitka

**O' z b y e k c h a**

Qulog suprasi  
Solinchak  
Qulog yumshog'i  
Supra bo'shlig'i  
Supra makasi  
Burma oyoqchasi  
Uchburchak chuqurcha  
Qayiqsimon chuqurcha  
Burmaga qrashi soxa  
Burmaga qarshi soha pastki  
oyoqchasi

Prilejashaya chast nojki zavitka	Burma oyoqchasiga kiruvchi qism
Perednyaya vrezka	Oldingi kesimta
Mejkozelkovaya vrezka	Quloq yumshog'i orasi kesimtasi
Protivokozelok	Quloq yumshog'i oldi.

#### **IV BOB. UQALASH USULLARI**

##### **NUQTALI UQALASH (AKUPRESSURA)**

Akupressura akupunkturaning keyingi rivojlanishidir. U ham akupunkturadagi nuqtalardan foydalanadi, ammo igna o'mida ko'rsatkich barmoqdan foydalaniladi. Natija bir xil.

To'g'ri va kerakli nuqtalarni ezish ko'p kasalliklardan forig' qiladi.

Akupressura nafaqat og'riqni goldiradi, balki kasallikdan tuzalish muddatini qisqartiradi, a'zolarning funksional o'zgarishlarini to'rilaydi, nevrozlarning organik asoratlарini va asabiylashishni yo'qotadi.

Kimki akupressuraning oson mashqlarini o'rganib olsa, o'ziga yordam berishi mumkin.

Asosiy nuqtalar va davolash muolajalarini bilish -- bu bemorlar vazifasidir.

Akupressura og'riqni oladi, nerv sistemasi yetishmovchiligi paydo qilgan kasalliklarni davolaydi.

Akupressura og'ritmaydi, qon chiqmaydi va organizmga infeksiya tushirmaydi, bajarilishi juda oson va xavfsiz.

Akupressura bu o'z-o'zini davolash usuli. Hozirgi vaqtda ekspertlarga 1030 ta nuqta ma'lum, ammo ular soni kun sayin ko'paymoqda.

##### **Nuqtalarning turlari.**

Akupunktura va akupressura nuqtalarining joylashuvi qadimdan ma'lum. 14 ta meridianda joylashgan. Meridianlar o'z nomlariga ega, masalan, "yurak motori", "uch tabaqali qizituvchi" yoki "meridian-guverner" va bu holatlarda uch xil nuqtalar ko'rsatiladi.

"Garmoniyalovchi nuqtalar" meridian boshida yoki oxirida joylashadi. Bu nuqtalarga akupressura usuli bilan ta'sir ko'rsatish davomida, o'sha meridianga tegishli a'zolarda gormonal o'zgarishlar seziladi.

"Qo'zg'atuvchi nuqta" - har bir meridianda bittadan bo'ladi. Bu nuqtalarga ko'rsatilgan akupressura natijasida shu meridianga tegishli a'zoning ish faoliyatini va reaksiyasini kuchaytiradi.

"Tinchlantruvchi nuqta" har bir meridianda 1 tadan bo'ladi. Nevroz holatini oladi va tinchlantradi.


"Darakchi (signal) nuqtalar" har bir asosiy a'zo o'z darakchi (signal) nuqtasiiga ega, to'g'ri bajarilgan akupressura tez orada organizm faoliyatini yaxshilaydi.

Va niyoyat, so'nggi yillarda bir necha yangi nuqtalar ochilgan bo'lib,

ular "maxsus nuqtalar" degan nom oldi.

### AKUPRESSURANING DAVOLASH KO'RSATMALARI

O'ziga yordam bermoqchi bo'lgan odam hamma akupressura nuqtalarini va meridianlarini bilishi shart emas. Akupressura kerakli nuqtalarining qaerda joylashganini va ularga qanday, qancha ta'sir ko'rsatishni bilish kifoya.



bosimi past bo'lganda, "gormoniyalovchi nuqtalar-umumiyl nevrozing qo'zgalish paytida va "darakchi (signal) nuqtalar" - sanchiqlarda akupressura qo'llaniladi.

### AKUPRESSURA NUQGASINI TO'G'RI TOPISH

Quyida ko'rsatilgan chizmalarda barcha akupressura nuqtalari berilgan. Aksariyat hollarda nuqtani to'gri topish natijasida qisqa og'riq seziladi. Ammo har bir organizm o'ziga xos bo'lgan belgilarni inobatga olib, ta'sir nuqtalarini yana qo'shimcha punktir chiziqlar bilan belgilanadi.

### AKUPRESSURA NUQGALARGA TA'SIR KO'RSATISH

Xitoyliklар davolash nuqtalariga bo'lgan ta'sir darajalarini quyidagicha bo'lishadi:

- Qattiq og'riqdarda va birlamchi davolashda ko'rsatkich barmoq uchi bilan 5 daqiqacha aylantirib uqalanadi, ya'nii massaj qilinadi.
- Surunkali kasalliklarda bemor umumiy holatiga qarab, o'rtacha nuqta 30 soniyacha massaj qilinadi.

Kuchli pressura bosh barmoq yordamida qilinadi.

Kerakli nuqtani topgandan keyin bosh yoki ko'rsatkich barmoq yordamida teriga sekin tegiladi va asta aylanma harakatlari qila boshlanadi. Barmoq bitta nuqtada turishi shart.

- yurak va qon aylanishi tizimining og'ir organik kasalliklarida;
- homiladorlik;
- kuchli zo'riqishda;
- teri kasalliklarda bemorning ahvoli og'irlashsa darhol akupressura

Hozirgi paytda odamzod ko'proq stress, asabiy zo'riqish holatiga duchor

boshog'rnt bo'lmoqda. Asabiy zo'riqishda organizm holsizlanadi, yurak va qon aylanish yetishmovchiligi, gipoto-niya va shularga o'xshash kasalliklar kelib chiqadi. Noto'g'ri akupressura a'zolar faoliyatini butunlay o'zgartirib yuboradi.

Odam organizmining har bir a'zolar tizimi ma'lum bir akupressura nuqtasi bilan uzviy bog'liq.

Nuqtalarning buzilishida, "qo'zg'atuvchi nuqta"- past qon

muolajasini to'xtatish kerak.

Masalan, akupressura mobaynida o'tiradi yoki belga yotiladi, hech qanday tashqi muhit ta'siriga e'tibor berilmaydi. Ko'rsatkich barmoq uchini kerakli nuqtaga qo'yib, terini muskullarga nisbatan aylantirib harakat qilib turish kerak.

### ASTMA (HANSIRASH, YO'TAL, CHEKISHNI TASHLASH) KO'Z OG'RIQLARIDA


Xususiyati - tinchlantiruvchi nuqta.

Ta'sir ko'rsatish yo'li - ko'rsatilgan nuqtalarni ketma-ket akupressu-rasi. Akupressura vaqtida ko'zlar yumib turiladi.

42-43-r a s m l a r .



44-rasm.



45-p a c m.



### ISHTAHANI PASAYTIRISH

Xususiyati - tinchlantiruvchi nuqqa.

Ta'sir ko'rsatish - akupressura karnay ishtaha bo'lganda yengil massaj singari 30 soniya bajariladi. Pressura ikkala qo'l bilan ketma-ket o'tkaziladi.

Nuqtaga ta'sir ishtahani pasaytiradi va moddalar almashinuvini mo'tadillashtiradi.

### O'TPUFAGI OG'RIQLARI

Xususiyati - tinchlantiruvchi nuqta. Ta'sir ko'rsatish ikkala qo'lning ko'rsatkich barmoqpari bilan ahvoli yaxshilanganicha ta'sir ko'rsatiladi.

46-rasm.

## BOSH OG'RIQLARI (ENSA OG'RIQLARI)

Xususiyati - maxsus simmetrik nuqta.

Ta'sir ko'rsatish yo'li ritmik va sinxron, ikkala qo'l bilan kuchli akupressura. Pressura ko'rsatkich yoki bosh barmoqlar bilan o'tkazilishi mumkin.



47-rasm



48-rasm.

## BOSH OG'RIQLARI (PESHANA OG'RIQLARI).

Xususiyati - tinchlanitiruvchi nuqta.

Ta'sir ko'rsatishi - ikki tomonlama bir vaqtida sinxron yengil akupressura. Pressura vaqtida ko'zlar yumuq bo'lishi kerak.




49-rasm.

## BOSH OG'RIG'I (MIGREN)

Xususiyati - tinchlanitiruvchi nuqta.


Ta'sir ko'rsatish yo'li. Ko'rsatkich barmoq bilan 5 daqiqa yengil ritmik ta'sir ko'rsatiladi.



## QON BOSIMI OSHISHI

Xususiyati - gormonlovchi nuqta.

Yo'li. Qo'lning ko'rsatkich barmog'i bilan 5 daqiqa gacha yengil akupressura ta'sir ko'rsatiladi. Muolaja, albatta tinch vaziyatda o'tkaziladi.



51-rasm.

## BOSH AYLANISHI

Xususiyati gormonlovchi nuqta. Yo'li - kuchli intensiv, ammos tez akupressura ta'sir ko'rsatiladi. Kerak bo'lsa, qo'lning bosh barmog'i bilan ikkinchi qo'lning jumjilog'iga tirnoqni bosib kombinatsiya qilish mumkin.



52-rasm.

### **GRIPP**

Xususiyati - qo'zg'atuvchi nuqta, tinchlaniruvchi nuqta.

Yo'li. Ikkala qo'l ko'rsatkich barmoqlari yordamida sinxron ta'sir qilinadi. Birin-ketin nuqtalarni bir daqiqada massaj qilish mumkin.




53-rasm.

### **DISTONIYA**

Xususiyati - maxsus nuqta.

Ta'sir ko'rsatish yo'li - bosh barmoq yordamida o'rtacha og'irlilikda ta'siri. Akupressura ertalab yoki kechki payt qilinadi. Til uchini 20 soniya tishlab turish ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi.



54-rasm.

### **OSHQOZON-ICHAK OG'RIQLARI**

Xususiyati - gormonlovchi nuqta.

Yo'li. Yotgan holatda yengil, ammo uzoq chidamlı akupressura ta'sir ko'rsatiladi. Akupressura ko'rsatkich barmoq yordamida qilinadi. Ich ketganda akupressura sinxron qilinadi.



55-rasm.

### **Tashnalik**

Xususiyati - tinchlaniruvchi nuqta.

Yo'li. Tilni uchidan 1 sm orqada sal tishlab o'tkaziladi. (20x1 soniya). Bu nuqta tananing markaziy meridianida joylashgan.



56-rasm.

### **YUQORI NAFAS YO'LLARI YALLIG'LANISHI**

Xususiyati - maxsus simmetrik nuqta.

Ta'sir ko'rsatish yo'li - xotirjam ko'zlarni yumib o'tirib, ko'rsatkich barmoqlar yordamida 64 marta aylanma harakatlar bilan akupressura qilinadi.



57-rasm.

### KOLLAPS

Gipotoniyada ham foydalaniladi.

Xususiyati - qo'zg'atuvchi nuqta.

Yo'lli. Qo'l jumjilog'i yo'lli og'riguncha - bosh barmoq tirmog'i bilan kuchli ta'sir ko'rsatiladi. Gipotoniyada ertalab o'rinda tinch holatda xotirjam o'tirib o'tkaziladi.




58-rasm.

### QON AYLANISHINING BUZILISHI

Xususiyati - qo'zg'atuvchi nuqta.

Yo'lli. Birinchi qo'l o'rta barmog'ini ikkinchi qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlari orasiga olib, yurak urish ritmida bosh barmoq tirmog'i bilan bir necha daqiqa ta'sir ko'rsatiladi.



59-rasm.




### BURUN OQISHI

Xususiyati. Hamma nuqtalar simmetrik.

Yo'lli. Ko'rsatkich barmoqlar uchi bilan sinxron ikki tomonlama yengil ta'sir ko'rsatiladi. Har bir nuqta akupressurasi 1 daqiqa dan. Ketma-ketligi 1-2-3-4.

60-rasm.



### TERLASH

Xususiyati - maxsus nuqta.


Yo'li. Ko'satkich barmoq bilan yengil daqiqagacha ta'sir ko'rsatiladi, o'ng tomonlama akupressura tezroq ta'sir ko'rsatadi.

### DUMG'AZA RADIKULITI

Xususiyati - maxsus nuqta.

Yo'li. Ikkala qo'lning bosh barmoqlari bilan ayni bir vaqtda davomiyligi - 2 daqiqagacha kuchli ta'sir ko'rsatiladi.

62-rasm.



### BO'YIN RADIKULITI

Xususiyati (gormonlovchi)

mo'tadillashtiruvchi nuqta.

Yo'li - ikkala qo'lning ko'satkich barmoqlari bilan avval yengil, so'ngra kuchli ta'sir ko'rsatiladi.

63-rasm.



### YOSHGA ALOKADOR O'ZGARISHLAR

Xususiyati. Mo'tadillashtiruvchi nuqta.

Io'li - ko'satkich barmoq bilan ertalab yengil, tinch holatda ta'sir ko'rsatiladi.


64-rasm.



65-rasm.

### HAYZ VAQTIDAGI O'ZGARISHLAR

Xususiyati - (gormonlovchi)  
mo'tadillashtiruvchi nuqta.  
Ta'sir ko'rsatish yo'li - yengil akupressura  
qo'llarda ko'p marta takrorlanishi. Davomiyligi holat  
yaxshilanguncha.




66-rasm.

### JINSIY O'ZGARISHLAR

Xususiyati - maxsus nuqta.

Ta'sir qilish yo'li - ko'rsatkich barmoq bilan  
ta'sir ko'rsatiladi, muolajani birov tinch holatda  
qilgani yaxshi.



67-rasm.

### JINSIY O'ZGARISHLAR

Xususiyati - maxsus nuqta.

Yo'li - ko'rsatkich barmoq bilan ketma-ket  
ohista va kuchli ta'sir qilinadi. Yaxshisi bu muolajani  
tinch holatda birov qilgani yaxshi.



68-rasm.

### UYQU BUZILISHI

Xususiyati - maxsus (gormonlovchi)  
mo'tadillashtiruvchi nuqta.

Yo'li - muolajani tinch holatda o'ng tomonda  
o'tkazish afzal.



69-rasm.

### REVMATIK KO'RINISHDAGI OG'RIQLAR

Xususiyati - tinchlantiruvchi nuqta.

**Yo'li** - ko'rsatkich barmoq bilan yengil uzoz muddatli (7 daqiqa) ta'sir qilinadi. Akupressura ikkala qo'lda o'tkaziladi. Surunkali og'riqlarda kasal tomonida bajariladi.



70-rasm.



71-rasm.

### YURAK OG'RIQLARI

Xususiyati - tinchlantiruvchi nuqta.


**Yo'li** - - yotgan holatda bosh barmoq bilan qo'lni ushlab turib, ta'sir ko'rsatiladi.

### QO'RQINCH

Xususiyati - (gormonlovchi)

mo'tadillashtiruvchi nuqta.

**Yo'li** - o'tirgan holatda ko'rsatkich barmoqlar bilan sinxron ta'sir ko'rsatiladi. Akupressura yengil - 5 daqiqa gacha qilinadi.



72-rasm.

### BO'G'IMLARDAGI OG'RIQ

Xususiyatlari - (gormonlovchi)

mo'tadillashtiruvchi nuqta.

**Yo'li** - ko'rsatkich barmoq bilan ta'sir ko'rsatiladi. O'tkir og'riqlarda yengil akupressura, surunkali kasalliklarda kuchli. Davomiyligi to ahvol yaxshilanguncha.




73-rasm.

### TOLIQISH

Xususiyati - qo'zg'atuvchi maxsus nuqta.

Ta'sir qilish yuli - - o'ng qo'lning kichik barmog'i chap qo'lning bosh va ko'rsatkich barmoqlar, orasida qisib, bosh barmoq uchi bilan juda kuchli ta'sir ko'rsatiladi.




74-rasm.

### QULOQ OG'RIG'I

Xususiyati - - - (gormonlovchi)

mo''tadillashtiruvchi nuqta.

Yo'li - ko'rsatkich barmoq bilan yengil, og'rigan tomonda ta'sir ko'rsatiladi, davomiyligi ahvol yaxhilanguncha.



75-rasm.

### NUQTALI MASSAJ

Nuqtali massaj ham xuddi igna bilan davolash va kuydirishga o'xshaydi, ammo farqi shundaki, terini shikastlamasdan barmoq uchi bilan hayotiy nuqtalar massaj qilinadi. Nuqtalarning 700 dan ortiq joylashuvi ma'lum, ammo ko'proq ishlatiladigan 150 atrofida.

Ma'lum nuqtalarni barmoq bilan ezish yo'li bilan xohlagan a'zo va tizim faoliyatini boshqarish mumkin.

Nuqtali massajni o'rganishga bir necha kun kifoya qilmaydi, balki qunt bilan shug'ullanish kerak. Qo'shni nuqtalarga ta'sir qilib qo'yishdan ehtiyyot bo'lish kerak, chunki zarar yetkazib qo'yish mumkin.

Massajdan oldin qo'lni yaxshi ishqalanadi, shunda qo'lda qon aylanishi yaxhilanadi. Ehtiyyot bo'lib barmog'ingiz uchi bilan nuqtani ezgananingizda bemor ogriq sezadi. Bu juda katta ahamiyatga ega. Tez ezmashlik, tez va qo'pollik qilmashlik, teriga perpendikulyar ta'sir qilish lozim.

Shu jumladan:

- nuqtani ohista silash kerak;
- ezzganda barmoqning og'irligi kifoya qiladi;

- qattiq ezganda barmoq ostidagi terida chuqurcha hosil bo'ladi.

Barmoqni soat mili bo'ylab to'xtovsiz aylantirish. Ikki xil usul ishlatalidi.

1. Tinchlantiruvchi - to'xtovsiz ta'sir, yengil, sekin aylantirib, ohista bosim oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. 4-4 marta boshidan takrorlanadi. Davomiyligi 3-5 daqiqa.

2. Tez-tez qattiq ezish va barmoqni nuqtadan tez olish bilan amalga oshiriladi. Davomiyligi 1/2 - 1 daqiqa.

**Yuqori bosimdagи nuqtali massaj.** 0,30-1 daqiqa mobaynida 1 va 2-nuqtalarni qo'zg'atuvchi usul bilan qattiq eziladi va aylantiriladi. Bu umumiy ahvolni yaxshilaydi va qon bosimini pasaytiradi.

Qolgan nuqtalarni tinchlantirish usuli bilan massaj qilinadi.

**Aterosklerozda nuqtali massaj.**

3-5 daqiqa ichida sekin aylantirib ezish.

**Qabziyatda nuqtali massaj.**

Massaj qilinadigan vaqtida ichni suradigan dorilar ichish taqiklanadi. 2 hafta ichida har kuni 2-3 marta qilinadi:

a) atonik qabziyat - ichak tonusining pasayishi isitmasida 1/2 - 1 daqiqa. Fibresil bilan chuqur ezish;

b) spastik qabziyat - ichakning tekis muskullar spazmi isitmasida. Tinchlantiruvchi usul 3-5 daqiqa aylantirib, ohista ezib, sekinlashadi.

**Jinsiy ojizlikda nuqtali massaj.**

Avvalo bemorga ruhiy ta'sir ko'rsatish zarur. Kuniga 2-3 marta ta'sir ko'rsatilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin. 1-7, 13-15, 18, 21, 23 nuqtalarni 1/2-1 daqiqa davomida aylantirib, chuqur eziladi. 8-12, 16, 17, 22 nuqtalarga esa tinchlantiruvchi usul, ya'ni ohista silash yo'li bilan ta'sir ko'rsatiladi.

Nuqtalni massajdan oldin bemor qulay o'tirib olib, bo'shashib, hech narsani o'ylamay, faqat massajga ixlos qilib o'tiradi. Kutilgan isitma hamma odamlarda har xil bo'ladi: bir xillarida 1-seandsdan so'ng, boshqalarda bir necha seandsdan keyin.

Nuqtalni massajni bir yoshdan oshgan bolalar va kattalarga qo'llash mumkin.

### NUQTALARNI ANIQLASH

1. 5-bo'yin umurtqasini boshni oldinga egganda 2- va 3-ko'krak umurtqalari orasida, orqa o'rta chizig'idan 3 ta barmoq tashqaridan.

2. 2-nuqtadan 1 ta umurtqa pastidan.

3. 1-barmoq tirkog'idan 3 mm tashqarida.

4. Tirsak suyagining orqa tomonidan boshchasidan yuqorida.

5. 1- va 2-barmoqlar orasida ko'proq 2-barmoqqa yaqin.

6. Chakka yuqorisi, quloklar suprasining bir-biriga tutash chizig'i.

7. Boshning sochli qismida, 1,5 sm peshana burchagidan tashqarida.

8. Ensa suyagi tashqi do'nboqchasidan tashqarida va yuqorida.

9. Burun, lab egatchasidan yuqori nuqtasida.

10. Tirsak bukilmasi tashqi nuqtasidan 3 barmoq pastda.

11. Pastki jag' burchagidan oldinda va yuqorida.
12. Yuqori lab chuqurchasida.
13. Qosh o'rtasining yuqori yonida.
14. To'sh suyagi chuqurchasi markazida.
15. Oyoq panjasи yuzasi chuqurchasida.
16. Oyoqning 2- va 3-barmoqlari orasida.
17. Oyoqning 1- va 2-barmoqlari orasida.
18. Oldingi va yuqori qulqoq bo'rtmasi.
19. Qulquning go'shtlik qismining orqa chuqurchasida.
20. Kurak suyagining o'rtasi ustida.
21. Kindik va to'sh suyagining xanjarsimon oralig'i orasida.
22. Kindikdan bir barmoq yon tomonga.
23. Tizzadan 2 barmoq pastda, boldirning tashqi tomonidan.
24. 1- va 2-oyoq barmoqlari orqasida, 19-nuqta ustida.
25. Orqa o'rta chizig'idan 2 barmoq chetda, bel sohasida.
26. Dumg'aza sohasida.
27. Tizza orqasi chuqurchasining ichki qirrasida.
28. Tirsak bo'g'imi bukig'ida.
29. Tizza orqasi chuqurchasi o'rtasida.

### V b O b. ISSIQLIK BILAN DAVOLASH

Tuproq, loy, balchiq bilan davolash xalq tabobati usullaridan biri, bu usul bilan har bir odam davo muolajalarini mustaqil bajarishi mumkin.

Tabiblar azaldan bu usullarni qo'llab, bemorlarni davolab kelganlar. Bundan ming yil oldin Abu Ali ibn Sino bemorlarni davolashda ro'za tutish, badantarbiya, issiq yoki sovuq suv muolajalari, quyosh nuri, havo, giyohlar, tuproq, loy va balchiqdan qanday foydalanishni yaxshi bilgan. Bu usullar ajodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelmoqda.

Alloh bizga o'zimizda o'zimizni davolashimiz uchun ichki bir qudrat ato etgan. Faqat biz o'zimiz unga yordam berishimiz, organizmda yig'ilgan zahar va zararli moddalardan xalos bo'lishi uchun jon kuydirishimiz kerak.

Har bir odam o'z-o'zini davolashi kerak, faqat shundagina xastaliklardan butunlay qutilish uchun sharoit yaratiladi.

Qadimgi donishmandlar hayot asosida 4 unsur yotadi deganlar, bular:

- quyosh;
- havo;
- suv;
- nurlardan quvvat oluvchi Yer (tuproq, qum, loy, balchiq, bo'r va hokazo).

Bu unsurlarsiz hayot mavjud bo'lmaydi. Shu 4 unsurdan birortasi yetishmasa yer yuzida hayotdan nishona qolmaydi.

Tuproq, loy va balchiq yer mahsuli bo'lib, yer to'rt unsurning biri sanaladi. Shuning uchun, avvalo, tuproq, loy va balchiqning shifobaxshligiga bevosita bog'liq bo'lgan uch unsur haqida fikr yuritamiz.

## QUYOSH (OFTOB)

Quyosh nafaqat issiqqlik va yorug'lik manbai. Quyosh bulutlar yoki tumanlar ortida tursa-da, havoga ham, yerga ham, suvgaga ham, yer yuzidagi mayjudotlarga, tabobat olamiga hayotiy quvvat baxsh etib turadi. Faqat bu nur o'ta darajada faol va tarkibi g'ayri-tabiiyki, undan omilkorlik bilan foydalanimas, nur tig'lari tirik jonni xastaga aylantirib qo'yishi ehtimoldan xoli emas. Demak, havo va quyosh vannalari deb ataluvchi davolash Usullaridan me'yoriy tarzda foydalangan ma'qul.

## XAVO VA OFTOBDA TOBLANISH

Odamzod badanini o'rab turgan terining o'pkasi va buyrak kabi juda katta ahamiyati bor. Hatto buyrak va o'pkalar bajara olmaydigan, organizmdagi toksinlar va moddalar almashinuvining zaharli chiqitlarini teri orqali chiqarib yuborib, zararsizlantiradi.

Eng yaxshi mevalar quyosh nuridan bahra olib, barglar panasida yetilib, mazali bo'lganidek, davolanishni istovchi bemorlar ham yaproklar soyasida uning shifobaxshligidan baxramand bo'lishlari kerak.

Shuning uchun oftobda toblanishni niyat qilgan biror og'riqli joyingizni, shifokor buyurgan azob berayotgan joylarni, faqat o'sha yerning o'zini ochasiz. Yalang'och qolgan joylarni oq mato bilan berkitasiz. Boshqa holatda yalangoyoq bo'lib, boshingizga do'ppi yoki nam ro'molcha tashlab olasiz. Toblanish muddatini avvaliga 5 daqiqa qilib, keyin astasekin uzaytirib boraverasiz.

Dimiqib uyda yotgandan ko'ra ochiq havoda sayr qilgan albatta yaxshi. Faqat bemor odam quyosh tig'ida yotmasligi va ovqatlanmasligi kerak.

Yodingizdan chiqmasin! Bakteriyalar quyosh nuri kam tushadigan zax va nam joylarda ko'payadi. Yerug'lik bor joyda yashay olmaydi. Yorug'likni seving. Shunda doimo sog'lom yurasiz!

## HAVO

Havo bilan kislorod, azot organizmdagi barcha a'zolarga, to'qima va hujayralarga yetib boradi va hayotning asosi hisoblanadi. To'g'ri nafas olish inson organizmidagi biologik ritmlarning to'g'ri kechishi, yurak faoliyati, moddalar almashinuvini jarayonlarini to'la-to'kis amalga oshishi uchun ko'maklashadigan omildir. Nafas olish ruhiy kechinmalar ta'sirida ham o'zgarishi mumkin, ya'ni bunda odam hansiraydi, havo yetishmaydi, nafas olish qiyin bo'ladi, o'pkaning nafas maydonini, hayot sig'imini toraytiradi, binobarin, bemor iztirob chekadi. Nafas mashg'ulotlarini bajarishni bilish xastaliklardan xalos bo'lishdir.

Nafas olish mashqlari bilan juda ko'p xastaliklarni davolasaga bo'ladi. Nafas olish mashklari miya va ichki a'zolarga ijobiy ta'sir qilib, juda yaxshi natijalar beradi.

Ko'hna Sharq xalq tabobatida e'tirof etilishicha, deyarli juda ko'p xastaliklar noto'g'ri nafas olishdan kelib chiqadi. Hind yoglari guvohlik berishicha, birgina nafas mashklarining o'zi shilliq qavatlarning yallig'lanishiga doir xastaliklarning 20 turiga yaqinidan xalos qilish

mumkin.

To'g'ri nafas olish san'atini o'zlashtirish uchun, avvalo, tanani butunlay bo'sh qo'yishni o'rganish kerak. Esda tutingki, nafas olishda og'iz doimo yopiq bo'lishi, faqat burundan nafas olish lozim, tishlarni jips yopib turilmaydi.

Nafas olish va chiqarish, ya'ni nafas mashklari mutlaqo erkin bajariladi. Bunda ovoz chiqarmay, sekin, birdaniga to'xtatib qo'ymay ohista nafas olinadi. O'pkaning umumiyligi miqdori 70 foizni to'ldiradigan holatda havo simiradi. Hech qachon o'pkangizni havoga butunlay to'ldirmang. Yurib turganda, charchaganda, epidemiyalarida nafas olishga qaranganda 2 barobar uzoqroq nafas chiqariladi.

**Nafas mashqlari**, Endi e'tiboringizga davolanishda juda samara beradigan nafas mashqlaridan birini havola etamiz. Bu asab tizimini tinchlantiruvchi va izga soluvchi hamda barcha ichki charchoqlardan, shuningdek, tormlarning qisilishidan xalos etuvchi xususiyatga ega bo'lgani uchun ruhni barqarorlashtiruvchi, deb nomlanadi.

Avvalo, dastlabki mashqlarni o'rganishdan boshlaymiz. Uni o'zlashtirgach, asosiy mashqlarga o'tamiz. Iloji boricha, mashqlarni har kuni o'zingizga qulay bo'lgan bir vaqtida 10 daqiqa dan bajaring. Agar har kuni bir vaqtida mashklarni bajarishga vaqtingiz bo'lmasa, loaqa 2-3 daqiqa vaqt toping.

**Dastlabki mashqlar**: o'tiring yoki tik - to'g'ri turing. Umurtqa pog'onangiz tik, to'ppa-to'g'ri bo'lishi kerak. Nafas chiqaring, keyin burningizning chap teshigini barmog'ingiz bilan berkitib, o'ng teshigi bilan sekin nafas oling-da, shu zahotiyoy o'ng burun teshigining o'zidan nafas chiqaring. So'ngra o'ng burun teshigini bosib, chapidan nafas olib-chiqaring. Bu usulni boshidan boshlab 14 marotaba takrorlang. Lekin mashklar 14 tadan oshmasin.

Bu mashqni 2-3 hafta davom ettiring. So'ngra asosiy mashqni bajarishga o'tishingiz mumkin.

**Asosiy mashqlar**: odatdagidek o'zingizni bo'sh qo'ying. Burunning bir tomonini berkitib, sekin-asta nafas chiqaring va nafas chiqquncha xayolan 1, 2, 3, 4 deb sanashda davom eting. Aytaylik, nafasingiz 4 sonni sanashgacha yetdi. Endi dam olib xayolan bir-ikki deb, sanangda, yana 1, 2, 3, 4 deb nafas oling. Nafas chiqarishdan oldin ozgina dam olib, 1, 2 deb xayolan sanang. Shu holda mashklar 5 daqiqa bajariladi. Asta-sekin mashqlar muddatini uzaytirib, 10-15 daqiqa gacha yetkazing. Mashklarni kuniga 2 marotaba bajarilsa ham bo'ladi. Faqat 10-15 daqiqa dan oshmasin.

Mashklarni bajarayotganda ruhingiz tetiklashayotgan, o'zingizni tobora sog'lom his qilayotgandek tuting.

**Yodgingizda tuting**: mashklar davomida faqat nafas hokim bo'lsin. Nafas olish va chiqarish mashklarini, aytaylik 3 daqiqa davomida to'g'ri bajarilishi 6 soat davomida miriqib uxlagan odamdek bo'g'lnlari bo'shashib, o'z holatiga kelganidan ham ortiqroq yaxshi his qiladi.

**Nafas mashqlari**:

• xujayraga tushayotgan oziq mahsulotlarining to'la hazm oo'lismi ta'minlash oqibatida organizmning hayotiy faoliyatini izga soluvchi va uni mikroorganizmlar bilan qarama-qarshiligidini oshiruvchi ruhiy quvvatini yuzaga keltiradi;

- organizm hayotiy faoliyatining barcha jarayonlarini bir-biriga moslovchi nafas me'yorini hosil qiladi;
- salbiy his-hayajonlarni bartaraf qiladi;
- ichki a'zolarni uqalab, diafragma harakatini kuchaytiradi;
- o'pkada venoz qonni tozalanishiga yordam beradi;
- burunning manglay bo'shlig'ini tozalaydi;
- jигardagi zaharli moddalarni zararsizlantiradi va zaharlarni buyrakdan siyidik, o'pkadan so'lak, havo, teridan ter orqali chiqarilishiga yordam beradi.

O'pkaning chiqarish vazifasi kuchayganda, terining chiqarish vazifasiga ham ta'sir ko'rsatib, unda paydo bo'ladigan toshma, qizarish va yana boshqa zaharli moddalarning chiqishini yaxshilaydi va keyinroq batamom yo'qotadi. O'pkaning chiqirish vazifasi kuchayganida buyrakka tushadigan zo'riqishlar yo'qoladi.

Kuchli jismoni yozish uchun qo'shimcha qiziqishlar paytida, masalan, zinapoyadan ko'tarilishdami yoxud og'ir yuk ko'targandami, og'ir ish qilgandami, nafas olish va chiqarish diqqat markazingizda tursin, ya'ni bosgan qadamingizni bir maromga tushirib, 1 qadam yurib nafas oling, 2-qadamni bosganda nafas chiqaring.

## SUV

Agar havo hayotni saqlab turishda bosh omil - unsur sanalsa, suv organizmning tozalanib turishi uchun bevosita zarur va uning muvozanatini barqarorlashtiruvchi birinchi unsurdir.

Suvni aql bilan ishlatsa organizmni ichki ifloslantiruvchi deb atalishi mumkin bo'lgan ko'p kasalliklarni haydar chiqaradi. Suv parchalangan narsalarni yuvadi va tozalab, hayotiy quvvat baxsh etadi.

Ichki kasalliklarni davolashda suv juda ko'p o'rinnarda ishlataladi. Tajribalardan ma'lumki, 18°C dan oshmagan oddiy iliq suvga o'tirib davolanganda ham juda samarali natija beradi.

**Tabiiy suv.** Tabiiy suvdan qanday qilib davo topsa bo'ladi. Katta idishga yoki vannaga 2 chelak sovuq suv quying. Suv o'tirganingizda sonlaringizni va jinsiy a'zolaringizni bir necha santimetr yuqorida ko'mib tursin. Agar vannaga suv to'ldirgan bo'lsangiz, suv sathi 15-20 smdan kam bo'lmasin. Chunki, suv tezda isib ketib, putur yetishi mumkin. Iloji bo'lsa, suvni ostobda ilitib olgan ma'qul.

Davolanish uchun tayyorlangan suv zinhor issiq bo'lmasin. Agar suv harorati 18°C dan yuqori bo'lsa shifo bermaydi, balki, shunchaki odatdagi yuvinadigan suv bo'ladi, xolos. 18°C dagi suv esa badanga huzur bag'ishlab, chiniqtiradi, qon aylanishini yaxshilaydi. Shuningdek, yo'qolgan quvvatni tiklaydi, qon bosimini tushiradi, qon va buyrakdagini zaharlarni haydaydi. Issiq suv esa bo'shashtiruvchi xususiyatga ega.

Tanangizdag'i me'yoriy haroratidan tabiiy suv harorati past bo'lgani yaxshi.

Ayni chog'da, suv juda sovuq ham bo'lmasligi kerak. Unutmang, tanangizni sovitishi emas, balki suv sizni davolashi zarur. Yurak xastaligi bor yoki mizoji sovuq odamlar suv muolajalarini qabul qilmaydi.

Suvga o'tirishingiz bilanoq badaningizga ishqalay boshlang. Chap qo'lingizni isitib olgach, buyrakning chap tomonini pastdan yuqoriga qarab ishqalang. Ishqalaganda svjni kaftingizga to'ldiring va atrofga sachratib yubormaslikka harakat qiling. Keyin o'ng qo'lingiz bilan buyrakning o'ng tomonini ishqalang. So'ngra, yuqoridan pastga qarab - manglaydan kindikkacha ishqalashga o'ting. Ishqalashni suvdan chiqquncha davom ettiring. Bu ishqalashlar qon aylanishini harakatini maromiga tushirib, qorinning pastki qismidagi va buyrakdagi zaharlarni haydab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Sovuq suvga o'rganish uchun dastlabki muolaja mashklarini bir necha daqiqadan oshirmang. Asta-sekin vaqtini uzaytirib, 15-20 daqiqaga yetkazing.

Har bir suv muolajasidan keyin qon aylanishi yaxshi maromga kelishi uchun dag'al sochiq bilan badaningizni ishqalab artish kerak.

Sovuq suv muolajalari bilan ertalab uyqudan uyg'ongandan keyinoq shug'ullangan yaxshi. Suvning shifobaxsh xususiyatini yanada oshirish uchun ozroq ostobga qo'yib qo'yish yoki bemorning holatini hisobga olgan holda shifobaxsh giyohlarning qaynatmalarindan qo'shish mumkin.

Suv muolajalarini qabul qilganingizda nimalar ro'y beradi? Tabiiy chiqindilarni chiqarish a'zolari va qorinning pastki qismi suvga botib turishi natijasida issiq badan bilan sovuq suv o'rtasida qarama-qarshi holat ro'y beradi. 36,6 S haroratdag'i qon sovuq suvdan gochib, tananing yuqori qismiga, boshga, qo'l-oyqolarga yo'l oladi. Shunday qilib, siz suv muolajasini qabul qilayotganingizda, qorinning pastki qismi va chiqaruv a'zolari ortiqcha qonlardan xalos bo'ladi. Bu a'zolar esa suv muolajasi paytida dam oladi.

Shu o'rinda bir narsaga e'tibor berish kerak: suv muolajalari paytida chiqaruv a'zolari atrofida yuz beradigan yoqimli His hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan umurtqa pog'onasiga ta'sir qiladi. Umurtqa pog'ona, uning yuqorisida butun asab tarmoqlarini boshqarib, oziklantirib turuvchi orqa miya joylashgan. Agar siz daraxtning tagiga suv quysangiz, suv butun tanasiga yoyilib, har bir barg va shoxlarga hayot in'om etgandek, suv muolajalari ham orqa miyaga shu yo'sinda ta'sir o'tkazadi. Orqa miya asab tarmoqlaridan, yurak, o'pka, buyrak, hazm a'zolari, siyidik yo'llariga ham o'ziga xos ta'sir o'tkazib, ularning faoliyatida ijobjiy o'zgarishlar yuz beradi.

Jinsiy a'zolar atrofida organizmning muhim asab tolalari bor. Bu yerda, ayniqsa, orqa miyaning asab tolalari juda ko'p bo'lib, jinsiy a'zolarga ta'sir o'tkazilishi organizmning barcha asab tarmoqlarida aks-sado beradi. Shuning uchun suv muolajasini o'tirib olish betakror xususiyatga ega bo'ladi.

Suv muolajalarining dastlabki kunlarida bemorga toshma toshishi, revmatizm zo'rayishi, siyidik tutolmaslik, ich ketishi yoki aksincha ich qotishi kabi holatlar yuzaga kelishi ehtimoli bor. Umuman, odam o'zini yomon his qila boshladimi, demak, buni davolashning foydali nishonalar deb bilishi kerak.

Suv muolajalarini qabul qilayotganda go'shtsiz ovqatlarni iste'mol qilinsa, ko'p kasalliklardan xalos bo'lish mumkin.

#### **YER**

Yer juda katta hayotiy qudratga ega. Biz bunga ko'nikib ketganmiz va bu haqda o'ylamaymiz ham. Yer turli unsurlar - quyosh, havo, suvlardan quvvat olib, o'z bag'rida o'simliklarni, mevalarni yetishtiradi, buning biz uchunligini ham vaqt vaqt kelsa unutib qo'yamiz.

Ibtidoiy xalqlar yerning ajoyib xususiyatlarini yaxshi bilishgan va ichki hamda tashqi a'zolarni davolashda undan omilkorlik bilan foydalanishgan. Misol uchun, kesak yeyish odati ko'p xalqlarda keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, issiq mamlakatlarda: Xitoy, Hindiston, Misr va Janubiy Amerikada ommaviylashgan. Kesakning tabiiy xususiyati nafaqat insonlar, balki jonzotlar orasida ham qadrlanadi. Uy yoki yovvoyi hayvonlar kasal bo'lib qolishsa, kesak yeyishadi va tuproq, balchiq, qumga ag'anashadi.

Yaqin va O'rta Sharqda "eg'uastone" so'zini yaxshi bilishadi - bu svuda eritib tayyorlangan va yong'oqqa o'xshab yumaloqlangan loy bo'lib, juda ko'p kasalliklarga qarshi qo'llaniladi.

Zamonaviy tibbiyot ham loyning davolash xususiyatiga e'tibor bilan qaramoqda. Loy Germaniya va Shveysariyadagi kasalxonalarda sil kasalligi bilan xastalangan bemorlarni davolashda dori-darmon o'rniда qo'llanilmoxda. Shveysariyadagi Davos sihatgohida og'ir o'pka kasalligini davolashda ham loy qo'llanilmoxda. Hatto, loy sil xastaligi bilan bir qatorda, saratonga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, dunyodagi ko'pgina shifoxonalar va sanatoriyalarda balchiq bilan davolash keng qo'llanilmoxda.

Loy, kesak, balchiq va tuproq o'zining shifobaxshlik xususiyatiga ko'ra xalq tabobatining davolovchi usullari orasida yetakchi o'rirlardan birida turadi. Shuning uchun respublikamizda o'ziga xos bo'lgan tuproq terapiyasi va balchiq bilan davolash usullari borasida alohida to'xtalishni ma'qul topdik.

#### **BALCHIQ BILAN DAVOLASH**

Balchiq bilan davolashda bemorning xastalangan ichki va tashqi a'zolariga jismoniy, kimyoviy, hamda issiqlik bilan ta'sir qilinadi.

Issiqlik ta'siridagi muolajalar balchiq bilan davolash usulining umumiyo mazmun-moxiyatini belgilaydi. Yuqori issiqlik sig'imi, issiqliknini ushlab turish xususiyati, ma'lum miqdorda issiqlik o'tkazish va balchiq turiga ko'ra uning organizmiga issiqliq ta'siri bir xil emas va tarkibidagi kimyoviy moddalar xususiyati organik hamda noorganik moddalarning o'zaro aloqadorligi bo'yicha aniqlanadi. Bu muolajalarda balchiqning

o'ziga xos issiqlik chegarasi nazarda tutiladi:

- a) sulfitli loyqa balchiq      44°S;
- b) chirindili balchiq      46°S;
- v) botqoqli balchiq      48°S.

Modda almashinuvি jarayonlarining tezlashishi, to'qimalarda haroratning ko'tarilishi, o'tkazuvchanlikning me'yorlashuvi, tomirlarning kengayishi, tomirlardagi qon harakatining yaxshilanishi, barcha-barchasi balchiq bilan davolash usulidagi issiqlik omili ta'sirida kuzatiladi.

Jismoniy ta'sir usulida davolashga balchiq vannalari hamda jinsiy a'zolarni (qin va orqa chiqaruv teshiklariga tamponlar qo'yish) muolajalarini kiradi. Balchiqni chaplashda uning qalinligi 4-5 smdan kam bo'lmasligi shart.

Balchiqda organik va noorganik birikmalar tarkibidagi kimyoiy biologik faol moddalar minerallashuvi mikroelementlar, gazlar va boshqa omillar orqali aniqlanadi.

Tayanch-harakat a'zolarining, markaziy va periferik asab tarmoqlarining shikastlanishi yoki kasalliklariда; ayollar va erkaklar jinsiy a'zolari xastaliklariда; quloq, tomoq hamda burun og'riqlarida; ko'z va teri kasalliklariда; kuygan hamda sovuq olgan joylarni davolashda balchiq muolajalarini keng qo'llaniladi.

#### **TUPROQ VA QUM BILAN DAVOLASH**

Tuproq muolajasi O'zbekiston zaminida o'ziga xos bo'lgan eng sodda, eng qulay, eng samarali davolash vositasidir. O'zlashtirilmagan yerlardagi, adirliklardagi tuproq quyosh nuriqa obdan to'yingan bo'lib, ularda hayotbaxsh quvvat manbalari mavjud. Xalqimizning o'zi ham buni yaxshi bilgan va turli xastaliklarni davolashda juda qadim zamonalardan buyon tuproqdagi quvvatbaxsh manbadan omilkortlik bilan foydalangan.

Ayni zamonda zamonaliv tibbiyatda ham quyosh nurlariga to'yingan tuproq va qum, tarkibida turli elektromagnit to'lqinlari, infraqizil, ultrabinafsha, ko'zga ko'rindigan va kurinmaydigan nurlar mavjudligini olimlar isbotlashgan.

Qaynoq qum va tuproq oyoq kaftlaridagi, yuzasidagi va yon tomonlaridagi biofaol nuqtalar orqali organizmnинг yuqori qismiga, ya'ni masofadan turli jismoniy va davolovchi ta'sir o'tkazadi. Tuproqda yalangoyoq yurib davolanish mutaxassislar tomonidan biologiya, biofizika va tibbiyotning eng nozik va o'ziga xos jarayonlaridan biri, deb e'tirof etilmoqsa. Chunki oyoqdagi biofaol nuqtalar butun organizm ichki va tashqi a'zolarini, undagi tarmoqlarni nazorat qilib turadi.

#### **TUPROQ BILAN DAVOLASH**

Inson organizmida turli jarayonlar to'xtovsiz ro'y beradi va ular hayron qolarli tarzda murakkab, ayni chog'da bir-biriga uzviy bog'langan kimyoiy zanjirlar majmuasiga o'xshaydi. Masalaga yana ham chuqurroq yondashilsa, bu kimyoiy jarayonlarda bevosita zarur va boshqa birlashmag'a aylanishi lozim bo'lgan tarkibiy qismlardagi ortiqchalik yoki yetishmaslik oqibatidir. Xuddi shu hodisa tabobat tilida turli xastaliklar

deb nomma-nom aytildi, masalan: turli a'zolarda tosh yig'ilishlari, tomirlar vazifasidagi buzilishlar, ichki sekretsya bezlari faoliyatidagi o'zgarishlar, allergik, teri-tanosil xastaliklari va boshqalar.

Yodda tutish zarurki, inson organizmida ro'y berayotgan juda ko'plab modda almashinuv jarayonlari badanning issiqlikda toblanish ta'siri ostida ro'y beradi. Issiqlik miqdori inson tanasiga bir me'yorda quyilib yoki yetarli bo'lib turmasligi ham juda ko'p xastaliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Yosh va yoshi o'tgan odamlarning tanasidagi harorat bir xil bo'lishiga qaramasdani - - ulardan chiqadigan isssshukh oqimi turlichadir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 12 yashar bola bilan 80 yoshli kishi tanasidagi harorat bir xil bo'lishiga qaramasdani nurlanish oqimi o'lchanganda, yosh organizmda 10- 20 marotaba yuqori natijani ko'rsatadi. Shuningdek, immuniteti kuchsizlangan yoki og'ir xastalangan, yoxud o'lim to'shagida yotgan shaxslar tanasida quyosh nuridan olinadigan harorat miqdori juda pasayib ketganligi aniqlangan.

Organizmdagi xastalikka qarshi kurashuvchi -- immunitetning tabiiy jarayonlarini faollashtirish, mustahkamlash uchun quyosh nuridan keladigan issiqlik nihoyatda hayotbaxsh quvvatga ega ekanligi bugungi kunda mutaxassis olimlar tomonidan juda ko'p mamlakatlarda e'tirof etilmoqda.

Quyosh nurining hayotbaxsh quvvatiga to'yingan tuproqda yalangyoq yurilganda nafaqt organizmnинг issiqlikka bo'lgan talabi qondiriladi, balki aytib o'tganimiz kimyoviy zanjir orqali bu hodisa ichki a'zolardan bir-biriga ulanib o'tarkan, ko'plab xastaliklar barham topadi. Avvaliga quyosh nurining issiqligiga talabgor bo'lgan organizm asta-sekin, ya'ni bir-necha marta biomaydonini kuchaytiradi va immunitetni faollashtiradi. Gomeostaz me'yorlashadi, tushkun kayfiyat yo'qoladi, umumiy holat barqarorlashadi, uyqu, ishtaha, shuningdek, ichki a'zolardagi buzilishlar va qon aylanish tarmoqlari izga tushib, mustahkamlanadi.

### **ISSIQLIK ALMASHINISHI VA MUOLAJA**

Issiqlik almashinuvini inson organizmida asosan uch yo'l bilan amalga oshadi:

1. ATF hosil bo'lishi.
2. Glikoliz.
3. Kreatinfosfatli jarayonlar.

Kreatinfosfatli jarayon juda qisqa, atiga 6-9 soniya davom etadi. Bu jarayon o'ta yuqori tezlikdagi ishlarni bajarishda (yaqin masofaga yugurish, balandlikka sakrash, og'ir yuk ko'tarish va boshqa holatlarda) katta miqdordagi energiyaning birdan ajralib chiqishi bilan xususiyatlidir.

ATF - almashinuvini organizmda doimo kislorod ishtirokida kechadi.

Glikolizli almashinuv glikogenning kislorodsiz parchalanishi hisobiga ro'y beradi. Inson tanasi xastalanganida ko'pincha issiqlik almashinishing shu turi amalga oshadi. Glikolizda me'da osti bezi inkretor xususiyati katta ahamiyatga egadir. Me'da osti bezi gormoni-

insulin glyukozani hujayra membranasidan olib o'tib, hujayrada energiya hosil bo'lishini ta'minlaydi. Hujayrada glyukoza parchalanishi uchun ma'lum energiya sarflanadi, lekin 4 barobar ko'p quvvat hosil bo'ladi, bu esa hujayradagi va butun organizmdagi moddalar almashinivi me'yorda kechishi uchun asos bo'ladi. Ayniqsa, issiqlik almashinishi uchun glyukozadan foydalanadi. Agar organizm 50% glyukoza iste'moliga zoriqsa, asab tarmoqlariga uning 20- 30% sarflanadi. Asab tarmoqlariga glyukoza har soniyada zarur, zero davolanish paytda asab tarmoqlari birlamchi xususiyat kasb etadi. Endi me'da osti bezi faoliyatini mustahkamlash nima uchun zarurligini tushungan bo'lsangiz kerak.

Ikkinci issiqlik manbai yog'lar. Faqt yog'lar va glyukozaning issiqligi turli a'zolarda turlicha. Misol uchun yurak o'ziga zaruriy issiqlik energiya sifatida yog' kislotalarini talab qiladi. Skelet muskullariga esa glyukoza faqt harakatga keltirish uchun zarur bo'lib, ularning asosiy faoliyatini yog' kislotalari energiyasi hisobiga bo'ladi.

Me'da osti bezi faoliyatini mustahkamlash quyosh nuri energiyasi ta'sirida, ya'ni oyoq kaftidagi, yonidagi, yuzlаридаги asab tomirlari orqali - masofadan issiqlik yuborish hisobiga amalga oshiriladi. Quyosh nuri bakteriya va zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatib, hujayralarining bo'linish jarayonini to'xtatib qo'yadi, demak, infeksiya batamom zararsizlantiriladi.

### **TO'QIMA VA A'ZOLARNING O'ZARO ALOQASI**

Ayrim hollarda to'qimalardagi biokimyo jarayonlarning cheklangan miqdorini tashkil etishi to'qimalar faoliyatini chegaralab qo'yadi. Bunga misol tariqasida, glyukozalarda anaerob parchalanishning qo'zg'ovchi eritrotsitlarni olish mumkin. Boshqa hollarda to'qimalar multifermentlari anabolizm, katabolizm jarayonlarida qatnashib, uglevodlar, yog'lar va oqsillarga aylanib, boshqa metabolik vazifalarni ham bajaradi.

Modda almashinivi jarayonlari birinchi navbatda jigarda amalga oshadi, ayrim jarayonlar yana boshqa a'zolar va to'qimalarda ro'y beradi: fosforillangan glyukozalar hosil bo'lishi va glyukogenezi - jigar va buyrakda, lipogenez - yog' to'qimalarida, xolesterin sintezi -- me'da-ichak yo'llaridagi shilliq qavatlarda amalga oshadi.

Turli-tumanligi va moslashuvchanligiga ko'ra hech bir a'zo jigarga tenglasha olmaydi. Unda butun organizmiga ta'sir qiluvchi murakkab kechuvchi, bir-biriga bog'langan moddalar almashinishi jarayoni ro'y beradi.

### **JIGAR**

Jigar tashqi sekretor organ bo'lib, o'tni me'da-ichak yo'llariga ajratib chiqaradi. O't suyukligi yog'larning parchalanib hazm bo'lishida, ichaklar peristaltikasining normal kechishida, hazm jarayonida katta o'rın tutadi. O't kislotalari tuzlari steroidning oksidlanishida bosh mahsulot hisoblanadi. Ular ichaklarda qayta so'rilib, o'tni qayta hosil bo'lishiga asos bo'ladi. Shuningdek, xolesterinni jigar to'qimasida oksidlaydi.

Jigarda ichaklarda so'rigan metabolitlar asosida:

1. Glyukoza va glikogen hosil bo'ladi. Hujayralar, ayniqsa, nerv va mushak hujayralarining energiyaga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi.

2. Triglitseridlar -- yog' to'qimasining lipogenez hisobiga to'yinmagan yog' kislotalari sintez qilinadi.

3. Keton tanachalari--qonda qandning ko'payishi, to'la oksidlanmagan yog' va glyukoza mahsulotlari ortib ketishi, atsidoz, gipoksiya holatlarida paydo bo'lувchi moddalar jigarda parchalanib, zaharsizlanadi.

Xulosa qilib aytganda, jigarda yig'ilgan metabolitlarning boshqa to'qimalarga biokimiyoviy ta'sir qilishi yaqqol ko'rinish turibdi. Bundan tashqari, jigar albumin sintezi, zardobli lipoproteidlar, qon ivishi omillari, shuningdek, yana boshqa asosiy moddalar va azot almashinuvlarini turli to'qimalarda amalga oshishi uchun mas'uldir.

### **JIGAR VA BOSHQA TO'QIMALARDAGI MODDA ALMASHINISHI JARAYONLARIDAGI ALOQADORLIK**

Jigardan tashqaridagi to'qimalarda ayrim metabolik holat ko'zga tashlanadi. Quyosh nuriga to'yingan tuproqda yalangoyoq yurganda tanaga yuborilayotgan issiqlikning asosiy ta'siri (glikoliz, fosforli oksidlanish, yog' kislotalarining oksidlanishi), shuningdek, muhim biosintez jarayonlari (oqsil sintezi, nuklein kislota, lipogenez va glyukogenez) boshqa to'qimalarda ham amalga oshiriladi, faqat ularning faoliik darajasi o'ziga xos tarzda har xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun jigardagi moddalar almashinuvni jarayonida bu to'qimalarning mas'ulligi ko'p hollarda gomeostaz va me'yoriy vazifalar ta'minotida katta ahamiyat kasb etadi.

### **YOG TO'QIMALARI VA JIGAR**

Jigardagi va yog' to'qimalaridagi yog' almashinuvni jarayonlari bir-biriga bevosita bog'liq. Jigar to'qimalarda yig'ilgan triglitseriddar yog'larning asosiy manbai xisoblanadi. Bu triglitseridlar jigarning o'zida yangidan hosil bo'lgan triglitseridlardir. Triglitseridlar hamda yog' to'qimalaridagi yog' kislotalarning sintezini uglerod atomlari bilan glyukoza ta'minlab turishi, hamda qonda glyukoza me'yori maromda bo'lishi uchun jigarning asosiy vazifani bajarishi hisobiga jigardagi modda almashish jarayonlaridan yog' zahirasidagi lipogenez ikki bora tobedir.

### **MUSKULLAR VA JIGAR**

Muskul va jigar to'qimalarida moddalarning almashinuvni jarayonlari bir-biriga bevosita bog'liq. Masalan, odam me'yordan ortiq ovqat yeganda jigar va muskul to'qimalari glyukozani qon aylanishidan chiqarib tashlaydi, bu esa ularda ortiqcha glikogen hosil bo'lishiga olib keladi.

Ovqatni me'yordan kam iste'mol qilish esa jigarda glikogenning yemirilishiga olib keladi. Faqat qonga yetib boradigan glyukozalargina bundan mustasno bo'lib, u qonga oqib boraveradi.

Uzoq vaqt och qolganda, muskullar katabolizmga uchrab, skelet muskullari aminogruppalarini ko'chirish orqali ko'p miqdordagi piruvatlarni alaninga aylantiradi va alanin jigardagi glyukogenez uchun uglerod manbai sanalmish laktat o'rniga xizmat qila boshlaydi. Bu

laktatning glyukozaga aylanishida jigar va skelet muskullari mitokondriyalarga boy va laktatdegidrogenez fermentlar tarmog'iga ega bo'lgan aerob to'qimalar holida laktat iste'moliga moyildir, faqat uni hazm qila olmaydi.

### **BUYRAK VA JIGAR**

Glyukoneogenez jarayoni buyrakda jigardagi kabi amalga oshadi, faqat buyrakdagi barcha glyukozalarning kam qismigina (masalan, o'ndan biri) generatsiya bo'ladi. Lekin jigar faoliyatidagi o'zgarishlarda yoki aminokislotadan a-ketokislotagacha bo'lgan atsidoz sharoitida glyukoneogenezga qo'shgan hissasi birmuncha ortadi.

Organizmdan chiqarib tashlanadigan vodorod ionlarini neytrallash uchun jigardan kelayotgan, ammiak manbai bo'lib xizmat qiluvchi glutaminga buyrak bevosita tobe bo'ladi. Boshqa tomondan, jigar ishlashi buyrakning organizmdan keraksiz narsalarni chiqarib tashlashiga tobe, ya'ni peshob chiqarilishini ta'minlash va qon aylanishidagi moddalar almashinishi davomida, jigar ishlab chiqaradigan mahsulotlar - oqsillar, aminokislotlar va glyukozalarning saqlab qolinishi bir-biriga o'zaro bog'liq.

### **MIYA VA JIGAR**

Miya to'qimalari ham boshqa a'zolar kabi jigar bilan modda almashinishi jarayonlarida uзви bog'langan holda ishtirot etadi. Avvalo, jigar saklanuvchi glyukozalarni to'xtovsiz yetkazib berilishida miyadagi nerv to'qimalariga tobedir. Katabolizm jarayonida glyukozalar:

1. Qo'zgalish jarayonida miya to'qimalarida ionlarni bevosita faol ko'chirilishi uchun energiya hisoblanadi.
2. Lipidlар, mielinlar va atsetilxolinlar sintezi uchun atsetil KoA.
3. Glutamat, gammaaminobutirat (GAMK) va boshqa aminokislotalarning uglerod zanjirlarini tashkil etish uchun mahsulotlar ishlab chiqariladi.

### **UMURTQA POG'ONASI**

Har qanday zaharlanish - yuqumli xastaliklar, toksinlar, metall ionlari, gaz, ruhiy iztiroblar va shu kabi holatlar gormonlar muvozanatiga zarar yetkazib, tomirlarda tijinlar paydo qiladi va qon aylanishi tarmoqlarida turli xildagi buzilishlarga olib keladi. Bu jarayon birinchi navbatda umurtqa pog'onasiga ta'sir ko'rsatadi. Plastik hamda energetik materiallar va to'qimalarda, a'zolarda, hujayralarda kislorod yuborishni iloji bo'lmaganda, a'zolardan keraksiz mahsulotlarni chiqib ketishi, oziqlanish, ularning boshqarish tarmog'i buzilishiga olib keladiki, oqibatda, miyada kislorod yetishmovchiligi (gipoksiya)ga va asosan uning qobig'iga ta'sir qiladigan xastaliklar kelib chiqadi.

Umurtqa pog'onasi skeletning asosi bo'lib, tanani turg'un holatda tutib turadi va egiluvchanligiga xizmat qiladi. Umurtqa pog'onasi umurtqalarning ustma-ust qo'shilishidan vujudga keladi. Uning bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum bo'limlari bor. Boshni ushlab turadi, tananing tayanchi hisoblanadi. Umurtqa pog'onasi tufayli odam tik turadi,

orqa miyani ezilishdan, cho'zilishdan saqlaydi. Umurtqa jami 33 yoki 34 ta bo'lib, har biri qo'shnisi bilan 3 nuqta orqali tutashadi, ya'ni ikkitasi bo'g'im o'simtalari va bittasi (markaziy)- umurtqa tanalari orasida. Har bir yoki ikki umurtqalar orasida bukuluvchan 23 ta disk joylashgan. Disklar uch xil vazifani bajaradi: umurtqalarni biriktiradi, umurtqa pog'onasining egiluvchanligini ta'minlaydi va jismoniy zo'riqishda umurtqalarni shikastlanishdan saklaydi. Disklarning yuk tushganida siqilishga qarshiligi juda hayratomuz. Misol uchun 100 kg og'irlik tushganda diskning umumiy balandligi 1,4 mm ga kichrayadi, xolos. Eniga ham xuddi shu tarzda atigi 0,75 mm ga kengayadi, xolos. Ayni chog'da, umurtqa pog'onasining egiluvchanligi va mustahkamligi diskning o'zgaruvchanligiga bog'liq. Diskning o'zgaruvchanligi liqildoq yadro to'qimasiga bog'liq. Liqildoq yadro to'qimasida yosh o'tgan sari suv miqdori kamayib boradi, ya'ni voyaga yetganlarda 83%, qariyalarda 70% gacha kamayadi. 50 yoshdan boshlab liqildoq yadro yopishqokligini yo'qota boshlaydi. Modda almashinish jarayoni sekinlasha boradi. Agar 12-13 yoshlarda qon tomir ta'minoti diskning qon bilan ta'minlanishi sustlasha borsa, 23-27 yoshlarda qon tomir ta'minoti batamom tugallanadi. Endi diskning oziklanishi harakat va yuklanish ta'sirida o'zgaruvchan umurtqalar gialin qatlami orqali diffuz yo'l bilan amalga oshiriladi.

Umurtqa pog'onasi xastaliklari orasida osteoxondroz birinchi o'rinda turadi. Osteoxondroz kasalligi skeletning hamma suyaklari tog'aysimon qismida rivojlanishi mumkin. Osteoxondroz har xil nevrologik asoratlarga olib kelishi mumkin.

Organizmdagi murakkab moddalar almashinishi jarayonlarining o'zaro uyg'unligini, kimyoviy va biokimyoviy hodisalarini nazorat qiluvchi asosiy biofaol nuqtalar oyoq kafti, yuzasi va yon tomonlarida joylashgan. Yalangoyoq yurganda yoki tuproqqa ko'milib yotganda, o'sha nuqtalarga quyosh nuriga to'yingan qaynoq tuproq kuchli shifobaxsh ta'sir qiladi.

Issiq tuproq ayollar va erkaklar organizmida ro'y beradigan biojarayonlar, ularning gormonal tarmoqlari uchun kuchli katalizator yoki inkubator vazifasini o'taydi. Barcha surunkali yallig'lanish jarayonlarining qayta qo'zg'alishi oldi olinadi yoki butunlay barham beriladi. Ayniqsa, ayollardagi salpingooforit va boshqa bir qator jinsiylar xastaliklarga, erkaklardagi mizoj sovuqligi, qo'l-oyoq og'riqlari, bod (revmatizm)ga qaynoq tuproqni kechib, oyoqdagi biofaol nuqtalar orqali shifo ato etish mumkin.

Tuproq bilan davolanish gormonlar, fermentlar va organizmdagi energiya manbai me'yorini ta'minlaydi hamda o'sha holatdagi turg'unligini tutib turadi. Biokimyo, fiziologik va murakkab modda almashinishi izdan chiqqan jarayonlarini me'yorashtiradi, hamda organizmnning bekamu ko'st ishlashini ta'minlab, uni nazorat ham qiladi.

Quyosh nurining shifobaxsh magnitiga to'yingan tuprokda yalangoyoq yurish yo ko'milib yotish quyidagi kasalliklarga shifo bo'ladi:

- biriktiruvchi to'qimalar tarmoq xastaliklari;

- umurtqa pog'onasi kasalliklari (osteoxondroz, umurtqa churrasi (grija), Bexterev kasalligi);
- me'da-ichak tizimi kasalliklari (me'da va 12 barmoqli ichak yaralari, disbakterioz va hokazo)ga;
- nafas a'zolarining xastaliklariga;
- jinsiy a'zolar xastaliklariga;
- allergik kasalliklar (pollinozlar, bronxial astma, atopik dermatit)ga;
- bakterial infeksiyon xastaliklarga;
- virus, mikotik va parazitlar kelib chiqishli xastaliklariga;
- teri kasalliklari, (yiringli shikastlanish, psoriaz, go'sh (ekzema), tropik yara va hokazo);
- endokrin kasalliklar, (qandli diabet, bo'qoq);
- ruxix kasalliklarga, (epilepsiya, shizofreniya, nevroz, tashrixdan keyingi holatlar);
- ko'z kasalliklariga, (glaukoma, katarakta);
- turli xil xavfli va xavfsiz o'smalarga;
- yurak-tomir xastaliklariga, (stenokardiya, gipertoniya, insult, endoarterit, vena tomirlarining varikoza kengayishi);
- markaziy va periferik asab tizimi kasalliklariga (bolalar cerebrafalagi) va hokazo.

Tuproq muolajasi uchun O'zbekistonda eng qulay vaqt soat 14 dan 17 gacha. Ushbu risola mualliflari adirlik joydagi o'zlashtirilmagan tuproqni kimiyoiy tekshirishlardan o'tkazganlaridan so'ng muolaja uchun maxsus maydon tashkil etildi. Odamlar davolash maydonida belgilangan vaqt bo'yicha, ustki kiyimlarini yechmay, yalangoyoq 40-60 daqiqa tuproq kechishadi. Tuproq muolajasidan so'ng 1-2 soatgacha yuvinish, qo'l-oyoqni sovuq suvgaga solish, muzdek beton va suv sepilgan joylarda yurish man etiladi. Chanqoqqa iliq dog' suv ichiladi. Sovuq suv, muzxonada sak^langan sovuq ovqat yoki mevalarni iste'mol qilishga ruxsat berilmaydi.

Bu muolajalar 10 yil davomida olib borildi va unda 21 mingdan ortiq odam qatnashdi, jumladan, 7,5 ming erkak va 14,5 mingga yaqin ayollar hamda bolalar davalandi.

### **YOQDAGI REFLEKS ZONALARINING AUTOMASSAJI ASOSIDA GRUNTOTERAPIYA**

Inson tanasida sezuvchanligi yuqori bo'lgan zonalar — refleksogen zonalarni mavjudligi klinik va eksperimental tekshirishlar natijasida aniqlangan. Bu shunday markazlashgan og'riq zonalaridirki, ularga tananing zararlangan a'zo va qismlaridan xabar yetib keladi va aksincha, refleksogen zonalarga uzoq ta'sir qilish tananing ma'lum bir qismini yoki a'zosining tegishli javobini yuzaga keltirishi mumkin. Barcha refleksogen zonalar umumiyl qonunga buysunadi - - ular funksional jihatdan eng ko'p tabaqlangan (burun shiliq qavatida, qulqoqa, kaftda, oyoq kaftida, ko'zning rangdor pardasida va boshqalar) sohalarda joylashgan. Ular asosida umumiyl refleksogen mexanizmlar yotadi.

Qadimdan turli xil kasalliklarni inson tanasininig turli qismlarini

massaj qilib davolaganlar.

Oyoq kafti innervatsiyasi bel va dumg'aza nerv boyqlarining uzun shoxchalari yordamida o'tkaziladi. Oyoq kafti yuza qismini teri osti nervi, medial sohasini ~ lateral yuza teri nervi innervatsiya qiladi. Oyoq kafti pastki yuzasi teri va muskullarini boldir nervini yakuniy oxirlari bo'l mish medial va lateral oyoq kafti pastki yuzasi nervi innervatsiya qiladi. Teri bezlari va oyoq kafti qon tomirlarini vegetativ asab tizimining simpatik qismi oraliq lateral bog'lam L<sub>1</sub> — L<sub>2</sub> (spinal gangliya oldi hujayra), bel va dumg'aza gangliyalarini (periferik gangliya orqa hujayra) bilan innervatsiya qilinadi.

Oyoq kafti terisida simpatik nerv tolalari joylashgan, ular teri bezlari va silliq muskullarni innervatsiya qiladi. Sezuvchi nervlarining oxirlari epidermisda ko'proq teri va teri ostida yotadi. Epidermisda og'riqni qabul qiluvchi sezuvchi hujayralar va nerv oxirlari yotadi. Teri so'rgichlarida sezuvchi tanachalar (Meyssner tanachalari) mavjud. Bu tanachalarning hammadan ko'pi oyoq va qo'l barmoqdari kaft yuzasida joylashgan, ayniqsa, barmoq uchlarida ko'p.

Oyoqning yuza arteriyasi (oldingi boldir arteriyasining davomi), medial va lateral oyoq kafti ichki yuzasi arteriyalari, orqa katta boldir arteriyasining yakuniy shoxchalari yordamida oyoq kaftini qon bilan ta'minlaydi. Oyoqning rivojlangan venoz turi esa boldirning teri osti venoz yoyiga, so'ng orqa katta boldir venasiga kelib qo'shiladi.

Oyoq kafti refleksogen zonalarining massaji sezgir va og'riqli nerv oxirlariga, sezuvchi tanachalarga, simpatik nerv tolalariga pressor ta'sir qiladi. Reflektor ta'sirning mexanizmi impulslarini somatik va simpatik nerv tizimini efferent yo'llar orqali bosh miyaga, reflektor zonating qaysi biri uqalanayotganiga qarab, tananing tegishli a'zo va qismlariga o'tishi bilan ta'minlanadi.

1-jadvalda oyoq kafti refleks zonalarini ko'rsatidgi.

1-jadval

**Oyoq kafti refleks zonalarini, harfli va raqamli belgilanishi.**

Refleks zonalarining nomi	Harfli, raqamli belgilaishi	Refleks zonalarining nomi	Harfli, raqamli belgilaishi
1	2	3	4
O'ng oyoq kafti pastki yuzasi (yoq kafti, o'ng oyoq kafti)	UOK	Me'da O'nikki barmoqli ichak Quyosh chigali	ChOK 15 ChOK 16 ChOK 17
Bosh, chap yarmi Peshana bo'shlqlari, chap yarmi	UOK 1 UOK 2	Buyrak ubti bezi, chap tomon Yurak	ChOK 18 ChOK 19
Miya asosi, kichik miya	UOK 3	Me'da osti bezi	ChOK 20
Gipofiz	UOK4	Chap buyrak	ChOK 21

Chakka suyagi, chap bo'lagi	UOK 5	Siydik yo'li, chap tomon	ChOK 22
Uch boshli nerv	UOK6	Siydik pufagi	ChOK 23
Burun	UOK 7	Ingichka ichak	ChOK 25
Ensa	UOK 8	Yo'g'on ichakning pastga tushuvchi qismi	ChOK 26
Qulqoq, chap	UOK9		
Paratireoid bezi	UOK 10	To'g'ri ichak	ChOK 27
Trapetsiyasimon muskul	UOK 11	Orqa peshov	ChOK 28
Qalqonsimon bez	UOK 12	Taloq	ChOK 29
O'pka va bronxlar, o'ng tomon	UOK 13	Jinsiy bezlari (yorg'oq, tuxumdonlar)	ChOK35
Elka, o'ng tomon	UOK 14	Oyoq kafti yuza qismi	
Me'da	UOK 15	(oyoq kafti, yuza qismi)	OKYU
O'n ikki barmoqli ichak	UOK 16	Tananing yuqori qismi	
Quyosh chigali	UOK 17	limfa bezlari	OKYU 39
Buyrak usti bezi, o'ng tomon	UOK 18	Tananing pastki qismi limfa bezlari (o'ng oyoq kafti yuzasi)	OK Yu 40
Me'da osti bezi	UOK 20	Tananing ko'krak	
O'ng buyrak	UOK 21	qafasi limfa yo'li	OK Yu41
Siydik yo'li, o'ng tomon	UOK22	Vestibulyar apparat	
Siydik pufagi	UOK 23	(muvozanat a'zosi)	OKYu42
Yo'g'on ichak	UOK 24	Sut bezlari	OKYu 43
Ingichka ichak	UOK 25	Diafragma	OKYu 44
Jigar	UOK 30	Bodomsimon bez, to-	
O't pufagi	UOK 31	moq va tomoqning bu-	
		run qismi	OKYu45
Yo'g'on ichakning yuqori- ga ko'tariluvchi qismi	UOK 32	Pastki jag'	OKYu46
Heotsekal kanal	UOK 33	Yugori jag'	OKYu 47
Chuvalchangsimon o'simta	UOK 34	Oyoq kaffi lateral	
Jinsiy a'zolar	UOK 35	yuzasi (lateral oyoq yuzasi)	OKYu48
Chap oyoq kaffi pastki yuzasi (oyoq kaffi, chap oyoq kaffi)	CHOK	Chakka sohasi, uch shoxli nerv	LYu5
Bosh, o'ng yarmi.	chok	I Elka	LYu 14
Peshana bo'shilqlari,		Jinsiy a'zolar	LYu 36
o'ng yarmi	chok	> Kichik chanoq a'zolari	LYu 37
Burun	chok	6 Bachadon, prostata bezi	MYu 50
Ensa Ko'z, o'ng	chok	Olat, qin, siydik chi-	MYu 51
	chok	8 qarish nayi	MYu 52
Chakka suyagi, o'ng bo'lagi	chok	5 Chot	MYu49

Qulog, o'ng	chok	9	To'g'ri ichak	
Paratiroid bez	chok	10	Umurtqa pog'onasi	MYu 53
Trapetsiyasimon muskul	chok	11	bo'yin sohasi	
K'alqonsimon bez	chok	12	Umurtqa pog'onasi	MYu 54
O'pka va bronxlar, chap tomon			ko'krak sohasi	
Elka, chap tomon	chok	..	Umurtqa pog'onasi bel	MYu 55
			sohasi	MYu 56
			Dumg'aza va dum suyagi	

### OYOQ KAFTI SOHALARI, TOPOGRAFIYASI VA FUNKSIONAL AXAMIYATI

1. Bosh (katta yarim sharlar), chap tomon - O'OK.

*Joylashishi:* Ikkala oyoq kafti 1-barmoqlarida, barmoqning distal falangasi do'mboqchalarining o'rta qismida.

*Topografik anatomiysi:* Soha proeksiyasida oyoq kafti pastki yuzasi barmoq nervlari, arteriyalar va venalar joylashgan.

*Ko'rsatma:* Hamma organlar faoliyatining buzilishi, miya chayqalishi, bosh og'rig'i, migren.

2. Peshana bo'shliqlari, chap yarmi - UOK 2.

*Joylashishi:* Oyoq kaftining hamma barmoqlari do'mboqlarida.

*Topografik anatomiysi:* Bosh sohasini ko'ring.

*Ko'rsatma:* Peshana bo'shlig'ining yallig'lanishi va yiringlashi.

3. Miya asosi, kichik miya - UOK 3.

*Joylashishi:* 1-barmoq do'mboqchalarining lateral tomonidan pastki qismi.

*Topografik anatomiysi:* Bosh sohasini qarang.

*Ko'rsatma:* Bosh aylanishi, tik turish va harakatning buzilishi (statik va dinamik ataksiya), intensizion qaltirash, skandirlangan nutq, gipotoniya.

4. Gipofiz - UOK 4.

*Joylashishi:* 1-barmoq do'mboqchasining markazida, ikkala tomonda.

*Topografik anatomiysi:* Zona proeksiyasida oyoq kafti pastki yuzasi nervlari, arteriyalari va venalari joylashgan.

*Ko'rsatma:* Ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi.

5. Chakka suyagi chap bo'lagi, uch shoxli nerv - UOK 5.

*Joylashishi:* 1-barmoqning lateral tomonida.

*Ko'rsatma:* Chap chakka suyagi tomonida bosh og'rishi, migren,



76-rasm. O'ng oyoq kafti (O'OK) pastki vuzasi.

chap tomonlama uch shoxli nervning birinchi va ikkinchi shoxi nevralgiyasi.

6. Burun - UOK 6.

*Joylashshii:* 1-barmoqning medial tomonida.

*Topografik anatomiysi:* UOK 5 sohasini ko'ring.

*Ko'rsatma:* Rinit, shuningdek, vazomotor rinit, gaymorit, burunning qonashi, burun qurishi.

7. Ensa - UOK 7.

*Joylashishi:* 1-barmoq 2-falangasini asosida, uning o'rtaidan boshlab, lateral tomonga to I va II barmoq burmalarigacha.

*Topografik anatomiysi:* UOK 5 sohasini qarang.

*Ko'rsatma:* Ensa va bo'yin orqasidagi og'riq, ensa nervi nevralgiyasi.

8. Ko'z, chap - UOK 8.

*Joylashuvi:* II va III barmoqlarning 2-falangasi asosida va yaqin joylashgan oyoq kafti pastki yuzasi do'mboqchalar.

*Topografik anatomiysi:* UOK 5 sohasini ko'ring.

*Ko'rsatma:* Govmichcha, govmichchasimon qattiklashish bilan qovoqning yiringli yallig'lanishi, konnyuktivit, ko'zning achishishi, yosh xaltachasining yallig'lanishi, g'ilaylik, katarakta, glaukoma, uzoqni yaxshi ko'ra olmaslik, uzoqni ko'rish.

*Texnikasi:* 20-30 daqiqa davomida kuniga 2-3 marta nuqtasimon uqalash yoki silab uqalamoq.

9. Qulq, chap - UOK 9.

*Joylashishi:* O'ng oyoq kaftida, oyoq kaftining IV va V barmoqlari asosiy falangalari sohasida, oyoq kafti pastki yuzasi dumboqchalarini egallagan holda.

*Topografik anatomiysi:* Soha proeksiyasida oyoq kafti pastki yuzasi barmoqlari nervlari, arteriyalari va venalari joylashgan.

*Ko'rsatma:* Qulq pardasining o'tkir yallig'lanishi, o'rta qulqning yallig'lanishi, qulqning shang'illashi (eshitish nervining yallig'lanishida), bosimning oshishi, qulq og'irligi.

*Texnikasi:* Har bir oyoq kafti pastki yuzasi sohasini kasallik tabiatiga qarab kuniga 3-4 marta, 5-10 daqiqa uqalanadi.

10. Paratiroid bez - UOK 10.

*Joylashishi:* 1-barmoq falangasi asosiy chuchurchasi sohasida oyoq kafti pastki yuzasi medial yoni.

*Topografik anatomiysi:* UOK 9 sohasini qo'ring.

*Ko'rsatma:* Paratiroid bezning giperfunksiysi, (tana suyaklaridagi o'zgarishlar), gipofunksiyasi (tirnoqlarning mo'rtligi), tishlar kariesi, ichaklar faoliyatining sustligi, qabziyat, boldir muskulining tortishishi, tomirlar spazmi, tomirlar mo'rtligi, uyqusizlik.

*Texnikasi:* 5-10 daqiqa davomida refleks sohalarni uqalash.

11. Trapetsiyasimon muskul, o'ng - UOK 11.

*Joylashishi:* UOK 8 va UOK 9 refleks sohalaridan pastda, UOK 7

sohasidan boshlanib, V barmoqning asosiy falangasini lateral qirg'og'igacha ingichka chiziq bo'lib o'tadi.

**Topografik anatomiysi:** Soha proeksiyasida oyoq kafti pastki yuzasi barmoqlari nervlari, arteriyalari va venalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Bel mushaklari mioziti, bel og'rig'i.

12. Qalqonsimon bez - UOK 12.

**Joylashishi:** UOK 8 sohasidan boshlanadi I-barmoq oldida, oyoq kaftining I va II oyoq kafti suyaklari o'tadi, I barmoq asosiy falangasi boshini aylanib o'tib, oyoq kafti pastki yuzasining medial qirg'og'igacha yetib boradi.

**Topografik anatomiysi:** Soha proeksiyasida oyoq kafti pastki yuzasi medial nervidan tarqalgan shoxchalar: umumiy oyoq kafti pastki yuzasi barmoqlari, arteriya va venasidan tarqaluvchi oyoq kafti pastki yuzasi nervi va shoxchalar.

**Ko'rsatma:** Qalqonsimon bez giperfunksiyasi va gipofunksiyasi, bo'qoq. Bo'qoqda refleks sohasini 6 oygacha uqalash lozim.

13. O'pka, bronxlar, o'ng tomon - UOK 13.

**Joylashishi:** Trapetsiyasimon muskul va qalqonsimon bez sohasidan pastda, oyoq kafti pastki yuzasi do'mboqchasiда.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti pastki yuzasi medial nervi shoxchalar, umumiy oyoq kafti pastki sohasi barmoq nervlari, oyoq kafti pastki yuzasi chuqur medial va lateral arteriya va venalari shoxlari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Io'tal, bronxit, zotiljam, bronxial astma.

14. Yelka, o'ng - UOK 14.

**Joylashishi:** O'pka sohasidan lateral tomonda, IV va V oyoq kafti suyaklari orasida.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti pastki sohasi barmoq nervlari va arteriyalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** O'ng yelka bo'g'iminining yallig'lanishi, og'riqni qo'lga tarqalishi bilan.

Me'da - UOK 15.

**Joylashishi.** Oyoq kafti pastki yuzasi medial tarafida, qalqonsimon bez sohasidan pastroqsa, aynan oyoq kafti I barmoqning asosiy falangasini boshchasi oldida.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti pastki sohasi chuqur medial nervi va arteriyasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Me'da yarasi, ko'ngil aynishi, qayt qilish.

16. O'n ikki barmoqli ichak - UOK 16.

**Joylashishi:** Me'da refleksogen sohasidan pastda, asosan o'ngda. Ba'zan qo'lga suyakkta o'xshash qattiqqlik unnaydi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti pastki yuzasi medial nervi va oyoq kafti pastki yuzasi chuqur medial arteriyasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** O'n ikki barmoqli ichakning yallig'lanishi va yarasi.

17. Quyosh chigali - UOK 17.

*Joylashishi:* Me'da sohasida oyoq kafti o'rtasida, II va III kaft suyaklari orasida, oyoq kafti pastki yuzasi do'mboqchalari ostida. Xuddi shunday soha chap oyoq kaftida ham bor - ChOK 17.

*Ko'rsatma:* Me'da va ichak faoliyatining neyrogen buzilishlari, me'da sohasiga zarba tegishi natijasida hushni yo'qotish.

18. Buyrak usti bezi, o'ng - UOK 18.

*Joylashishi:* Oyoq kafti o'rtasida, II va III oyoq kafti suyaklari orasida, quyosh chigali sohasining pastki va lateral yonlarida. Xuddi shunday soha chap oyoq kaftida ham bor. - ChOK 18.

*Topografik anatomiysi:* UOK 17 sohasini ko'ring.

*Ko'rsatma:* Yurak aritmiyasi, hushni yo'qotish, revmatizm, bronxial astma, bo'g'imiralar yallig'lanishi, arterial gipotensiya.

19. O'ng tomondagi sohasi yo'q.

20. Me'da osti bezi - UOK 20.

*Joylashishi:* Oyoq kafti medial yoni oldida me'da sohasidan pastda, I oyoq kafti suyagi o'rtasida (chap oyoq kaftida -ChOK 20)

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida oyoq kafti medial nervi, shoxchalari, oyoq kafti medial arteriyasi va venasining shoxchalari joylashgan.

*Ko'rsatma:* Qandli diabet, o'n ikki barmoqli ichak yarasi, me'da osti bezi yallig'lanishi.

21. Buyrak, o'ng - UOK 21.

*Joylashishi:* Oyoq kafti markazida, me'da osti bezi sohasi ostida.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida umumiy oyoq osti barmoq nervlari, oyoq kafti chuqur medial arteriyasi va venasining shoxlari joylashgan.

*Ko'rsatma:* Ateroskleroz, endarteriit, fibromiozit, revmatizm, artrit, artroz, psoriaz, buyrak-tosh kasalligi.

Xuddi shunday soha chap oyoq kaftida ham joylashgan - ChOK 21.

22. Siydiq yo'li, o'ng - UOK 22.

*Joylashishi:* Buyrak sohasidan boshlanadi, tovon boshining medial yoniga qarab, pastga o'tadi va oyoq kafti usti suyagi oldidan siydiq pufagi sohasiga kiradi. Xuddi shunday soha chap oyoq kaftida ham bor - ChOK 22.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida oyoq kafti medial nervi va arteriyasi hamda shoxchalarini joylashgan.

*Ko'rsatma:* Siydiq pufagining egilishi, yallig'lanishi va torayishi.

23. Siydiq pufagi - UOK 23.

*Joylashishi:* Oyoq kafti medial yoni bo'ylab, tovondan oldin oyoq kafti usti suyagi oddidan. Xuddi shunday soha chap oyoq kaftida ham mavjud - ChOK 23.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida oyoq kafti medial nervi va arteriyasi joylashgan.

*Ko'rsatma:* Siydiq pufagidagi sanchiq yoki spazm, yallig'lanish,

sfinkter bo'shlig'i, siyidik tutolmaslik. Buyrak, siyidik yo'li va siyidik pufagi sohasini uqalash modda almashinuvি buzilishida, arterial gipertenziyada va boshqa kasallikkarda ham ko'rsatilgan.

24. Chambar ichak, o'ng tomon - UOK 24, UOK 32-34.

Ko'richak, yuqoriga ko'tariluvchi va ko'ndalang chambar ichak, ichaklar o'ng tomonda joylashgan.

**Joylashishi:** Ko'richak va ko'ndalang chambar ichak sohasi, oyoq kafti lateral yoniga parallel joylashgan. Tovon suyagining yuqori qirg'og'idan boshlanadi, V barmoqning oyoq kafti sohasigacha boradi va to'g'ri burchak ostida burilib, oyoq kafti medial qirg'og'igacha boradi, yo'l kengligi - 1-1,5 sm.

**Topografik anatomiysi:** Zona proeksiyasida oyoq kafti medial nerv, arteriya va venasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Appenditsit, qorin bo'shlig'i pastki sohasining dam bo'lishni, qorin og'rig'i bilan o'tuvchi ichaklar atoniysi, ich ketishi, qabziyat.

25. Ingichka ichak - UOK 25.

**Joylashushi:** Yuqoriga ko'tariluvchi chambar ichak medial sohasi, kubsimon, qayiqsimon va uch ponasimon suyaklar proeksiyasi, pastki qismi ko'richak sohasi va siyidik pufagi sohasi yo'lidan o'tadi. Analogik soha chap tarafda ham joylashgan -ChOK 25.

**Topografik anatomiysi:** Yo'g'on ichak sohasini qarang.

**Ko'rsatma:** Enterokolit, kolit.

30. Jigar - UOK 30.

**Joshashishi:** Jigar sohasi 3,5 sm kenglikdagi maydonni egallaydi. Oyoq kafti lateral sohasidan 1 sm chetda joylashgan. Yuqori sohasi - UOK 13, medial sohasi - UOK 17, UOK 18, UOK 21, bu II va V oyoq kafti suyaklarining proeksiyasiga mos keladi. Jigarning refleksogen sohasi o't pufagi sohasi kabi faqat o'ng oyoq kaftida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Soha proeksiyasida oyoq kafti nervi, arteriyasi va venasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Gepatit, sariqlilik, uyqusizlik, o'ta toliqish, qo'zg'aluvchanlik, teridagi dog'lar.

31. O't pufagi - UOK 31.

**Joylashishi:** Jigar sohasida medial tarafda, 1,5 sm diametrda.

**Topografik anatomiysi:** Jigar sohasini ko'ring.

**Ko'rsatma:** xoletsistit, o't pufagi toshlari, sariqlilik.

32. Yo'g'on ichakning yuqoriga ko'tariluvchi qismi - UOK 32.

33. Ileotsekal kanal - UOK 33.

34. Ko'richak - UOK 34.

35. Jinsiy bezlar (tuxumdon va tuxumlar) - UOK 35.

**Joylashishi:** Tovon markazida. Analogik soha chap oyoq kaftida joylashgan - ChOK 35. Bundan tashqari, ChOK 36 sohasi.

**Topografik anatomiysi:** Soha proeksiyasida lateral oyoq kafti nervi va arteriyasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Og'riqpi hayz, hayzning buzilishi, bachadonning spazmatik qisqarishi, bepushtlik, epididimit, impotensiya, kriptorxizm.

**Chap oyoq kafti - (ChOK)** (Oyoq kafti pastki sohasi yuzasi: 76-6 rasmga qarang).

1. Bosh (katta yarim sharlar), o'ng tomon - ChOK 1.

**Ko'rsatma:** O'ng oyoq kafti bosh sohasiga (ChOK 1) qarang.

Chap oyoq kaftidagi ChOK 2 -- ChOK 18 sohalari (peshona bo'shlig'i, miya asosi, miyacha, burun, ensa, o'ng ko'z, o'ng qulqoq, paratiroid bez, trapetsiyasimon mushak, qalqonsimon bez, chap o'pka va bronxlar, chap yelka, me'da, 12 barmoqli ichak topografik anatomiyasini va ko'rsatmasi xuddi o'ng tomon UOK2-UOK18 sohalari kabi.

19. Yurak - ChOK 19.

**Joylashishi:** Chap oyoq kaftida, II va IV oyoq kafti suyaklari orasida.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti lateral nerv, arteriya va vena joylashgan.

**Ko'rsatma:** Stenokardiya, yurak infarkti, yurak sohasidagi sanchikli va siquvchi og'riq, hansirash, yurak aritmiyasi.

ChOK 20- ChOK 25 sohasi (me'da osti bezi, chap buyrak, chap siydiq yo'li, siydiq pufagi, ingichka ichak) -- joylashishi, topografik anatomiysi va ko'rsatmalari xuddi o'ng oyoq kaftidagi UOK 20-UOK 25 zonasini kabi.

26. Pastga tushuvchi yo'g'on ichak qovuzlog'i - ChOK 26.

Chap oyoq kaftida ko'ndalang chambar ichakning ikkinchi yarmi, pastga tushuvchi chambar ichak va sigmasimon ichak joylashgan.

**Joylashishi:** Ko'ndalang chambar ichaqdan boshlanib, tovon tomonga oyoq kafti lateral qirg'og'iga parallel holda o'tadi, so'ng deyarli to'g'ri burchak ostida to'g'ri ichak sohasiga o'tadi va orqa peshov sohasi yakunlangan joyda siydiq pufagi refleksogen sohasi tomon yo'naladi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti lateral nerv, arteriya va vena joylashgan.

**Ko'rsatma:** Ichak atoniysi, qorin og'rishi, ich ketishi, qabziyat.

27. To'g'ri ichak - ChOK 27.

**Joylashishi:** Tovon oldida, siydiq pufagi sohasiga sal yetmay oyoq kafti lateral tomonidan sigmasimon ichak sohasidan boshlanadi. Bundan tashqari, to'g'ri ichak sohasi tizzananing ichki yuzasida axill payi odsidagi chuqurchada joylashadi -ikkala oyoqda (MYu 32 sohasi).

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti lateral va medial nerv, arteriya va venalar joylashgan.

**Ko'rsatma:** To'g'ri ichak sustligidagi qabziyat, bavosil.

28. Orqa peshob - ChOK 28

**Joylashushi:** Tovon oldida, oyoq kafti medial qirg'og'i oldida.


**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida medial oyoq kafti nervi, arteriyasi, venasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Orqa peshob qichig'i, bavosir.

## 29. Taloq - ChOK 29.

**Joylashishi:** Bu soha faqat chap oyoq kaftida joylashgan, Qo'ndalang chambar ichakning burilish sohasidan yuqorida (ChOK 26), oyoq kafti lateral qirg'og'idan 1 sm masofada, IV va V kaft suyaklari asosidagi chuqurchada. Zona diametri 1,5-2 sm.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida umumiyo oyoq kafti barmoqlari nervlari, arteriyalari, venalari joylashgan.



76-rasm. Oyoq kafti yuzasi (O'OK)

**Ko'rsatma:** Kamqonlik (gemoglobinning past darajasi), biqindagi og'riq, tananing ximoya mexanizmlari susayishi.

35. Jinsiy bezlar (tuxumlar va tuxumdonlar) - ChOK 35

36. *Joylashushi, topografik anatomiysi, Ko'rsatmalar* - o'ng oyoq kafsidagi UOK 35 sohasiga qarang.

39. Tananing yuqori qismi limfa bezlari - OKYu39.

**Joylashishi:** ikkala oyoqlarda, to'g'ri tashqi to'piq suyagi oldidagi chuqurchasida.

**Topografik anatomiysi:** Soha sohasida kichik boldir yuza nervi, oldindi lateral tupik arteriyasi, oyoq kafti yuza qismi venoz shoxchalarini joylashgan.

**Ko'rsatma:** Oyoqlar shishi, to'piqning ham, sellyulit, mioma, kista (ko'krak), saraton.

40. Tananing pastki qismi limfatik bezlari - OKYu 40.

**Joylashishi:** Ikkala oyoqlarda, oddindi ichki to'piq chuqurchasida.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida teri osti nervidan chiquvchi boldirning medial teri shoxlari; medial oyoq kafti arteriyasidan chiquvchi yuza shoxlari va orqa katta boldir arteriyasi va venadan chiquvchi venalar.

**Ko'rsatma:** Oyoqlar shishi, to'piqning ham, sellyulit, tananing pastki qismida dimlanish belgilari.

41. Limfa irmog'i, ko'krak qismi - OKYu 41.

**Joylashishi:** Zona ikkala oyoqda joylashgan. I va II barmoqning barmoq burmasida I va II kaft suyaklari orasidagi chuqurchada boshlanadi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti yuza qismi barmoqlari nervlari, oyoq kafti yuza qismining arterial va venoz tarmog'i joylashgan.

**Ko'rsatma:** Oyoqlar shishi, to'piqning ham, sellyulit, tana himoya kuchlarining susayishi, mioma, kista, yara, saraton.

42. Vestibulyar apparat - OKYu 42.

**Joylashishi:** Oyoq kafti IV va V suyaklari orasidagi chuqurchada. IV va V oyoq kafti barmoqlarining barmoqlararo burmasidan I va II kaft suyaklari oralig'idagi chuqurchadan boshlanadi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti yuza qismi oraliq teri nervi, oyoq kafti yuza qismi arteriyalari va venalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Tez ko'tarilganda va aylanganda bosh aylanishi, transportda yurganda ko'ngil aynishi, balandlikdan qo'rqish, arterial gipotensiya.

43. Sut bezlari - OKYu 43.

**Joylashishi:** Diametri 3,5 sm ga ega bo'lgan maydondagi soha, I va III kaft suyaklari orasida joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oraliq teri nervi va teri yuzasi medial nervi, oyoq kafti yuza qismi arteriya va venalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Hayz vaqtida sut bezlarining shishishi ko'rinishidagi dimlanish, sut bezlari to'qimasida kistalar paydo bo'llishi.

44. Diafragma - OKYu 44.

**Joylashishi:** Zona I kaft suyagi asosidan V kaft suyagigacha 1 sm kenglikda o'tadi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oraliq va medial teri yuza nervlari, kaft suyaklari yuza arteriyasi va venalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Diafragma spazmi, hansirash.

45. Bodomsimon bez, halqum va dimog' (burun-halqum) -OKYu 45.

**Joylashishi:** Chap va o'ng oyoq kaftining asosiy falangasi asosi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida terini lateral yuza nervi, boldirning oraliq teri yuza nervidan chiquvchi qo'shimcha shox, medial teri yuza nervi; oldingi lateral to'piq arteriyasi va oyoq kafti vena yoyi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Tonzillit, faringit, rinofaringit.

46. Pastki jag' - OKYu 46.

**Joylashishi:** I barmoqning asosiy falangasi o'rtasida. 0,5 sm kenglikdagi ko'ndalang tasma.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti yuza qismi barmoq nervi, venasi va arteriyasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Tish og'rig'i, jag' yallig'lanishi, parodontoz.

47. Yuqori jag' - OKYu 47.

**Joylashishi:** Zona 0,5 sm kenglikdagi tasma ko'rinishida, pastki jag' sohasiga parallel joylashgan.

**Topografik anatomiysi:** Pastki jag' sohasiga qarang.

**Ko'rsatma:** Tish og'rig'i, jag' yallig'lanishi, parodontoz, burun bo'shilig'i yirenglashi.

48. Hiqildaq, traxeya - OKYu 48.

**Joylashishi:** I va II kaft suyaklari orasidagi chuqurchada barmoqlararo burmada.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti yuzasi barmoq nervi, oyoq kafti chin arteriyasi va oyoq kafti yuza qismi barmoqlar venalari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Tovushning pasayishi, xirillash, hatto tovushning butkul chiqmay qolishi, yo'tal, bronxit.

5. Chakka sohasi, uch boshli nerv - LYu 5.

**Joylashivi:** I barmoq do'mboqchasining lateral yuzasida, chap

va o'ng oyoq kafti I barmoqni yuza sohasi va barmoqlararo oralinqing lateral yuzasida (UOK5 sohasiga qarang).

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida oyoq kafti barmoq nervlari, arteriyalari, venalari joylashgan: O'ng oyoq kafti sohasi chap yarim sharlarga mos va uning aksi.

**Ko'rsatma:** Bosh og'rig'i, migren, uch shoxli nervning 1 va 2 shoxlarining nevralgiyasi.

14. Yelka-LYu 14. UOK 14 sohasini ko'ring.

36. Jinsiy a'zolar - LYu 36. UOK 35 sohasini ko'ring.

**Joylashishi:** Lateral do'ng yonida - orqada va pastda.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida bodsir nervidan chiquvchi tovon shoxlari joylashgan, kichik boldir arteriyasi va oyoqning kichik teri osti venasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Og'riqli hayz, hayzning buzilishi, bachadonni spazmli qisqarishi, bepushtlik, epididimit, impotensiya, kriptorxizm.

37. Kichik chanoq a'zolarining bo'shashishi - LYu 37.

**Joylashishi:** LYu 36 sohasidan yuqorida, axill payi oldidaga chuqurchada, 9 sm masofaga yuqoriga ko'tariladi.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida katta boldir nervi, orqa katta boldir vena va arteriyasi joylashgan.

**Ko'rsatma:** Bachadondan qon oqishi, og'riqli hayz.

38. Son bo'g'imi - LYu 38.

**Joylanishi:** O'ng va chap oyoq kaftida medial va lateral do'nglikning pastida va orqasida.

**Topografik anatomiysi:** Zona sohasida boldir va medial yuza teri nervining shoxlari, kichik teri osti venasi shoxlari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Son bo'g'imidiagi og'riq, chanoq-son bo'gimining shishinqirashi.

6. Burun - MYu 6.

**Joylashishi:** I barmoqning medial qismida joylashgan.



79 - p a c m. Oyoq kafti medial yuzasi (MYu).

**Topografik anatomiysi va Ko'rsatma:** UOK6 sohasini ko'ring.

Refleksogen sohalar: paratireoid bezi (MYu 10), siyidik pufagi (MYu 23), son bo'g'imi (MYu 38), limfatik bezlar (MYu 40) yuqorida yozilgan - UOK 10 (ChOK 10), UOK 23 (ChOK 23), LYu 38, OKYu 40 sohasini

ko'ring.

49. Chov - MYu 49.

*Joylashishi:* Medial do'nglikni oldida va yuqorisida, MYu 40 sohasidan yuqorida (limfa bezlari) o'ng va chap oyoq kaftida.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida teri osti nervining shoxlari, katta teri osti venasi va teri osti arteriyalar tarmog'i joylashgan.

*Ko'rsatma:* Chov sohasidagi og'riq, og'riq bilan kechuvchi chov limfa bezlarining kattalashishi.

50. Bachadon, prostata bezi - MYu 50.

*Joylashishi:* O'ng va chap oyoq kaftida medial tarafdan, medial do'ngning orqasida va pastida.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida, katta son nervini medial tovon shoxlari va medial oyoq kafti nervlari, arteriya va venalari joylashgan.

*Ko'rsatma:* Oqchil, og'riqli hayz, biriktiruvechi apparat sustligi natijasida bachadonning tushishi va qayrilishi, mioma, prostata bezi yallig'lanishining kuchayishi.

51. Olat, qin, siydiq chiqaruv naychasi - MYu 51.

*Joylashishi:* Siydiq pufagining medial sohasi (MYu 23).

Zona 3 mm kengliqdagi tasma ko'rinishiga ega, kaft usti suyagi sohasidan bachadon sohasigacha (SM50) boradi.

*Topografik anatomiysi:* SM50 sohasini ko'ring.

*Ko'rsatma:* Uretrit, impotensiya, infeksiyali oqchil va boshqa ajralmalar.

52. To'g'ri ichak - MYu 52.

*Joylashishi:* Ikkala oyoq kaftida, boldirda axill payidan oldindagi chuqurchaning ichki yuzasida (ChOK 27 sohasini ko'ring.)

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida katta boldir nervi, orga katta boldir arteriyasi va venasi joylashgan.

*Ko'rsatma:* To'g'ri ichak atoniyasidagi qabziyat, to'g'ri ichak yallig'lanishi, gemorroy.

53. Umurtqa pog'onasining bo'yin qismi - MYu 53.

*Joylashishi:* Oyoq kafti medial qismida, I barmoqning asosiy falangasiga parallel o'tadi, ikkala oyoqda ham bor.

*Topografik anatomiysi:* Zona sohasida chin oyoq kafti barmoqlar nervi, arteriya va venalar joylashgan.

*Ko'rsatma:* Umurtqa pog'onasi shaklining o'zgarishi, bo'yin radikuliti, qo'llardagi og'riqlar, yurak sohasidagi reflektor og'riq, bo'yin qiyishiqligi.

Umurtqaning ko'krak qismi - MYu 54.

*Joylashishi:* Oyoq kafti medial qismida, oyoq kafti qirg'og'iga parallel.

*Topografik anatomiysi:* MYu 53 sohasiga qarang.

*Ko'rsatma:* Bexterev kasalligi, ko'krak radikuliti, beldagi og'riq, umurtqalararo disk churrasi.

55. Umurtqaning bel qismi - MYu 55.

**Joylashishi:** Zona 1 sm kenglikdagi tasma ko'rinishida medial ponasimon suyakdan kaft usti suyagining boshlanish qismigacha.

**Topografik anapgomiyasi:** MYu 54 sohasini ko'ring.

**Ko'rsatma:** Ishias, bel radikuliti, umurtqalararo diskning churrasi, spondiloartroz.

56. Dumg'aza va dum suyagi - MYu 56.

**Joylashishi:** Chap va o'ng oyoq kaftining medial tomonida. Siyidk pufagi (MYu 23) sohasidan boshlanadi, 2 sm kenglikdagi tasma ko'rinishida orqaga va tovon o'rtasiga o'tadi.

**Topografik anatomiyasi:** Zona sohasida medial va lateral oyoq kafti nervlari, arteriyalari va venalari, oyoq kafti barmoq nervi shoxlari joylashgan.

**Ko'rsatma:** Dumg'aza-dum radikuliti, dumg'aza radikuliti, koksigeniya, sakroileit.

### ОYOQ KAFTI REFLEKSOGEN SOHALARINI UQALASH

Refleksogen sohalarni uqalash shoshilinch yordam berish, davolash (remissiya davrida) yoki profilaktika maqsadida o'tkaziladi.

Agar uqalashni mutaxassis o'tkazayotgan bo'lса, bemor chalqancha bo'lib, ko'zlarini yumib, qo'llarini ikki yoniga uzatib, kaftlarini yuqoriga qaratgan holda tana mushaklarini bo'shashtirib yotadi.

Agar uqalashni bemor o'zi bajarayotgan bo'lса, qulay o'tirib olib, uqalanayotgan oyoqni boshqa oyoqning tizzasiga yoki kursiga oyoq mushaklarini iloji boricha bo'shashtirib qo'yadi. Ikkala oyoq kaftini bir xil vaqt davomida uqalash lozim. Uqalash uqalovchi qulay holatni egallaganda va bemor tanasi butkul bo'shashgandagina natijali bo'ladi.

Uqalash barmoqlari do'mboqchalari bilan, falangalararo bo'g'implar yoki uchida rezinasi bo'lган qalam bilan qilinadi. Yaxshi siljishi uchun, odatda, vazelin yoki krem surtiladi. Uqalanayotgan sohaga qarab turlicha usullar qo'llaniladi, aylanma harakatlar qilinadi, barmoqli vibratsiya yoki barmoqlarni yuqoriga va pastga yurgiziladi. Sohalarning katta maydonini uqalayotgan vaqtida yuqoriga qarab qattiqroq bosiladi, bunda qo'l pastga siljiydi.

Shoshilinch yordam ko'rsatilayotganda (migren, stenokardiya, hushdan ketish, bronxial astma va boshqalar) tegishli sohalar uqalanadi. Oldin sal bosiladi, keyin bemorning yoshiga qarab, sekin-asta kuchaytiriladi (5-6 kg oralig'ida).

Kasallikning remissiya davrida va surunkali kechganda sohalarni paypaslab, tashxis o'tkaziladi. Uqalovchi yoki bemor barmoqlari do'mboqchalari bilan yoki ruchkani, qalamning tumtoq uchi bilan oyoq kaftining har bir sohasiga yoki oyoq kafti yuza qismiga bosib, tana qismiga yoki a'zoga tegishli og'riqli sohani aniqlaydi, keyin uqalashga kirishiladi.

Davolovchi uqalash birin-ketin 3 ta usulni o'z ichiga olgan:

I. Qon aylanishini va mushaklarini bo'shashtirish maqsadida oyoq

kaftini isitish. Buning uchun oyoq kaftini barmoqlar uchidan tortib, do'nglarga hamma barmoqlar bilan silanadi (uqlananadi), so'ngra uring urib qo'yiladi, qo'l kafti qirrasi bilan oyoq kaftida chopiq sifat uqlananadi, oyoq kaftini tez yuqoriga ko'tarish va butunlay bo'shashtirish uchun pastga tushirish.

2. Oyoq kaftini barmoqlarga yo'naltirilgan holda haskash sifat uqlash, kaftning I barmoq do'mboqchasi bilan yaxshigina bosib, barmoqlarga yo'natirilgan holda butun oyoq kaftini iylash (uqlash) kerak. Barmoqlarga yetgach (barmoqlar silanmaydi), oyoq kaftini darhol pastga tushiriladi, so'ngra qayta silashga kirishiladi. Mushaklarni bo'shashtirgandan va oyoq kaftini silagandan so'ng silab chiqiladi.

3. Tananing tegishli a'zosini va qismlarini davolash maqsadida paypaslash yo'li bilan aniqlangan og'riqli sohalar uqlananadi. Bosim kuchi 6 kg atrosida bo'lishi lozim. Uqlashning har bir seansida jarohatlangan a'zoni kuchli bo'limgan og'riq faollashtirishi maqsadida og'riqli sohalarga bosimni oshirib boriladi.

Uqlashni doim buyrak, siyidik yo'li va siyidik pufagi sohasidan boshlanadi (ajratish tizimi faoliyatini kuchaytirish maqsadida). So'ng bosh, ovqat hazm qilish a'zolari, jigar, limfa tizimi va niroyat, og'riqli (kasal) sohalar uqlananadi. Faollashtirish oyoq kaftining hamma yerini silash bilan yakunlanadi. O'tkir davrda har bir sohani 10-20 daqiqa, xurujlararo davrda yoki surunkali kasallikda 5 daqiqa uqlananadi.

Shunday qilib, butun oyoq kaftini tayyorlash uqalovi (shuningdek, buyrak usti bezi, buyrak, siyidik pufagi, bosh sohalari) 25-30 daqiqa o'tkaziladi, og'riq joylarni esa - 5 daqiqa uqlananadi.

Profilaktika maqsadida ikkala oyoq kaftini barcha joylarini haftasiga 1 marta uqlananadi. Uqlashni oyoq kaftini (odsi va orqaga) yog'och ustida qattiq bosimsiz yumalatish bilan yakunlanadi.

Oyoq kaftini uqlash, ayniqsa, oyoq kafti pastki sohasini uqlash uchun yosh bo'yicha hech qanday chegaralash yo'q.

Ba'zi kasallikkarda oyoq kaftining refleksogen sohalarini uqlash mustaqil davolash usuli sifatida qo'llaniladi.

Oyoq kafti refleksogen sohalarini yaxshilab uqlaganda tegishli a'zoda ma'lum bir reaksiya paydo bo'ladi, masalan, og'riq kuchayadi, boylamlar, venalar shishadi, tana harorati ko'tariladi (limfa tugunlari sohasini uqlaganda). Lekin bu reaksiyalar darhol o'tib ketadi.

#### LOYNING SHIFOBAXSHLIGI

Loyda shifobaxshlik xususiyati borasida to'xtalamiz. Frankfurtmaynlik tibbiyot fanlari doktori Xayns Battenberg "Er vositachiligidagi xastaliklarni davolash haqida" kitobida shunday yozadi: "Tuproqdan bo'ladijan natija asosan uning shimbolish xususiyatiga bog'liq. Ayrim yerlar shu darajada mayda zappa (tuproq, qum)lardan iborat, shuning uchun ustida quvvat juda ko'p, xuddi cheksiz miqsordagi zaharni shimbolish yuboradigandek. Tuproq nafaqat suvni, balki gazlarni ham yutadi".

Doktor Shlager esa: "Luvos" loyi ichki kasalliklarni davolashda eng yaxshi vositadir. Loyning shimb olish xususiyati me'da va ingichka ichakda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ichki a'zolarda zaharlar yig'ilishi (toksinlar) alomatini sezgan bemorlar guvohlik berishicha "luvos" ularni zaharlanishdan butunlay xalos etgan. U barcha ichki zaharlarni yutib yuboradi. Zararsizlantiradi va kasallik qo'zg'atuvchi hamma mikroblarni chiqarib tashlaydi", deb yozadi.

Qadimida ota-bobolarimiz tandirni tuprog'ini olib, uni maydalab, loy holiga keltirib, qorin og'riqlarida ishlatganlar.

Loy va tuproq shamollashni oladi, xastaliklarni va yiringli yaralarni so'rib oladi, yiringlarni tozalaydi. Demak, tuproq bilan loy bebabodir.

